

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**Axmedova Malohat  
Ergashevna**

**PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI  
(Pedagogika tarixi)**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi  
tomonidan 140000 - O‘qituvchilar tayyorlash va pedagogika  
fani Bakalavriat yo‘nalishi, barcha ta‘lim yo‘nalishlari  
uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan.*

**«TAFAKKUR-BOSTONI»**

**TOSHKENT – 2011**

**UDK: 37(575.1)(09)**

**74.03**

**A90**

Axmedova Malohat Ergashevna **Pedagogika nazariyasi va tarixi (Pedagogika tarixi)**,. OʻzR oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi. -T.: «TAFAKKUR-BOSTONI». 2011. 128 bet.

**BBK 74.03ya73**

Mazkur oʻquv qoʻllanmada ibtidoiy davrdan XX asrga qadar Markaziy Osiyoda mavjud boʻlgan taʼlim va tarbiya, pedagogika tarixi rivoji Sharq mamlakatlaridagi pedagogik fikr tarixi va nazariy qarashlar bilan uzviy bogʻliqlikda bayon etiladi.

Oʻquv qoʻllanma asrlar davomida shakllanib, rivojlanib kelayotgan pedagogika tarixi fanining muhim muammolaridan biri – eng qadimgi manbalardagi maʼrifiy gʻoyalarni yosh avlod qalbi va ongiga singdirish vazifalariga bagʻishlanadi. Oliy taʼlim muassasalarining oʻquv-tarbiya faoliyatini tashkil etish, mashgʻulot jarayonida qiziqarli savol-javoblar, testlar uyushtirish, ilmiy-maʼrifiy dasturlar ishlab chiqish yoʻllari koʻrsatiladi.

### **Taqrizchilar:**

Pedagogika fanlari doktori, professor. M.X.Toxtaxodjaeva,  
Pedagogika fanlari nomzodi, professor. G. Niyozov

**ISBN - 978-9943-362-45-1**

**№ 1555-6355**

©«TAFAKKUR-BOSTONI»

## KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohadagi islohotlar ta'lim tizimida ham yangilanishlar bo'lishini taqozo etmoqda. Ta'lim sohasini isloh qilishga oid davlat siyosati ta'lim tizimi rivojlanishi strategiyasining ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. 1997 yil 29 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ta'limni tubdan isloh qilishda amaliy dastur bo'ldi. Ta'lim sohasidagi mazkur hujjatlar Respublikada ta'limni rivojlantirish ustuvor soha ekanligi e'tirof etish bilan birga xalq ta'limi sohasining barcha yo'nalishlarida modernizatsiyalash ishlariga katta yo'l ochib berdi. Ta'lim islohotlaridan asosiy maqsad – xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan va texnika, texnologiyalarning yutuqlari asosida shaxsning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganidek: «Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi»<sup>1</sup>.

Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyati, jamiyatning axloqiy va ma'naviy takomili ko'p jihatdan yoshlarning ma'naviy tarbiyasiga bog'liq. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 avgustdagi PQ-451-sonli «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi Qarorida ko'rsatilganidek «Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga, ona-yurtga muhabbat, istiqbolga sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda»<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997. – B. 137.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi qarori // Xalq so'zi. 2006 yil 25 avgust.

Bu vazifani hal etish uchun oliy ta'lim muassasalari, jumladan oliy o'quv yurtlari ta'lim-tarbiya jarayonida xalqimiz tarixi, madaniyati, ma'naviyatiga yangicha qarash, uni bugungi kun nuqtai nazaridan o'rganish, baholash va ulardan talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishda foydalanish maqsadga muvofiq. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek. «O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q»<sup>3</sup>.

Ta'lim-tarbiya tarixi boy ma'naviy merosga ega bo'lib, uni o'rganish va ta'lim iste'moliga kiritish kadrlar tayyorlash milliy modelida ko'rsatilganidek, har tomonlama barkamol insonni tarbiyalash va rivojlantirishda, ma'naviy sifatlarni tarkib toptirishda katta ahamiyat kasb etadi.

“Ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi. Nafaqat ko'hna tarix balki yangi tarix ham buning ko'plab misollarini beradi”<sup>4</sup>.

Buyuk donishmandlar Suqrot, Aristotel, Diogen, Seneka, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Nasafiy va boshqalarning fikricha ma'naviylik insonlarning o'zaro munosabatlarida ezgulik, poklik, adolat, mehr-muruvvat, o'zaro yordam va o'zaro tushunish kabi sifatlarning yuzaga kelishida namoyon bo'ladi. «Avesto» va Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti hamda Ma'mun akademiyasi olimlari yaratgan o'lmas asarlar dunyo fani va sivilizatsiyasiga qo'shilgan mislsiz hissadir. Ular orasida Muhammad Muso Xorazmiy (783–850 yy.), Ahmad Farg'oniy (tax. 797–865), Abu Rayhon Beruniy (973–1048), Abu Ali ibn Sino (980–1037), Abu Nasr ibn Iroq (958–1034), Abu Sahl Masihiy (977–1011), Abulxayr ibn Hammor (961–1038), Abu Ali ibn Miskavayx (vaf. 1030), Abu Mansur as-Saolibiy (961–1038), Abu Abdulloh Iloqiy (vaf. 1068), Abu Abdulloh al-Xorazmiy (vaf. 997) larning asarlari alohida o'rin tutadi. Ma'mun akademiyasi olimlaridan o'ziga xos ma'naviy-pedagogik meros qolgan. Ularning didaktik asarlarida ifodalangan saxovatlilik, insonparvarlik, halollik, do'stlik, Vatanga muhabbat, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabat, mehnatsevarlik, sabr-qanoatlilik, xushmuomalalik, mardlik, e'tiqodlilik,

<sup>3</sup> Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 4.

<sup>4</sup> Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1998. – B. 62.

adolatlilik, sadoqatlilik, jonajon o'lkaga muhabbat, ijodkorlik, zukkolik, poklik, qanoatlilik, to'g'rilik hamda boshqa milliy va umuminsoniy sifatlarni har bir yoshning ongiga singdirish ma'naviy ta'lim-tarbiyaning asosiy talablaridan hisoblanadi.

Allomalarning merosi vositasida talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirish muammosi bilan falsafa, adabiyotshunoslik, tarix, inson va jamiyat, etnografiya va boshqa fanlar namoyandalari u yoki bu darajada shug'ullanib kelmoqdalar. Faylasuf olimlardan I. Mo'minov, J. Tulenov, M. Xayrullaev, M. Mahmudov, S. SHermuhamedov, E. YUsupov, H. Aliqulovlar yuksak shaxs tarbiyasi haqida fikr yuritar ekanlar, insonni moddiy va ma'naviy taraqqiyotning yaratuvchisi, erkin ijodkor sifatida talqin etadilar.

Pedagoglardan O. Musurmonova, M. Quronov, S. Ochil, N. Ortiqov, U. Mahkamov, M. Inomova, Q. Quronboevlar o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish, mustaqillik yillarida tarbiya jarayonlari va yosh avlod ma'naviyatini rivojlantirish, umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-uslubiy asoslarini yaratishga bag'ishlangan yirik tadqiqotlar olib bordilar. Ta'lim jarayonining muhim masalalari J. Yo'ldashev, M. To'xtaxo'jaeva, F. Yuzlikaevlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

Ta'lim-tarbiya tarixiga doir S. P. Tolstov, A. A. Freyman, M. Aripov, O'. Aleuov, H. Boboev, A. Zunnunov, B. Qodirov, S. Nishonova, X. Tillashev, K. Hoshimov, O. Hasanboeva, J. Hasanboev, Z. Nuritdinova, E. To'raqulov, S. Rahimov, H. Homidov, K. Nosirov, F. Babashev, N. Mahmudovalarning tadqiqot ishlarida qomusiy olimlarning inson kamoloti masalalari borasidagi fikrlari tadqiq etilgan. Tadqiqotchilardan Q. Karimov, N. Husanxo'jaev, M. Maqsudov, Q. Mahmudov, A. Axmetova va boshqalar Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdurauf Fitratlarning ta'limiy-axloqiy qarashlarini tadqiq etganlar.

Psixolog olimlar M. G. Davletshin, G' B. Shoumarov, E. G'oziev, R. I. Sunnatova, Z. Nishonova va boshqalarning tadqiqot ishlarida insonning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirish jarayoni optimal psixologik sharoitda o'rganilib, ular ma'naviy tarbiyasi turli psixologik omillar, inson tabiatini hisobga olish, ijtimoiy hayot, o'z-

o'zini, hayotdagi mavqeini anglab yetishga bo'lgan psixologik holatlar asosida o'rganilgan.

S. Nishonova «Sharq Uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi»ga doir tadqiqot ishida Sharq Uyg'onish davrida ta'lim-tarbiya masalalari, qomusiy olimlar ilmiy merosida komil inson tarbiyasi, o'sha davr ta'limiy-axloqiy asarlarida barkamol inson tarbiyasi masalalarini yoritib beradi va komil insonga xos xislatlarni ko'rsatadi. Olimaning ta'kidlashicha, Sharq Uyg'onish davri ta'limiy-axloqiy asarlarida barkamol shaxs tarbiyasida aqliy, axloqiy, jismoniy, nafosat tarbiyasi asosiy mezon bo'lib kelgan. Ana shu mezonlarni tarbiyalashda inson egallashi zarur bo'lgan ma'naviy xislatlar ham alohida ajratilib ko'rsatiladi<sup>5</sup>.

Tadqiqotlarning ma'lum qismi tasavvuf ta'limoti vakillarining axloqiy tamoyillariga bag'ishlangan. K. Qilichova adarlarida ayrim shaxslarning pedagogik ta'limoti tadqiq etiladi. K. Nosirov IX-XI asrlarda O'rta Osiyo mutafakkirlarining axloqiy tarbiya haqida g'oyalarini (al-Buxoriy va al-Forobiy asarlari misolida) tadqiq etar ekan, inson axloqiy kamolotining asosiy shart-sharoitlari va kamolot mezonlari bo'lgan axloqiy xislatlarni aniqlaydi.

F. A. Babashev esa pedagogika tarixida Xorazmda tashkil etilgan «Bilimlar uyi» – «Ma'mun akademiyasi» (1003–1014) va unda faoliyat ko'rsatgan olimlar Abulxayr Hammor, ibn Hamid al-Xorazmiy, Abu Sahl al-Masihiy, Abu Ali Ahmad ibn Miskavayx, Abumansur as-Saolibiyning ilmiy merosi bilan bir qatorda – axloqiy qarashlarini ham pedagogik jihatdan tadqiq etadi.

Shuningdek, tadqiqotchilardan M. Xojieva Xoja Ahmad Yassaviyning ma'naviy-tarbiyaviy qarashlari haqida tadqiqotlar olib borib, unda Yassaviyning axloqiy o'g'itlari misolida inson ma'naviy kamolotida erishishi zarur bo'lgan xislatlarni ilgari suradi.

O'zbek xalq pedagogikasi tarixida juda ko'p didaktik asarlar yaratilib, ularni chuqur o'rganish, ulardagi eng qimmatli fikrlarni aniqlash, saralash, ulardan bugungi kunda ijodiy foydalanish hamda hayotga keng tatbiq etish hozirgi kunning muhim vazifasidir. Ilm sohiblari ta'lim-tarbiya sohasiga oid qimmatli asarlar yaratgan, ularning har bir ta'limiy-axloqiy

---

<sup>5</sup> Nishonova S. Sharq uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi: Pedagogika fanlari doktori ... diss. – T., 1998. – B. 120.

asari bo'lib ma'naviy tarbiya, pedagogik fikrlar ilgari surilgan, ularning tarbiya haqidagi fikrlari chuqur, mantiqiy va asosli bayon etilgan. Asrlar osha bu fikrlar o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ular keng pedagogik jamoatchilik mulkiga aylanib, o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi, uni hayotga tayyorlash ishida katta yordam berib kelmoqda. Bu pedagogik meros ayniqsa hozirgi ma'naviy qadriyatlar tiklanayotgan bir sharoitda alohida qimmatlidir.

O'zbekiston Respublikasi pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalar ma'naviy sifatlarni tarbiyalashning muhim shartlaridan biri ularni Sharq allomalarining pedagogik qarashlari asosida ma'naviy jihatdan shakllantirish, buning uchun pedagogika tarixi materiallaridan unumli foydalanishdan iboratdir.

O'zbekistonda pedagogika oliy ta'lim muassasalari ish tajribasini o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, xalqning ulkan merosidan o'qituvchilar tayyorlash, ularning ma'naviy sifatlarni shakllantirishda yetarlicha foydalanilmayapti.

Talabalarni o'tmish meros, qimmatli manbalar yordamida ma'naviy jihatdan tarbiyalash nihoyatda dolzarb bo'lganligi uchun ham bu sohada izlanishlarni amalga oshirish ehtiyoji vujudga kelmoqda.

Pedagogika tarixi materiallari yordamida oliy ta'lim muassasalarida talabalar ma'naviy sifatlarni tarbiyalashni rivojlantirish maqsadida ushbu kurs mazmunini yangi materiallar bilan boyitishga intildik.

Professor-o'qituvchilar mashg'ulotlarini bevosita kuzatish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash, ularga bilim berish va ma'naviy rivojlantirishda pedagogik merosning keng imkoniyatlarini hisobga olishga harakat qilindi. Shuning uchun ham pedagogika tarixi kursi mazmunini boyitgan holda mashg'ulotlarni tashkil etishga bo'lgan intilish kuchli. O'quv qo'llanmaning bundan keyingi sahifalarida «pedagogika tarixi» kursini yangi materiallar bilan boyitish va ushbu o'quv materiallarining talabalar ma'naviyatini tarbiyalashda pedagogik imkoniyatlari haqidagi ilmiy izlanishlar natijalarini bayon etishga harakat qilamiz.

Abu Nasr ibn Iroq, Abu Sahl Masihiy, Abulxayr ibn Hammor, Abu Ali ibn Miskavayx, Abu Mansur as-Saolibiy, Abu Abdulloh Iloqiylarning pedagogik qarashlari «Pedagogika tarixi» kursi mazmunida o'z ifodasini topmagan. «Pedagogika tarixi» bo'yicha mavjud darsliklarda esa o'quv

materiallari va ma'lumotlar al-Xorazmiy, Beruniy, ibn Sino kabilarning pedagogik qarashlarini yoritishdan iborat bo'lib qolgan. Shularni hisobga olgan holda, biz pedagogika tarixini o'qitishda yangi o'quv materiallari bilan boyitish hamda ushbu o'quv materiallarini talabalar ma'naviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslashga harakat qildik.

Mazkur qo'llanma Sharq mutafakkirlarining komil inson tarbiyasi, uning kamolga yetishining asosiy talablarini yoritib berishga bag'ishlanadi.

Ma'lumki, ma'naviy barkamol avlod o'z-o'zidan tarbiyalanib qolmaydi. Bugungi talaba ertangi kunda barkamol insonni shakllantirish bilan shug'ullanadigan mutaxassisdir. Bo'lajak o'qituvchining o'zida, avvalo, yetuk kasbiy sifat, ma'naviy-ma'rifiy madaniyat, mahorat hamda kasbiy ko'nikmalar teran rivojlangan bo'lishi shart. Bu esa O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiyaning yagona pedagogik tizimini yaratishni muqarrar qilib qo'ydi.

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Prezident I. Karimov hamda tarixchi, faylasuf, psixolog, pedagog olimlar tomonidan ilgari surilgan qarashlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi PQ-451-sonli qarori, «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasi, Vazirlar Mahkamasining ta'lim masalalariga doir qarorlari, Sharq mutafakkirlarining yoshlar ma'naviyatini tarbiyalash va rivojlantirish to'g'risidagi ta'limotlari, Oliy va o'rta maxsus hamda Xalq ta'limi vazirliklarining ta'lim to'g'risidagi me'yoriy hujjatlari, shuningdek, falsafa, pedagogika va psixologiya sohasidagi tadqiqotlar va ilg'or tajribalar asosida yaratildi.



# I. MUSTAQIL O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY QADRIYATLARNING TIKLANISHI VA ULARNING TARIXIY ILDIZLARI

## 1. 1. Tarixiy, pedagogik manbalar asosida talabalarning ma’naviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirish

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, oliy pedagogik ta’lim tizimi respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy islohotlar sharoitida rivojlanish davriga kirdi. Hozirgi kunda iqtisodiy madaniyati, ma’naviy va moddiy qadriyatlarini insonparvarlik, yuksak axloqiy ideallar ruhida rivojlantirayotgan mustaqil demokratik davlatni barpo etish jarayoni amalga oshmoqda.

O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlashning muhim vazifalaridan biri milliy ma’naviyatni yuksaltirish, milliy mafkurani shakllantirishdan iborat. Bu murakkab va dolzarb vazifani hal etish uchun bosib o‘tilgan tarixiy yo‘lni tahlil qilish, ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash, shu asosda tarbiya, ayniqsa, talabalarning ma’naviy sifatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik vositalar tizimini yaratish zaruriyati mavjud. Jamiyat hayoti va unda yashovchi kishilarning ijtimoiy-ma’naviy yuksalishi milliy mafkura, talabalar ta’lim-tarbiyasi hamda bo‘ljak mutaxassislarning keng ko‘lamda intellektual salohiyatga ega bo‘lishini talab qilmoqda. Tarixiy tajribalar shundan dalolat beradiki, har qanday davlat tizimi o‘zining asosiy maqsadi sifatida yoshlarga ajdodlardan meros bo‘lib qolgan ma’naviy boyliklar, ta’lim-tarbiyaviy qadriyatlarni singdirishni taqozo qiladi. Ta’lim-tarbiyaviy qadriyatlar yosh avlodning ijtimoiy-ma’naviy rivojlanishida zamin bo‘lib xizmat qiladigan moddiy, ma’naviy boylikdir.

- Buni yod oling!** Ma’naviyat tushunchasiga bugungi kunda mushtarak bir ta’rif berilmagan. Umum tomonidan qabul qilingan har xil ta’riflar mavjud:
- «Ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir»<sup>6</sup>.
  - «Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishiga

---

<sup>6</sup> Karimov I. A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O‘zbekiston, 1998. – B. 62.

chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir<sup>7</sup>.

– «Ma'naviyat – jamiyatning, millatning va yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha»<sup>8</sup>.

– «Ma'naviyat – inson axloqi va odobi, bilimlari, ist'edodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarining bir-biri bilan uzviy bog'langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan mushtarak tizimdir»<sup>9</sup>

– «Ma'naviyat – insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya'ni insonning mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go'zallik, sevish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko'plab asl insoniy xislatlar va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuasidir»<sup>10</sup>.

Ma'naviyat ilohiy nur, insoniy mohiyat ramzi<sup>11</sup>.

Jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan, turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda vujudga kelgan qadriyatlar dolzarb va ahamiyatli.

O'z tarixini chuqur bilgan, uning eng qimmatli jihatlari anglab olgan, mohiyatini his etgan kishigina o'z millati va xalqining kelajagini tasavvur qila oladi, chunki milliy madaniyat va mafkuraga zamin, tayanch bo'lib xizmat qiladigan fikrlar, pedagogik qarashlar, yondashuvlar, konsepsiyalar asrlar davomida shakllangan. Ajdodlarimizning ma'naviyat, ma'rifatga oid qarashlari va ta'limotlarining paydo bo'lib, rivojlana boshlash tarixi bir necha ming yillarni o'z ichiga oladi.

Ma'naviyatga oid aytilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, ma'naviy sifat tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin:

---

<sup>7</sup> Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 19.

<sup>8</sup> Ibrohimov va boshq. Vatan tuyg'usi. –T.:O'zbekiston, 1997. – B. 111.

<sup>9</sup> Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari –T.: Universitet. 1998. – B. 18.

<sup>10</sup> Erkayev A. Ma'naviyat – millat nishoni. – T.: Ma'naviyat, 1999. – B. 49.

<sup>11</sup> Qarshiboyev M. Talotopdan uygunlik sari. – T.: Ma'naviyat, 1997. – B. 7–12.

## **Esda saqlang!**

Ma'naviy sifat deganda yoshlarni yuksak cho'qqilar sari yetaklovchi, tarixiy taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladigan axloq-odoblilik, bilimdonlik, iymone'tiqodlilik, ma'rifatparvarlik kabi ijobiy sifatlar majmuini tushunamiz.

Madaniy meros hamda ma'rifiy-ma'naviy qadriyatlarni keng va har tomonlama o'rganish zarurligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ta'kidlanganidek, bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri xalqimizning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini tiklash, buyuk ajdodlarimiz, shoirlar, olimlar merosini xalq mulkiga aylantirish, e'tiqodini va xalqning o'z madaniyati, ma'naviyatining chuqur tarixiy ildizlari shakllanish bosqichlari va xususiyatlarini ochib berishdan iboratdir. Bu esa, o'z navbatida, milliy ong, g'urur, tariximiz, o'tmish avlodlar xizmatiga hurmat-e'tiborni rivojlantirish, xalq mehnati, vatanga muhabbat tuyg'usini yoshlarda qaror toptirish uchun xizmat qiladi. Pedagogika tarixi materiallari misolida pedagogika oliy o'quv yurtlarida talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash bugungi kunga qadar o'rganilmagan muammolardan biridir.

O'zbekistonda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning tiklanishi sobiq sovet jamiyatida xalqning axloqiy qadriyatlariga e'tiborsizlik axloq me'yorlari va tamoyillari buzilishiga sabab bo'lganligini ko'rsatmoqda. Chunki sinfiylik, yakkapartiyaviylik va yakkahokimlikka asoslangan kommunistik mafkura xalqimizni mulk, hokimiyat, milliy urf-odatlar, an'analar va qadriyatlardan uzoqlashtirgan edi. Taniqli olim H.Boboyev ta'kidlaganidek, «...yakkahokimlik mafkurasi hukmronlik qilgan yillarda o'zbek xalqining milliy manfaatlari chetga surib tashlandi, uning ilmiy-falsafiy, tarixiy, diniy, huquqiy, siyosiy qadriyatlari, milliy ma'naviyati va madaniyati kamsitildi. Natijada, barcha xalqlar va millatlar qatorida o'zbek xalqi ham jabr-sitam ko'rdi. Bu esa soxta va riyokor mafkuraning inqiroziga sabab bo'ldi»<sup>12</sup>.

Tarixdan ma'lumki, sobiq sotsialistik jamiyat inqirozining ob'ektiv sabablaridan biri – jamiyatning ma'naviy inqirozga yuz tutishidan iborat edi. «Sobiq ittifoqda ma'naviy qadriyatlar deval'vatsiyasiga quyidagilar sabab bo'ldi: 1) 1917 yilda oktyabr to'ntarishidan keyin partiya–davlat

---

<sup>12</sup>H.Boboyev va boshq. Milliy istiqlol mafkurasi va taraqqiyoti. – T.: Yangi asr avlodi, 2001.– B. 8.

apparati to'lig'icha cheklanmagan hokimiyatni o'z qo'liga oldi va xalq yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarga egalik qilishda cheksiz huquqqa ega bo'ldi; 2) gipertrofiyalangan, bir yoqlama, paxta xom ashyosini ishlab chiqarish monopoliyasi va boy mineral resurslardan nazoratsiz, yirtqichlarcha foydalanishga asoslangan iqtisodiy siyosat olib borildi; 3) shaxsning shakllanishi va faoliyati doimo rasmiyatchilik, befarqlik va ma'naviyatsizlikka to'qnash kelardi; 4) jamiyatda KPSS aqidalari ustuvorligi guruh manfaatlarining umuminsoniy qadriyatlar, ma'naviyatdan ustuvorligi yuzaga keldi, buning hammasi oxir oqibatda ma'naviy degradatsiyaga olib keldi»<sup>13</sup>.

O'zbekistonning mustaqillik mafkurasi kishilar ongiga kelajakka ishonch, mehr-shafqat, vijdonlilik, bardoshlilik, adolatlilik, bilimga intilish kabi ezgu xislatlarni singdirishga asoslangan. Bunda, albatta, asriy an'analar, til, xalq ma'naviyatiga tayaniladi.

Hozirgi kunda jamiyat ma'naviy rivojining murakkab va ko'p qirrali jarayoni ko'p jihatdan milliy madaniyatlarning o'zaro boyishi bilan belgilanmoqda. Aynan shu sababli ham ta'lim tizimini isloh qilishdek katta va muhim ishda ajdodlarimiz tomonidan to'plangan yosh avlod tarbiyasiga oid ko'p asrlik tajribadan unumli foydalanish zaruriyati paydo bo'ldi. Jamiyat taraqqiyotining ko'rsatkichlari shundan dalolat beradiki, shaxs madaniyati hamda pedagogik fikr ijtimoiy-tarixiy jarayonlar bilan birgalikda rivojlanadi. Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, turkiy xalqlar ilg'or pedagogik fikrlarni xalqning ilm-ma'rifatga intilishi, aql va idrok tantanasi, yorqin kelajak haqidagi orzularini yaratibgina qolmay, balki saqlab qolgan va avloddan-avlodga boyitgan holda uzatgan.

Xalqning milliy madaniyati, ma'naviy dunyosi muayyan tarixiy sharoitlarda insoniyat tomonidan uzoq asrlar davomida to'plangan ilg'or fikrlar asosida rivojlangan. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasida ilgari surilgan buyuk vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish talabalarning kasbiy tayyorgarligi, ilmiy va ma'naviy saviyasi ko'p jihatdan o'z xalqining ilg'or pedagogik tajribalarini to'liq va chuqur bilishi bilan belgilanadi. O'tmishdagi ijobiy pedagogik tajribalarni o'zlashtirish kasbiy madaniyat, mahoratni egallashda, zamonaviy OTM talabalari oldida turgan vazifalarni aniqroq his etishga ko'maklashadi. Hozirgi davrda jamiyat a'zolarining ishonch bilan oldinga borishi va buyuk maqsadlarga etishi yosh avlodning

<sup>13</sup>Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 1999.

ilmiy salohiyati va umumiy madaniyati, kasbiy malakasining yuqori darajada bo'lishi bilan bevosita bog'liqdir.

Haqiqatan ham har bir insonning faolligi, mas'uliyatni his etishi o'z burchini anglay bilishi uning ma'naviy kamoloti bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov jamiyat ma'naviyatini rivojlantirishni ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etar ekan, uning mazmun mohiyatini quyidagicha ta'riflaydi. «Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi»<sup>14</sup>. Shuning uchun yosh avlod tarbiyasida uning bilim darajasi, madaniy-siyosiy saviyasi, xulqi, tafakkuri va ongini shakllantirishda oliqadriyatlarimiz bo'lgan ma'rifiy merosimizdan unumli foydalanishimiz lozim. Chunki xalqning urf-odatları, qadriyatlari, dinining tiklanishi bilan yoshlarni tarbiyalashning yangi–yangi qirralari ochilmoqda.

Ma'naviy kamolot, eng avvalo, har bir yoshning aqlu idroki, fikri, bilimi, qobiliyati, iste'dodi, tajribasi va mehnat faoliyatida ifodalanadi. Uning mohiyatini olimlar shunday tushuntiradilar:

**Bilib oling!** «...odamni odam qilib kelayotgan, insoniyatni inson qilib, nasldan-naslga, avloddan-avlodga o'tkazayotgan, yaxshining yomon ustidan, ezgulikning vaxshiylik ustidan, hisning hirs ustidan, go'zallikning xunuklik ustidan, nazokaning dag'allik ustidan, vijdonning nafs ustidan, donolikning jaholat ustidan, vafoning bevafoqlik ustidan, subutilikning beburdlik ustidan, sadoqatning xiyonatu sotqinlik ustidan, iymonning e'tiqodsizlik ustidan, dinning xurofot ustidan g'alabasini ta'minlab kelayotgan pokiza ruhli buyuk zotlardir».

Prezident I.A.Karimovning «Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash, milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixomi tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi»<sup>15</sup> degan fikri milliy pedagogika tarixining tarbiyaviy o'rnini yanada yuqori ko'tarish, xususan, uning shu vaqtga qadar chetda qolib kelayotgan allomalarimiz ijodiga chuqurroq kirib borish va ularning haqiqiy mazmun-mohiyatini ommaga to'liq

<sup>14</sup> Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1998. – B. 60..

Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997. – B. 140.

etkazishga undaydi.

Insonlar o'zaro ijtimoiy munosabatga kirishar ekanlar, ular avvalo axloq-odob me'yorlariga rioya qiladilar. Bu borada o'z davrida katta ahamiyatga ega bo'lgan, yangi sharoitlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan axloqiy sifatlar haqiqiy qadriyat sanaladi.

**Bilib oling!** Talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalashni asosiy shartlaridan biri pedagogika oliy ta'lim muassasalarida «Pedagogika tarixi» fanini o'qitish orqali ma'naviy-ta'limiy merosdan unumli foydalanishdan iboratdir. Mazkur merosni yoshlar ongi, turmush tarzi va pedagogik faoliyatiga singdirish «pedagogika tarixi»ning ustuvor vazifalaridan biri. Talabalar ma'naviyatining mohiyatini belgilovchi tushunchalar odob, bilim, ilm, amaliy malakalar, iste'dod, qobiliyat; imyon, e'tiqod, vijdon, insof, ixlos, dunyoqarash va mafkuradir. Insonning ma'naviy sifatleri ana shu tushunchalar asosida rivojlanadi. Chunki bu tushunchalarning barchasi axloq-odob tushunchasi bilan bog'liqdir.

Pedagog olimlar M.Quronov, S.Ochillarning fikrlariga tayangan holda, ma'naviy sifatlarga quyidagilarni kiritish mumkin: iymonlilik, e'tiqodlilik, andishalilik, oilaga muhabbat, halollik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, ota-onaga hurmat, fahm-farosatlilik, bilimlilik, saxovatlilik, mardlik, shirinso'zlik, odillik, hayolilik, samimiylik, mehnatsevarlik, do'stlik, o'rtoqlik, mehmondo'stlik, odamgarchilik, insonparvarlik, vatanparvarlik, tadbirkorlik, chaqqonlik, zukkolik, uquvlilik, xushmuomalalik, poklik, ziyraklik, rostgo'ylik, nazokatlilik, samimiylik, tashabbuskorlik, ona yurti va xalqiga muhabbat, insofilik, diyonatlilik, or-nomuslilik, rejalilik, sabrlilik, qanoatlilik, vazminlik, milliy g'urur, baynalminallik va boshqalar.

Lekin o'tmishda yaratilgan asarlarda faqat ijobiy sifatga ega bo'lganlar emas, balki salbiy xarakterga ega bo'lgan kishilar haqida ham fikr yuritilgan. O'tmishda yaratilgan asarlarda kishilarning quyidagi salbiy illatlari aks ettirilgan: yomonlik, yovuzlik, g'azabnoklik, fahshparastlik, johillik, buzuqlik, o'zboshimchalik, yalqovlik, ta'magirlik, tanballik, manmanlik, adovatlilik, g'iybatchilik, chaqimchilik, qo'rqqoqlik, hasadgo'ylik, yolg'onchilik, nifoqparastlik, zulmkorlik, bo'htonparastlik, isrof-garchilik, laganbardorlik, tilyog'lamalik, xasislik, xudbinlik,

shuhratparaslik, qonunbuzarlik, jinoyatchilik, giyohvandlik, qimorbozlik, ichkilikbozlik, qo'pollik va boshqalar.

Ma'naviy sifatlar ta'lim mazmuniga ko'ra turkumlashtirganda quyidagi manzara namoyon bo'ladi:

### Talabalarning ma'naviy sifatlari

<b>Axloqlilik va odobilikka doir sifatlari</b>	<b>Bilimdonlikka doir sifatlari</b>	<b>Iymonlilik, e'tiqodlilikka doir sifatlari</b>	<b>Madaniyatlilik ma'rifatlilikka doir sifatlari</b>
Ezgulik. hamdardlik. xayrixohlik. vatanparvarlik. shafqatlilik. samimiyylik, saxiyylik, sofdillik, sabr-qanoatlilik. go'zallikni his etish. sadoqatlilik. kamtarlik. andishalilik. muloyimlilik, xushmuomalalilik, sharm-hayolilik. g'amxo'rlik. mehribonlik. do'stlik va o'rtoqlik. mardlik. shijoatlilik. intizomlilik, qadrililik, munislik va boshq.	Bilimlilik. ilmga intiluvchanlik. salohiyatlilik. oqillik, zukkolik. malakalilik, mahoratlilik, iste'dodlilik. tajribalilik, teranlik. ziyraklik va boshq.	Diyonatlilik. e'tiqodlilik. vijdonlilik. ishonuvchanlik. ixloslilik, tinchliksevarlik, osoyishtalik, insofilik. adolatlilik. odillik. insonparvarlik, halolilik, maqsadlilik, intiluvchanlik. iffatlilik, savobtalablik, sabrlilik. haqqo'ylik, ko'zi to'qlik, haqiqatparvarlik, xayrixohlik. himmatlilik, kechirimlilik va boshq.	Idroklilik. nekbinlik. mehnatsevarlik. ijodkorlik. ishchanlik. shinavandalilik. g'ururlilik. millatparvarlik. tolerantlik. baynalminallik. yaratuvchanlik va boshq.

Talabalar ma'naviyatini tarbiyalovchi ijobiy sifatlar «pedagogika tarixi»da eng qadimgi davrlardan boshlab yosh avlod tarbiyasida qo'llab kelinmoqda. Ta'limiy vositalar sirasiga Ma'mun akademiyasi olimlarining bir qator asarlari va Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limotlari hamda «Avesto»dan olingan parchalarni kiritish mumkin. Mazkur parchalarda yaxshilik va yomonlik, haqqo'ylik va nohaqlik.

baxt va baxtsizlik haqida bahs yuritilgan. Insoning ma'naviy rivojlanishi masalalariga Qur'oni karimda ham alohida e'tibor berilganki, ularni o'rganish talaba shaxsining ma'naviy taraqqiy etishi uchun muhim ahamiyatga ega.

**Esda saqlang!** Payg'ambarimiz Muhammad salallohu alayhi vassallam: «Kishi o'z bolasiga odobdan ko'ra afzalroq narsa ato etolmaydi», deyдилar.

Shunday ekan, axloqiy sifatlari mukammal bo'lgan insonlar yuksak ma'naviyatli bo'ladilar.

Hayotdan ma'lumki, beodoblik bu tug'ma xususiyat bo'lmay, tarbiyasizlik mahsulidir. Chunki, agar bola yoshligidan boshlab odobli insonlar doirasida yashab voyaga etsa, u, albatta, odobli, beodob kishilar orasida o'ssa—beodob bo'lib tarbiyalanadi. Odob oddiy, shunchaki bir so'zday tuyilsada, aslida bu so'z zamirida katta ma'no, keng ko'lamdagi insoniy fazilatlar jamuljamdir.

Xalqimiz tarixiga nazar tashlasak, ulug' kishilar o'zlarining chuqur va keng bilimi bilangina emas, balki odob-axloqi bilan ham elu yurtda e'tibor topganini ko'ramiz.

Payg'ambarimiz Muhammad salallohu alayhi vassallam musulmon olamida o'zining axloq va odobi bilan ibrat bo'lgan buyuk shaxs. Uning ibratli axloq-odobi avvalo o'z oilasi, qolaversa, atrofdagi insonlar orasi, o'zi yashagan jamiyatda yorqin namoyon bo'lgan. Uning uchun axloq hayotning asosiy mazmunini tashkil etgan. U hamisha halolligi, pokligi, axloq-odobi bilan barchaga ibrat bo'lib yashagan. Kambag'allar holidan xabar olgan, qarzdorlarning qarzini to'lagan, mehmonni qadrlagan, muhtojlarga ko'mak bergan. O'zini doimo xokisor tutgan, maqtanish, manmanlik, qahr-g'azab bilan muomala qilish kabi nuqsonlardan uzoqda bo'lgan. Xullas, o'zining barcha olijanobliklari hamda yuksak ma'naviy fazilatlarini bilan insonlar qalbidan abadiy o'rin olgan.

Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojni hisobga olgan holda yangidan-yangi manbalarga murojaat qilish zaruriyati yuzaga keldi. Shu zaruriyat tufayli «Pedagogika tarixi» kursi mazmunini talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalashda xizmat qiladigan o'quv materiallari bilan boyitish maqsadidagi izlanishlar o'z aksini topdi. Jahon xalqlari madaniyatining



rivojlanishida Sharq mutafakkirlari, ularning ma'naviy merosi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo xalqlarining falsafiy va didaktik fikrlari rivojida Sharq allomalarining qarashlari alohida ahamiyatga ega. Chunki ular o'z faoliyatlari davomida ilm-fanning turli sohalarida buyuk kashfiyotlar qilganlar, olamshumul iz qoldirganlar.

IX asrdan boshlangan madaniy-ma'rifiy yuksalish bir necha asr davom etib, bu davr tarixda «Sharq Uyg'onish davri» nomi bilan mashhurdir. Bu haqda qator tadqiqotlar yaratilib, ularda qomusiy allomalarning pedagogika, xususan ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid ta'limotlari ilmiy tahlil etilgan.

Ba'zi tadqiqotlarda Sharq allomalarining ma'naviy merosi haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Masalan, S.Hasanov o'z tadqiqotlarida Xorazmni antik davr va o'rta asrlarda rivojlangan fan va madaniyat o'chog'i sifatida Misr, Iroq, Eron, Xitoy, Hindiston, Yunoniston va Rim bilan bir qatorga qo'yadi.

Eramizdan avvalgi VI va eramizning I asrida Qo'yqirilgan qal'ada rasadxona mavjud bo'lgan, «Sabr – quvonch kaliti», «Bilim olish: dastlab achchiq, natijasi shirin», «Olijanoblik kaliti-bilim» kabi yozuvlar bitilgan kulolchilik buyumlari topilgan. Xorazm tili arab va fors tillari kabi XIII asr oxirigacha o'z ahamiyatini saqlab kelgan. Sharqshunos olim A.A.Freyman ta'kidlaganidek, xorazm tili XIII-XIX asrlardan keyin to'liq turkiy bo'lgan. Bu jarayon xalqning bilim, ma'rifatga intilishida yuksak ahamiyat kasb etgan, o'z navbatida, davlatning gullab-yashnashiga ta'sir ko'rsatgan<sup>16</sup>.

IX-XV asrlarda «Turonzamin», «Turkiston», «Movarounnahr» nomlari bilan tarixda mashhur bo'lgan qudratli davlat xalqlari jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotining oldingi saflarida turish baxtiga sazovor bo'ldi.

Prezident Islom Abdug'anievich Karimovning «O'zbekiston buyuk kelajak sari» nomli kitobidagi so'zlarga e'tibor qaratamiz. «Ma'naviyatni mustahkamlash uchun mehnat va mablag'ni ayash o'z kelajagiga bolta urish demakdir. Vatan va jahon madaniyatining, adabiyot va san'atning yutuqlari har bir oilaga etib borish uchun oilaning moddiy ta'minlanganligidan qat'iy nazar qulay sharoitlar yaratish talab

---

<sup>16</sup> Hasanov S. Xorazm ma'naviyati darg'alari. – T.: Adolat, 2001. – B. 45.

etiladi». Demak, barcha sohada, shu bilan birga pedagogika tarixida ham xuddi shunday sharoitlar yaratish talab etiladi. Biz pedagogika tarixini, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni, o'zligimizni, milliy kechinmalarimizni mustaqillik sharofati tufayli anglab etdik.

Dastlab pedagogika tarixidan 1973 yil K. N. Konstantinov, M. F. Shabaevlar tomonidan «pedagogika tarixi» fanining dasturi tuzildi. Dastur asosida darslik yaratish ehtiyoji paydo bo'ldi va o'quv qo'llanmasi yaratildi. Qo'llanmadan 1976 yilgacha «pedagogika tarixi» fanini o'qitish uchun o'rta va oliy ta'lim muassasalarida darslik sifatida foydalanildi. Biroq, qo'llanmani o'zbek tiliga tarjima qilishganda ta'lim-tarbiya tarixiga juda kam o'rin berilganligi ayon bo'ldi. 1985 yilga kelib M. F. Shabaeva tahriri ostida «Pedagogika tarixi» darsligi yaratildi. Darslik 29 bob, 491 sahifadan tashkil topgan bo'lib, birorta mavzu Sharq mutafakkirlari ta'limotiga bag'ishlanmagan edi.

1990 yilda akademik S. Rajabovning «Xalq maorifi va pedagogika fanining buyuk allomalari» kitobi nashr etildi. Unda faqat g'arb va rus olimlariga e'tibor qaratilgan bo'lib, aynan ular Ya. A. Komenskiy, K. D. Ushinskiy, L. N. Tolstoy, A. V. Lunacharskiy, N. K. Krupskaya, A. S. Makarenko va birgina Sharq olimlaridan H. H. Niyoziy faoliyati tahlil qilingan edi. Sobiq sho'rolar tuzumi davrida pedagogika oliy o'quv yurtlarida, pedagogika tarixi sohasida faoliyat olib borgan olimlarimiz dastur va darsliklar yaratishda juda og'ir, sinovli, murakkab vaziyatni boshidan o'tkazdilar. Ko'rinib turibdiki, asrlar osha har xil sitamlarni boshidan o'tkazib omonqolgan, bizgacha etib kelgan milliy qadriyatlarimiz, ma'naviyatimiz, madaniyatimiz, ilm-ma'rifat, shuningdek pedagogika tarixi fani mustaqillik sharofati bilan yangidan rivoj topa boshladi. 1993 yilga kelib professor K. Hoshimov va boshqalar tomonidan oliy ta'lim muassasalari uchun «Maorif va pedagogika tarixi» dasturi yaratildi. Unda jami 46 soat ma'ruza, 38 soat amaliy mashg'ulotlar bo'lib eng qadimgi ta'lim-tarbiya tarixi («Avesto»)ga 2 soat, Sharq mutafakkirlari ta'limotiga 4 soat ajratilgan, Ma'mun akademiyasiga umuman soat ajratilmagan edi.

Dasturning ichida shunday jumlar bor: «Ushbu reja taxminiy bo'lib, mavzu nomlarini o'zgartirishga hamda tanqidiy yondashishga ruxsat etiladi». Shu boisdan ham pedagogika tarixiga hali ehtiyoj mavjudligi aniqlandi. Ko'rinib turibdiki uzoq va boy tarixga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ta'lim-tarbiya tarixiga oid boy merosini

yaratib, takomillashtirib, avlodlarda mehr-oqibat, saxovat, xushhulqlik, do'stlik, insonparvarlik kabi ma'naviy sifatlarni tarbiyalab kelgan.

Xalqimiz yaratgan ma'rifiy fikr sarchashmalari qadim-qadimlarga borib taqaladi. «Pedagogika tarixi» kursi materiallari talabalarning umumpedagogik bilim darajasini kengaytiradi, pedagogik-ma'naviy merosimizga to'g'ri munosabatda bo'lishga imkon yaratadi. Biz keyingi yillarda yaratilgan darsliklarni bunga misol qila olamiz.

«Pedagogika tarixi»ni o'qitishda avvalombor talabalarga o'zbek milliy ta'lim tarbiyasi an'analari tarixini o'rgatadigan darslik yaratishni professorlar K. Hoshimov, S. Ochil taklif qildilar va boshlab berdilar. Ular 1995 yilda «O'zbek pedagogikasi antologiyasi» (1-jild) darsligini yaratdilar. 1996 yili T. N. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti professor A.Zunnunov rahbarligida «O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar» o'quv qo'llanmasi, 1997 yil professorlar O. Hasanbaeva, J. Hasanbaev, H. Homidov tomonidan «Pedagogika tarixi» darsligi yaratildi. 1999 yilga kelib, «O'zbek pedagogikasi antologiyasi»ning 2-jildi professorlar S. Ochil, K. Hoshimov tomonidan nashr etildi. Har ikkala antologiyada ham ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifatning rivojlanish bosqichlari bo'yicha Uyg'onish davri, Sharq allomalari, jadidlar, sobiq sho'ro tuzimi va nihoyat, mustaqillik davridagi pedagogika ta'limotlari o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi M.Xayrullaev «O'rta Osiyoda IX-XII asrlarda madaniy taraqqiyot», «O'rta Osiyoda ilk Uyg'onish davri madaniyati», «O'tmish mutafakkirlari ta'lim-tarbiya haqida» kabi tarixiy pedagogik asarlari hamda 1999 yilda M.Xayrullaev tahriri ostida yaratilgan «Ma'naviyat yulduzlari» kitobi pedagogika tarixining rivojlanishiga manba bo'lib xizmat qildi. Bu kitob IX asrdan XX asr boshigacha Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan ko'plab ajdodlarimiz hayoti haqida ma'lumot berib, ularning qiyofasini namoyon etishi bilan «Pedagogika tarixi» faniga muhim hissa qo'shdi. 2000 yilga kelib A. Zunnunov, M. Xayrullaev, B. To'xlijev, N. Hatamovlar tomonidan oliy ta'lim muassasalari uchun «Pedagogika tarixi» darsligi yaratildi. «Pedagogika tarixi» fanini o'qitishda munosib hissasini qo'shib kelayotgan olimlarimiz professorlar A. Zunnunov, S. Nishonova, K. Hoshimov, S. Ochil, J. Hasanboev, O. Hasanboeva, H. Homidovlar

shoʻrolar tuzumi davrida «pedagogika tarixi» fanini oʻqitishning muammoli holatlarini tahlil etdilar, bir qancha yangiliklarni olib kirdilar. Mustaqillikkacha boʻlgan davrda olimlarimiz «pedagogika tarixi»ni oʻqitish uchun 94 soat ajratilganligi, shundan 6 soat Markaziy Osiyo olimlari hayoti va faoliyatiga bagʻishlangan, qolgan soatlar esa Rossiya va Yevropa mutafakkirlarining taʼlim-tarbiya gʻoyalari yoritilganligini eʼtirof etadilar.

Sharq minglab daholarni etishtirgani, jahon tsivilizatsiyasining bugungi taraqqiyotiga tamal toshini qoʻyganligi hech kimga sir emas. Bular haqida biz qisman maʼlumotga egamiz. Shunday mutafakkirlar borki, ular toʻgʻrisida hatto tasavvurga ham ega emasmiz. Ushbu qoʻllanma shu yoʻnalishga xizmat qilib, bugungacha talabalar nigohidan deyarli pinhon yotgan ajdodlarimiz, allomalar hayoti va ijodinin yoritishga, ilm-fan va madaniyat olamiga munosib hissa boʻlib qoʻshiladi.

**Tayanch tushunchalar:** Maʼnaviy sifat, milliy madaniyat, aql-idrok, isteʼdod, tajriba, faoliyat, qadriyat, kamolot

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari**

1. Talabalarning maʼnaviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishda qaysi fanga tayaniladi?

- A. Falsafa.
- B. Oʻzbekiston tarixi.
- C. Milliy istiqlol gʻoyasi.
- D. Pedagogika tarixi. \*

2. Maʼnaviyat tushunchasiga qaysi olimlar taʼrif bergan?

- A. A. Mahkamov, J. Yoʻldoshev, M. Mallaev.
- B. M. Xayrullaev, Sh. Qurbonov, U. Mahkamov.
- C. S. Nishonova, J. Hasanboev, O. Musurmonova.
- D. E. Yusupov, A. Erkaev, M. Qarshiboev, A. Ibrohimov va boshqalar.

3. Qaysi olim yakkahokimlik mafkurasi, sobiq shoʻrolar tuzumi haqida ochiq fikr yuritgan?

- A. H. Boboev \*
- B. J. Hasanboev
- C. E. Toʻraqulov

D. H. Hoshimov.

4. «Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi». Ushbu fikr muallifi kim?

A. I. A. Karimov. \*

B. E. Yunusov.

C. H. Boboev.

D. A. Erkaev.

5. Qanday sifatlar haqiqiy qadriyat sanaladi?

A. Ma'naviy-axloqiy. \*

B. Ijobiy.

C. YUksak.

D. Tarixiy – ijtimoiy.

6. Talabalarning ma'naviy sifatleri quyidagicha guruhga bo'lib o'rganiladi.

A. 4 guruhga: axloq-odoblik, bilimdonlik, imon-e'tiqodlilik, madaniyat-ma'rifatlilik. \*

B. 3 guruhga: odoblilik, madaniyatlilik, ma'rifatlilik.

C. 2 guruhga: ma'naviyat va madaniyatlilik.

D. To'g'ri javob berilmagan.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Prezident I.A.Karimovning ma'naviyat tushunchasiga bergan ta'riflarni izohlab bering.

2. Pedagogika tarixi orqali yoshlar ma'naviyatini yana qanday shakllantirish mumkin? Shaxsiy fikringizni yozma bayon eting.

3. Akademik S.Rajabovning 1990 yilda yaratilgan «Xalq maorifi va pedagogika fanining buyuk allomalari» kitobida nega faqat rus va g'arb olimlariga e'tibor qaratilgan edi? Izohlab bering.

4. Ma'naviy-ma'rifiy madaniyatimizga oid pedagogika tarixi dasturini birinchi bo'lib tuzgan olimlardan kimlarni bilasiz?

5. O'zbek pedagogikasiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan olimlardan kimlarni bilasiz? Yozma javob bering.

6. Madaniy meros hamda ma'rifiy-ma'naviy qadriyatlarni

o'rganish haqida fikr yuritgan yurtboshimiz I.A.Karimovning xalqchil g'oyalari izohlab bering.

7. Pedagogika tarixi fani o'quv qo'llanmasining zaruriy sharti nima? Izohlab bering.

8. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat.

9. Talabalarning ma'naviy sifatlarini rivojlantirish mohiyati haqidagi fikringizni ayting.

10. Yoshlar ma'naviyatiga to'g'anoq bo'layotgan bugungi muammolar haqidagi shaxsiy fikringizni yozma bayon eting.

11. Talaba-yoshlarning ma'naviy sifatlarini takomillashtirishda pedagogika tarixi fanining o'rni qanday?

12. Sharq allomalari g'oyalari yoshlar ma'naviyatida tutgan o'rni haqida gapirib bering.

13. Pedagogika tarixini o'qitish orqali talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash – amaliyotini yangilash deganda nimani tushunasiz?

#### **Tavsiya etiladigan manbalar:**

1. Karimov I. A. XX asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997. – 326 b.

2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. –173 b.

3. Hoshimov K., Ochilov S. O'zbek pedagogikasi antalogiyasi. 1-jild. –T.: O'qituvchi, 1995. – 460 b.

4. Qahhorova M. Ma'naviyat – axloqiy muhit. Demokratik yangilanishning muammo va echimlari. –T., 2008. – 178 b.

5. Saifnazarov I. Ma'naviyat, barkamollik va siyosiy madaniyat. – T.: Sharq, 2001. – 156 b.

6. Ibrohimov A va boshqalar. Vatan tuyg'usi. – T.: O'zbekiston, 1996. – 443 b.

7. Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi. – T.: Aloqachi, 2006. – 160.

8. Qurbonov Sh, Seytxalilov E va boshqalar. Milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondashuvlar. – T.: Akademiya, 2002. – 280 b.

9. Ochilov S. Hoshimov K. O'zbek pedagogikasi antalogiyasi

(II-jild). –T.: O‘qituvchi, 1999. – 478.

10. Rajabov S. Xalq maorifi va pedagogika fanining buyuk allomalari. –T.: O‘qituvchi, 1990. – 190 b.

## **1. 2. «Pedagogika tarixi» kursini o‘rganish orqali talabalarda ma‘naviy sifatlarini tarbiyalashning hozirgi ahvoli**

«Pedagogika tarixi»dan qator tadqiqotlar, darsliklar yaratilgan. Lekin pedagogika tarixini o‘qitish orqali talabalarning ma‘naviy sifatlarini tarbiyalash tadqiqotchilar va darslik mualliflari nazaridan chetda qolib kelmoqda. Shuning uchun ham biz dastlab «pedagogika tarixi» materiallari misolida DTS, dasturlar, o‘quv qo‘llanmalari hamda darsliklarda pedagogika tarixiga oid, talabalarning ma‘naviy sifatlarini tarbiyalashga xizmat qiladigan ma‘lumotlar va o‘quv materiallari qay darajada o‘z ifodasini topganligini aniqlashga harakat qildik.

Ma‘lumki, pedagogikadan Davlat ta‘lim standartlari 2003 yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida professor S.Ashirboev va dotsent F.Haydarovlar tomonidan tuzilgan. DTSda umumkasbiy fanlar bloki bo‘yicha quyidagi talablar qo‘yiladi:

– pedagogik tushunchalarning rivojlanish tendentsiyalari hamda tarixi haqida bilimlar tizimi;

– Sharq mutafakkirlarining milliy qadriyatlar to‘g‘risidagi qarashlari va ularning tajribalari;

– ta‘lim amaliyotidagi milliy va umuminsoniy qadriyatlar;

– xalq pedagogikasining ma‘naviy qimmatlari.

O‘quv dasturi mazmuni va tarkibida esa ta‘lim tarixida pedagogik ta‘limot tarixi, tarbiyaning tarixiy-madaniy tavsifi. Insonning har tomonlama rivojlanishi haqidagi g‘oyalar paydo bo‘lishi tarixi, pedagogikaning mustaqil fan sifatida paydo bo‘lishi, VII asrgacha Sharq mutafakkirlari pedagogik g‘oyalarining rivojlanishi, pedagogik fikr, tarbiya va maktabning VII-XV asrlarda rivojlanishi, Movarounnahrda pedagogik ta‘limotning rivojlanishi. XVII-XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmidagi pedagogik g‘oyalar. XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asrda ta‘limning rivojlanish xususiyatlari, Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim tizimi kabilar belgilab qo‘yilgan. DTS asosida tayyorlangan «pedagogika tarixi» dasturida esa maorif va pedagogika tarixi kishilik jamiyatining taraqqiyot tarixi bilan uzviy aloqada bayon etilgan.

Pedagogik fikr rivojlanishini izchil o'rganish bo'lg'usi o'qituvchilarga hozirgi pedagogika o'tmishdagi ilg'or pedagogik tajribalarning uzviy tarzda rivojlangan mantiqiy davomi ekanligini ko'rsatish kelajakda ta'lim va pedagogika fani taraqqiyoti yo'nalishlarini anglab olishga yordam beradi.

Asosiy maqsad – buyuk mutafakkirlar Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqa mutafakkirlarning ta'limiy-axloqiy qarashlari, umumbashariy qadriyatlar, Qur'oni Karim, Hadisi Sharifdagi umuminsoniy va ma'naviy-axloqiy tamoyillarni yoshlar ongiga etkazishdan iborat qilib qo'yilgan. Bu maqsadga erishish uchun pedagogika fanidan ta'lim-tarbiya maqsadi va vazifasi o'rganilganda hozirgi demokratik jamiyatda har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikr yuritadigan, erkin shaxsni shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy sifatlari haqidagi fikrlariga tayangan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish ishlarini amalga oshirish nazarda tutilgan.

Bu borada Sharq mutafakkirlarining barkamol shaxs ma'naviy sifatlarini tarbiyalashda uning intellektual, fuqarolik, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, mehnatsevarlik, iqtisodiy, ekologik, estetik jihatlarini hisobga olganliklarini ochib berish nazarda tutilgan va pedagogika tarixi o'rganilganda ta'lim-tarbiyaning ushbu tarkibiy qismlarining mazmuni, shakl va uslublari, vositalari ko'rsatib o'tilgan.

«Pedagogika tarixi» bo'yicha dasturlarda «Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar» mavzusida eng qadimgi axloq-odob me'yorlari, «Avesto», O'rxun-Enasoy yodgorliklarida tarbiyaning asosiy, o'ziga xos jihatlariga e'tibor berilganligi talabalarga uqtiriladi.

«VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikr taraqqiyoti» mavzusida esa islom falsafasining axloqiy tamoyillari, Sharq Uyg'onish davrida ta'limiy-axloqiy asarlarning paydo bo'lishi, mutafakkirlarning barkamol insonga xos xislatlarni tarkib toptirish borasidagi fikrlarini talabalarga singdirish nazarda tutilgan.

«XIV XVI asrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar» mavzusini o'rganishda Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan, ta'lim-tarbiyaning ravnaq topishi, bu davrda Abdurahmon Jomiy, Alisher



Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiylarning barkamol insonga xos axloqiy sifatlarni tarbiyalashga doir g'oyalari markaziy o'rin egallaganligi bayon qilingan.

Shuningdek, «XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar» mavzusini o'rganishda madrasalarda Qur'on, «Tafsir», «Odob as-solihin», «Sabot ul-ojizin», «Kimyoi saodat», «Hadis», «Shamoyil ul-nabi», «Hikmat ul-ayn»larning o'rganilishi asosida xulq-odob masalalariga e'tibor qaratilganligi ta'kidlanadi. Mazkur asarlarni o'rganishda, albatta, talabalar ongiga ma'naviy sifatlari, xulq-odob qoidalari etkaziladi. Ayniqsa, «XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida tarbiya va pedagogik fikrlar» mavzusi o'tilganda Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida tarbiya tizimi, yaxshi va yomon xulqlar tasnifi asosida talabalarning ma'naviy sifatlarni tarbiyalash imkoniyatlari katta.

«Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi va pedagogik fikrlar taraqqiyoti» mavzusida milliy xususiyatlarga ega bo'lgan ta'lim muassasalarini tashkil etish muammolari, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi munosabati bilan kadrlar tayyorlash milliy modelida barkamol inson tarbiyasi, o'zbek xalqining ma'rifiy qadriyatlaridan ta'lim-tarbiyada foydalanish asosida talabalar ma'naviy sifatlarni tarbiyalash nazarda tutilgan.

Dastur asosida mustaqillik yillarida qator mualliflar tomonidan «Pedagogika tarixi» o'quv qo'llanmalari va darsliklar nashr etildi. Hozirgi paytda oliy ta'lim tizimida O.Hasanboeva, J.Hasanboev. H.Hamidovning «Pedagogika tarixi», K.Hoshimov, S.Nishonovalar muallifligidagi «Pedagogika tarixi» darsliklari hamda A.Zunnunov tahriri ostida chop etilgan darslikdan foydalanilmoqda. Mazkur darsliklarning barchasi mustaqillik yillarida yaratilgan bo'lib, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, ma'rifiy merosimizga asosanib yozilgan.

Jumladan, K.Hoshimov, S.Nishonovalar yaratgan «Pedagogika tarixi» darsligida ma'naviy-axloqiy fazilatlar barkamol inson tarbiyasiga yo'naltirilgan bo'lib, jamiyat taraqqiyotida inson ma'naviy sifatlari shu jamiyat talablari nuqta nazaridan yoritilgan.

Ta'limiy-axloqiy muammolarning yechimi yosh avlod tarbiyasida jasurlik, adolat, sadoqat, insoniylik, vatanni ulug'lash va milliy iftixor tuyg'usi, xulq-odob qoidalari rioya etish bilan belgilangan.

**Mushohada uchun!** Pedagogika oliy ta'lim muassalarida talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishda pedagogika tarixi materiallari misolida yoritilgan barcha mavzular, buyuk mutafakkirlarning ta'limiy-axloqiy asarlarida ilgari surilgan barcha qarashlar, xulq-odob qoidalari, barkamol inson egallashi zarur bo'lgan xislatlarni tarbiyalash nuqtai nazaridan yoritilib, yoshlarning ma'naviy sifatlarini tarkib toptirishga qaratilgan.

Mustaqillik yillarida «pedagogika tarixi» materiallarini o'qitishda darsliklardan foydalangan holda «Pedagogika tarixi»dan seminar mashg'ulotlar o'tkazish uchun birorta ham o'quv qo'llanmasi yaratilmadi. Agar, amaliy mashg'ulotlarda har bir talaba tegishli o'quv qo'llanmasi bilan ta'minlangan bo'lsa, muayyan mavzularni o'rgatish va o'zlashtirish jarayoni samarali amalga oshiriladi. Kuzatishlar natijasida bunga to'la ishonch hosil qilindi va shunday o'quv qo'llanmalaridan foydalanishga talabalarda ehtiyoj mavjudligi aniqlandi, «pedagogika tarixi»dan seminar mashg'ulotlar o'quv qo'llanmasini yaratishga muvaffaq bo'lindi<sup>17</sup>

**Esda saqlang!** «Pedagogika tarixi» materiallarini o'qitishda yuqoridagi dastur, darsliklar imkoniyatlaridan foydalangan holda mutafakkirlarning yoshlar ma'naviy sifatlariga doir qarashlari, tarixiy manbalardan professor-o'qituvchilar qanday foydalanayotganini aniqlash maqsadida kuzatish va tahlillar o'tkazildi.

Talabalar bilan muloqot jarayonida, o'qituvchi ko'pincha «axloq va ma'naviyat», «ma'naviy me'yor» va «xatti-harakat», «ma'naviy ideal», «axloqiy baho», «ezgulik», «yovuzlik», «adolat», «vijdon», «burch», «axloqiy mas'uliyat», «qadr-qimmat», «sha'n», «ma'naviy ong», «ma'naviy hislar», «insonparvarlik», «vatanparvarlik», «baynalminallik», «umr mazmuni», «baxt» va boshqa tushunchalarni qo'llashi aniqlandi. Bir qaraganda bu tushunchalarning mazmuni barchaga ayondek ko'rinadi. Ko'plab o'qituvchilarda hammaga ma'lum narsani tushuntirib o'tirish zarurati yo'q, degan noto'g'ri xulosa yuzaga

<sup>17</sup> Niyozov G, Ahmedova N. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari o'tkazish uchun o'quv qo'llanma. – T.: A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007.– B. 88..

keladi. To'g'ri, o'qituvchilarning bir qismi ma'ruzada qo'llanilgan ma'naviy sifatlarni boshqa «umum uchun ma'lum» axloqiy tushunchalar yoki o'zi his qilgan tasavvurlar yordamida asoslashga harakat qiladi. Lekin bu kabi tushunchalarni boshqa so'z va iboralar yordamida talabaga «tushuntirish» va odatiy psixologik tajriba «aniqligi»ga murojaat etish talabalarda ma'naviy sifatlarni tarbiyalashda kutilgan natijani bermaydi. 100 nafar talaba bilan o'tkazilgan interv'yu natijalari shuni ko'rsatdiki, ularning ko'pchiligi yuqorida sanab o'tilgan tushunchalar mazmunini to'la tushunib etmasligi tufayli mavzularni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Ilmiy-ommabop adabiyotlarda ma'naviyat va ma'naviy sifatlarning yagona va umum tomonidan e'tirof etilgan ta'rifi mavjud emas.

Demak, talabalardan uni aniq bir me'yorda kutish ham mumkin emas. Biroq ilmiy-uslubiy adabiyotlarda ishlatiladigan ma'naviyat me'yorlari asosan o'xshash:

**birinchidan**, ularning barchasida ma'naviy axloqiy qarashlar, me'yorlar, kechinma va his-tuyg'ular ijtimoiy munosabatlarni boshqarishning alohida usuli bo'lmish tarixan tarkib topgan tizim sifatida baholanadi.

**ikkinchidan**, barcha ta'riflar jamiyat rivoji va ishlab chiqarish usullariga bog'liq bo'lgani uchun ma'naviy-axloqiy qoidalar mazmuni ham jamiyatda mavjud iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi, shuning uchun ma'naviyat ijtimoiy hodisa sanaladi.

**uchinchidan**, mustaqil jamiyat ma'naviyati mohiyatan ijtimoiy hodisaligicha qolib, o'zida ko'proq umuminsoniy mazmunni aks ettirish, insoniy muloqot uyg'unligiga oliy darajada ko'maklashishi bilan ajralib turadi.

**to'rtinchidan**, barcha ta'riflarda ma'naviy sifat insonlarning o'zaro munosabatlarini boshqaribgina qolmay, balki shaxsni tarbiyalaydi, shakllantiradi, degan fikr ta'kidlanadi.

Shunday ekan, talabalar «Ma'naviy sifat» tushunchasi mazmunini qanday tushunadilar», «Ma'naviy sifat nima», degan savolga faqat respondentlarning 37 foizi javob bera oldi, qolgan 63 foizi ma'naviy va ma'naviyatsiz xatti-harakatlarni sanab berish bilan cheklandi. Shuningdek, «Ma'naviy sifat nima» ekanligini «bilmasligi», «so'z bilan ifoda eta olmasligi»ni ma'lum qildi. Olingan javoblarning katta qismi

oddiy bo'lsada. ma'naviy sifatlarning ayrimlarini to'g'ri qamrab olgan. Masalan, «Ma'naviy sifat – hayot ilmi, o'z ishlarini boshqalar manfaatlari bilan muvofiqlashtira olish malakasi», «Ma'naviy sifat qandaydir talablarga javob berishi: halol, adolatli, vijdonli bo'lish, insonlarni hurmat qilish», – bular hammasi ma'naviyatni tashkil etadi; «Ma'naviy sifatlari – burch, ezgulik, shuningdek, adolat (mazmuni sharhlanmaydi)», «Ma'naviy sifat va vijdon, insonda tarbiyalanishi lozim bo'lgan tuyg'u»; «Ma'naviy sifat – hamma narsadan me'yor, ortiqcha rohat va hoyu-havasdan saqlanish, odamlar va jamiyatga nisbatan adolat»; «Ma'naviy sifat – insonning jamiyatda o'zini tutish me'yorlari va hokazo».

Ko'proq amaliylik, sog'lom fikr bilan xarakterlanadigan bu kabi «ta'rif»larni talabalar javoblarida ko'plab topish mumkin. Gap shundaki, faqat ayrim hollarda yaxshi va a'loqa o'qiydigan talabalargina ma'naviyatning o'zgaruvchan va ijtimoiy xarakterini aniq ta'kidladilar. Asosan o'rta darajada o'qiydigan talabalarining katta qismi esa mustaqillikka erishgach, ko'plab ma'naviy talablar o'zgariganini hali etarlicha sezmagani aniqlandi.

Talabalarining ma'lum bir qismi ma'naviyatni axloqlashtirish bilan tenglashtirgani, uni boshqarishda tarbiyaviy vazifani salbiy his-tuyg'u orqali baholash, tashqi muhit vositasi, yoqimsiz kechinmalar, mustaqillikni cheklash, qadr-qimmat hissini yo'qotish bilan kechadi, deganligi kishini jiddiy o'ylantirib qo'yadi.

Quyida biz talabalar bayon qilgan fikrlardan namunalar keltiramiz: «Ma'naviy sifat – kattalar talabalariga bo'ysunishni singdirish»; «Ma'naviy sifat – qanday yashashni bilish»; «Yoshlarni o'qishda har qanday mayda-chuyda kamchiliklari uchun cho'qishadi, keyin uni ma'naviy buzuvchi, deyishadi» kabi «ta'rif»lar nafaqat ma'naviyatga xos bilimlarni yetarli o'zlashtirmaganligi oqibati, balki tanqidiy fikrlarni suiste'mol qilish, ma'naviy tarbiyani amalga oshirishni vosita sifatida yetarlicha baholamaslikning oqibatidir.

Bundan tashqari, olingan javoblar tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab talabalar ma'naviy talablarni o'zlashtirish insonni go'zallashtirishi, unda faol hayotiy nuqtai nazar shakllanishiga ko'maklashishi, o'z-o'zini takomillashtirishning muhim vositasi ekanligini anglab etmaganliklari namoyon bo'lmoqda. Zero, ma'naviyatning gumanistik vazifasini anglash – yangicha ma'naviy sifatlarga ega bo'lgan mutaxassislarni

yetishtirishning asosiy shartidir. Ma'naviyat nafaqat insonlararo o'zaro munosabatlarni boshqarishi, balki shaxsni rivojlantirishga ko'maklashadigan ijtimoiy-pedagogik hodisa hamdir. Bu shuni anglatadiki, talabalar uzoq asrlar davomida xalq tajribasida qo'llagan ma'naviy me'yorlarni izchil o'zlashtirishlari lozim.

Ma'naviy sifatlarning qaysi belgilari talabalar tomonidan qiyinroq qabul qilinishini o'rganganimizda, ular huquqiy va ma'naviy sifatlarni farqlashda qiynalganlari ma'lum bo'ldi. Kuzatilgan talabalarning ayrimlari ular orasidagi tafovutlarni tez ko'rsatib berishdi. Masalan, «Ma'naviy me'yorlar – xulq-atvorning ixtiyoriy ravishda amal qiladigan qoidalar, huquqiy me'yorlar esa majburan bajariladi», «Ma'naviy qoidalar, huquqiylaridan farqli ravishda yomon amallardan qo'rquv tufayli emas, balki burch hissi sabab o'zini tiyishni talab qiladi», «Ma'naviy me'yorlar huquqiylaridan shunisi bilan farq qiladiki, ular qonun daxl qilmagan munosabatlar, masalan, do'st. o'rtoq tanlashni ham qamrab oladi». Bu kabi to'siqsiz, biroq savodli javoblar, afsuski, 13 foizni tashkil etadi. So'rovda qatnashgan asosiy respondentlar, ya'ni 87 foiz talabalar ma'naviy me'yorlarni huquqiylari bilan qorishtirib yubordilar, ayrimlari esa ularni bilmasligi, biroq tushunishi, so'z bilan ifodalay olmasliklarini aytishdi.

Mustaqil, jamiyat barpo etilishi bilan yoshlar ma'naviyati tobora rivojlanishi, talabalarga xulq-atvorning ma'naviy me'yorlari inson xulq-atvoriga tashqi tomoni, uning ichki ma'naviy olami, insonning yuksak ma'naviyati orqali boshqarilishi, e'tiqodga asoslanishi; huquqiy me'yorlar esa, avvalin inson xulqining tashqi tomoniga qaratilishi, muqarrar majburlashni o'z ichiga olishini talaba-yoshlar tushunib yetishlari bu me'yorlarni o'zlashtirishni osonlashtiradi.

Talabalar o'zlashtirishda qiynaladigan yana bir holat ma'naviy me'yorlar tarkibi bilan bog'liq tushunchalardir. Ma'lumki, «Yolg'on gapirma!», «O'g'rilik qilma!», «Qo'pollik qilma!» kabi taqiqlash va «Halol bo'!», «Adolatli bo'!», «Mustaqillik ishiga sodiq qol!» kabi namunalar ma'naviy-axloqiy talablarning ikki tomoni, ular xulq-atvorning yo'l qo'yiladigan va yo'l qo'yib bo'lmaydigan variantlari o'rtasidagi chegarani hosil qiladi. Haqiqiy qoidalarda taqiqlash ustuvorlik qiladi. Ma'naviy sifatlarning esa nafaqat insonni yo'l qo'yilmaydigan xatti-harakatlardan chetlaydi, balki qanday yo'l tutishni ham ko'rsatadi.

Talabalarning javoblarida taqiqlashga ham, namunaga ham murojaat etiladi. Biroq namunani ko'rgazmali misollar bilan tushuntirish u qadar yorqin va asoslangan emas. Qolaversa, ma'naviy me'yorlarning bu ikki yaxlit tizimi hech qanday aloqasiz, insonga parallel qo'yiladigan, na maqsad birligi, na aynan bir natijani ko'zda tutmagan talablar sifatida qaraladi. Bu qiyinchiliklarni yengishda o'qituvchilar o'z e'tiborini kuchaytirishi lozim.

Mamnuniyat bilan ta'kidlash mumkinki, «ezgulik» va «yovuzlik» kabi tushunchalar talabalarning shaxsiy tajribasi bilan yaqinroq bo'lib, ma'naviyat tushunchasiga ko'ra osonroq o'zlashtiriladi. Talabalarning javoblaridan namunalar keltiramiz: «Ezgulik – bizning tuzum, u bizni barcha zarur narsa bilan ta'minlaydi. Ilgari bunday bo'lmagan». «Ezgulik – yaxshi tilak, xushmuomalalik, insonlarga nisbatan muloyimlik», «Ezgulik – bu halol, talabchan bo'lish, biroq ko'ngil bo'shlik emas», «Ezgulik – samimiyat, ochiq ko'ngillilik», «Yovuzlik – hasad, g'azab, xudbinlik», «Yomonlik – xasislik, qahr, ichkilikbozlik, yolg'onchilik», «Yomonlik – bir-biriga nisbatan madaniyatsiz munosabat», «Yomonlik–laganbardorlik va ikki yuzlamachilik», «Yomonlik – tuhmat, haqorat, insonlar bilan kelisha olmaslik», «Yomonlik – jizzakilik, o'zini bosa olmaslik» va shu kabilar.

Bu kabi sog'lom fikrli, shaxsiy kechinmalarga asoslangan baholarni deyarli barcha talabalar bayon qilishdi. Biroq bu o'rinda ham kamchiliklar bo'lib, ularni tugatish ustida jiddiy ish olib borish kerak. Gap shundaki, deyarli hech bir talaba yaxshilik va ezgulikni bir-biridan farqlamaydi. Bu, birinchidan, ezgulik ham, yaxshilik ham inson faoliyati davomidagi o'ziga xos sifat bo'lib, ijtimoiy amaliyot darajasiga mos keladi, uning chegaralari aynan o'xshash; ikkinchidan, har ikkisi ham bir tushuncha – «yomonlikka» qarshi turadi. Biroq ezgulik va yaxshilik aynan bir narsa emas, zero yaxshilik va yomonlik xatti-harakatlari bir tuyg'u sifatida namoyon bo'lsa, ezgulik ularning natijasini belgilaydi, ko'pincha ular mavjud, ichki boshqaruvga asoslangan ijtimoiy munosabatlar emas, balki tabiiy kuchlar tomonidan yaralgan, bilish imkoniyati chegarasidan uzoqda, demak bilib bo'lmaydi, degan ishonchga olib keladi.

Olingan javoblardan ko'rinadiki, talabalarning ezgulik, yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlari adabiyot, pedagogika, ijtimoiy pedagogika, psixologiya, ma'naviy, pedagogik meros ta'sirida,

shaxslararo munosabatlar darajasida rivojlanadi.

Talabalar tomonidan «adolat» tushunchasining o'zlashtirilishida ham ma'lum qiyinchiliklar mavjud bo'lib, u jiddiy kamchiliklardan xoli emas. To'g'ri, ko'pchilik talabalar nafaqat «adolat» so to'g'ri, o'rinni qo'llaydi, balki muhim hayotiy vaziyatlarga asoslanib, bu tushunchaga xos bo'lgan u yoki bu qirralarini ham ifodalay oladi: «Adolat – qonunlarimiz, xulq-atvor me'yorlari, odamlar orasida insoniy munosabatlarga rioya qilish», «Adolatsizlik – insonning jamiyatda xizmatiga yarasha haq olmasligi, o'z xizmatlarini baholash huquqi ham bo'lishi mumkin», «Adolatli bo'lish, inson mehnati, xizmatlarini to' baholash demakdir», «Adolat – insonga to'g'ri yondashish. menga past ball qo'yildi, deb o'qituvchiga o'z nuqtai nazarimni tushuntirdim. Xato to'g'rilandi. Adolat g'alaba qildi».

Adolatning ma'nosini oddiy va to'g'ri aks ettirgan bu kabi javoblar ko'p bo'ldi. Ular orasida adolatni unga qarama-qarshi tushuncha adolatsizlikka misol keltirib ta'riflashga urinish ehtirosi ham ko' tashlanadi: «Adolatsizlik – talaba qilmagan ishi uchun dakki olish», «Talaba o'qishga kirdi, betob bo'lib, kasalxonada yotdi, uni talabalar safidan chiqarishdi, bu adolatsizlik» va hokazo.

«Burch», «vijdon», «majburiyat» va «ma'naviy javobgarlik» tushunchalarini talabalar yaxshi tushunadilar. Olingan javoblarning asosiy qismi ular tushunchaga ega ekanligidan dalolat beradi. Inson Vatanga himoya qilish, yaxshi o'qish, halol ishlashga qo'rqqanidan majbur bo'lish kerak emas, balki vijdonan buni qilishi lozim», «Burch majburlikdan emas, ixtiyoriy, ongli bajarilishi lozim bo'lgan ishlar», «Burchlar – o'zining o'qishga, Vatanga, jamiyatga nisbatan majburiyatlarini ongli bajarishi», «Burchlar – yaxshi o'qish, insonning yaxshi fazilatlarini egallash istagi halol bo'lish» va hokazo.

Javoblarning anchagina qismi, sanab o'tilgan belgilar bo'yicha burch mohiyatini go'yo yoritsa ham asosiy mohiyatini aks ettirmaydi: ayrim talabalar burch e'tiqodga, zaruriyatga asoslanishi, majburiyatlarni ongli, ixtiyoriy ravishda bajarishni o'z ichiga olishi, harakatlanish istagida namoyon bo'lishi, quvonch uyg'otishini anglab etmaydi. Haqiqiy javoblar: «Burch – nima bo'lganda ham bajarilishi shart bo'lgan ish», «Burch – bu o'qish, ishlash, oilani ta'minlash, farzandlarni davr talabiga mos tarbiyalash, o'zi va boshqalar yaxshi yashashi uchun hamma narsani

qilish», «Burch – armiyada xizmat qilish, berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish, halol yashash» va hokazo. Burch turlicha bo‘ladi: oila, do‘st, Vatan oldidagi va hokazo. Bu kabi me‘yorlarning rasman bajarilishi ijtimoiy uyg‘unlik mustahkamlanishiga ko‘maklashadi, biroq bu hali burch emas, balki majburiyat, zero ular huquqiy tomondan ich-ichidan qabul qilinmagan, uning istagi, vijdon bilan qo‘llab-quvvatlanmagan.

**Esda saqlang!** Ma‘naviyatli inson zavq, chuqur qoniqish hosil qilishi uchun burch ehtiyojga aylanishi lozim. Talabalarga uni aynan shu tarzda anglashda yordamlashish zarur.

Talabalarga burch mohiyatini tushuntirishdagi murakkablik uning mazmunan kengligi, talabalarning bir qismi burchni «va‘daga vafo qilish», «qarzni o‘z vaqtida qaytarish», «kattalar iltimosini bajarish», «do‘stiga yordam berish», «chin do‘st bo‘lish» va shu kabilarda deb tushunishadi. Burchni shaxsiy hayot, kasbiy munosabatlar doirasida tushunish, kishilarni tub ijtimoiy muammolar yechimidan chalg‘itadi.

Shu sababli talabalarga ota-onalik, farzandlik, turmushda o‘rtoqlik, do‘stlik va boshqa burch turlari, ko‘rinishlari ustun emasligi, balki unga to‘liq bo‘ysunishini tushunib yetishlarida yordam berish kerak. Bu sifatlarni o‘zlashtirishda, ularning ahamiyatini samarali yoritishda Sharq mutafakkirlarining bu boradagi qarashlari, fikrlari, katta ko‘mak bo‘ladi.

Olingan javoblardan ko‘rinadiki, ko‘plab talabalar «ma‘naviy javobgarlik» tushunchasini ancha to‘g‘ri his etadi, anglaydi. Biroq bu o‘rinda ham ko‘plab talabalar javobgarlikning barcha turini huquqiy javobgarlikka yo‘yadi, bu ma‘naviy sifatlarni va kasbiy javobgarlikning ma‘muriy, yuridik qonunlari bilan bog‘laydi. Qolaversa, talabalarning bir qismi javobgarlik bilan qorishtirib, ularni teng deb biladi, boshqa bir qismi esa javobgarlik burch, vijdon bilan belgilanishini anglamaydi.

Yuqorida biz sanab o‘tgan ma‘naviy sifatlari: burch, ezgulik, yomonlik, baxt, yaxshilik, adolat, vijdon kabilar dastlab zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da uchraydi, keyinchalik esa mutafakkirlar ular haqida o‘z asarlarida muayyan fikrlar bildirganlar. Olimlar ta‘biricha, insonning ma‘naviy qiyofasi, uning yashash tarzi, bilim egallash, jamiyat a‘zolari bilan muloqot qilish jarayonida namoyon bo‘ladi. Bu esa mashg‘ulotlar, muloqotlar jarayonidagi psixologik-pedagogik muhitni ifodalaydi. Buyuk mutafakkirlar ma‘naviy xatti-harakat, inson



xulq-atvorini uning o'zidan izlaganlar, insonning g'ayriqonuniy xatti-harakatlarini qoralab, olijanob fazilatlarini ulug'laganlar.

### Talabalarning ma'naviy sifatlarni o'zlashtirish tasnifi

T/r	Savol	biladi	bilmaydi
1.	Ma'naviyat nima?	51	49
2.	Ma'naviy me'yorlar tushunchasiga nimalar kiradi?	63	37
3.	«Ezgulik», «yaxshilik», «yomonlik» tushunchalarining mazmun-mohiyati nimada ko'rinadi?	79	21
4.	«Adolat», «burch» tushunchalarini qanday tushunasiz?	89	11

«Pedagogika tarixi» kursi bo'yicha o'tkazilgan mashg'ulotlarda shu narsa ma'lum bo'ldiki, mutafakkirlar ta'riflagan ma'naviy sifatlari talabalarda qiziqish uyg'otdi. Shuning uchun ham pedagogika tarixini o'qitishda, talabalarning ma'naviy sifatlari tarbiyalashda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan ma'lumotlar va o'quv materiallari bilan boyitishga ehtiyoj sezilmoqda.

Hozirgi davrda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyat a'zolari, ayniqsa, bo'lajak mutaxassislarning ma'naviy sifatlari tarbiyalashning yangidan-yangi pedagogik imkoniyatlarini izlash zarurligini ko'rsatmoqda. Bu esa o'z navbatida, islohotlarning ishtirokchisi, murakkab sharoitda ham o'ziga qulay yo'l topa oladigan ma'naviyatli mutaxassislarni yetishtirish zaruriyati bilan bog'liqdir.

#### **Anglab oling!**

Bugungi talabalar, ya'ni bo'lg'usi o'qituvchilarning ma'naviy sifatlari tarbiyalamasdan turib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ma'naviy yetuk, barkamol insonni shakllantirish mumkin emas.

Shu jihatdan qaraganda, insonning ma'naviy sifatlari tarbiyalashda xalqning milliy, ma'naviy, madaniy, tarixiy merosi katta ahamiyat kasb etishi, mustaqillik yillaridagi dastlabki tajribalardan ayon

bo'lmog'da. Darhaqiqat, ijtimoiy-pedagogik meros va mutafakkirlarning yoshlarda ma'naviy sifatlarni tarbiyalashga xizmat qiladigan fikrlari va qarashlaridan pedagogikada unumli foydalanish maqsadida, talabalarning mavjud ma'naviy tushunchalari darajasidan kelib chiqqan holda, pedagogika tarixini bir qator yangi o'quv materiallari va ma'lumotlar bilan boyitish zaruriyati mavjud.

Bugungi kunga qadar oliy ta'lim muassasalarida pedagogika tarixi kursi o'quv dasturiga kirmagan bir qator ma'lumotlar va manbalar talabalar ma'naviy sifatlarni tarbiyalashda boy pedagogik imkoniyatlarga ega, degan ilmiy faraz asosida mazkur kurs mazmuni boyitildi. Bu manbalarda ilgari surilgan fikrlar, qarashlar bugungi kunda talabalarda – insonparvarlik, adolatparvarlik, iymon, e'tiqod, burch va mas'uliyat, ezgulik, hamdardlik, xayrixohlik, vatanparvarlik, shafqatlilik, samimiylik, saxiylilik, sofdillik, sabr-qanoatlilik, go'zallikni his etish, rahm-shafqat, nafsni tiyish, sadoqat, kamtarlik, andishalilik, xushmuomalalik, sharm-hayo, g'amxo'rlik, mehribonlik, do'stlik va o'rtoqlik, mehnatsevarlik, mardlik, ziyraklik, zukkolik, shijoat, intizom, qadr-qimmat, munislik, muhabbat, muloyimlikdan, bilim, ilmga ehtiyoj, ilmiy tafakkur, salohiyat, aql-zakovat, kasbga mehr, hunar, iste'dod, ona tiliga muhabbat kabi ma'naviy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qila oladi.

Chunki «Pedagogika tarixi» kursi bo'yicha o'quv dasturlari, DTS, o'quv qo'llanmalari, darsliklar tahlil qilinganda, shu narsa ma'lum bo'ldiki, pedagogika tarixini o'qitishda talabalarning ma'naviy sifatlarni tarbiyalash imkoniyatlariga ega bo'lgan bir qator ma'lumotlar va manbalar dastur, darslik va o'quv qo'llanmalari tarkibiga kiritilmagan.

**Buni esda saqlang!**

Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak.

*I.A.Karimov*

<b>Ma'naviyat</b>	<b>Ma'naviy sifatlari</b>
<p><b>Insonning orzu-intilishi, qadriyati, buguni, ertasi, kelajagi, ezguliklar manbai, orzu-intilishlar mujassamlashuvi</b></p>	<p><b>Bajarilishi lozim bo'lgan fazilatlar, xislatlar</b></p>

**Tayanch tushunchalar:** DTS, dastur, reja, pedagogika, psixologiya, ma'naviyat, milliy ong, tafakkur.

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari**

1. Pedagogika fani XVII asrgacha qaysi fan negizida bo'lgan?

- A. Falsafa. \*
- B. Kimyo.
- C. Tabobat.
- D. Psixologiya.

2. Pedagogika tarixi darsligining mualliflari kimlar?

- A. K.Xoshimov, S.Nishanova, J.Hasanbaev, O.Hasanbaeva, H.Xamidov. \*
- B. F. Halilov, N. Azizxodjaeva, G. Sultonova, N. Melibaeva.
- C. N. Muslimov, M. Usmanbaeva, S. Madiyarova.
- D. To'g'ri javob berilmagan.

3. Ma'naviy sifat tushunchasi to'g'ri izohlangan qatorni toping.

- A. odoblilik, bilimdonlik, iymon-e'tiqodlilik, ma'naviy ma'rifatlik kabi yoshlarni yuksak cho'qqilar sari etaklovchi hamda tarixiy taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiluvchi ijobiy sifatlar majmui. \*
- B. kechinma, his-tuyg'ularni ruhiy boshqarish ma'naviy sifatlardir.
- C. umuminsoniy mazmun aks ettiruvchi qadriyatlar, ijobiy va salbiy xarakterga xos bo'lgan sifatlar majmui.
- D. vijdon, insof ya'ni insonda tarbiyalanishi lozim bo'lgan tuyg'ular ma'naviy sifatdir.

4. Pedagogika fanining tarmoqlari to'g'ri tartibda berilgan qatorni toping.

- A. pedagogika nazariyasi, pedagogika tarixi, pedagogik mahorat, pedagogik texnologiya, ijtimoiy pedagogika, pedagogik amaliyot. \*
- B. pedagogik mahorat, ijtimoiy pedagogika, pedagogika tarixi, pedagogik amaliyot, pedagogika nazariyasi.
- C. pedagogik texnologiya, pedagogik amaliyot, pedagogika tarixi, ijtimoiy pedagogika, pedagogik mahorat, pedagogika nazariyasi.
- D. to'g'ri javob berilmagan.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Pedagogika tarixini o'rganish orqali talabalarning ma'naviy sifatlarini rivojlanishning hozirgi ahvoli haqida nimalar bilasiz?
2. Pedagogikadan tuzilgan DTSda umumkasbiy fanlar bloki bo'yicha qanday talablar qo'yilgan?
3. Dastur asosida lotin yozuvida yozilgan pedagogika tarixi darsligining mualliflari kimlar?
4. Yaratilgan yangi darsliklar nimalarga asoslanib yozilgan?
5. «Ma'naviyat» bilan «Ma'naviy sifat» tushunchasini izohlab bering.
6. Talabalar orasida o'tkazilgan interv'yudan ko'proq nimalarni tushundingiz? Yozma bayon eting!
7. Talabalarning ma'naviy sifatlarini o'zlashtirish darajasini izohlab bering!
8. Ma'naviy me'yor tushunchasiga nimalar kiradi?
9. Adolat, burch tushunchalarini qanday tushunasiz?
10. Ezgulik, yaxshilik, yomonlik tushunchalarining mazmun-mohiyati nimalarda ko'rinadi?
11. Insonparvarlik deganda nimani tushunasiz? Yozma ravishda bayon eting!

### **Tavsiya etiladigan manbalar:**

1. Saifnazarov I. Ma'naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. –T.: Sharq, 2001. –14 b.
2. Niyozov G, Ahmedova M.. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'quv qo'llanma. –T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2007. – 86 b.
3. Hasanboeva O va boshqalar. Pedagogika tarixi. –T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2005. – 243 b.
4. Ashirboev S.A., Haydarov F. O'zbekiston Respublikasi DTS: Pedagogika. Oliy ta'lim. –T., 2003. – 14 b.
5. O'zbek pedagogikasi tarixi / A.Zunnunov tahriri ostida. –T.: Sharq, 2005. –272 b.
6. Zunnunov A., Xayrullaev M. va boshqalar. Pedagogika tarixi. – T.: Sharq, 2000. – 33 b.
7. Nishonova Z. Psixik taraqqiyot diagnostikasi. –T.: TDPU, 2004. – 151 b

## «O‘yin» texnologiyasi.

### «Tezkor savolga – tezkor javob» o‘yini

Talabalar ikki guruhga bo‘linadi. Savollar o‘qituvchi tomonidan o‘qiladi, tezkorlik bilan talaba javob bermasa, o‘qituvchi javobini o‘qib beradi. Har bir savolga to‘g‘ri javob 5 ball, chala javob bersa 2.5 ball yozuv taxtasiga yozib boriladi. Qaysi guruhda savolga javob bermasa, guruhini himoya qilib gapirsa, baqirsa, chapak chalsa jarima tayoqchasi beriladi. Ya‘ni bundan maqsad tinch, osoyishta, faol o‘yin darsini tashkil etish.

#### 1 – guruh

1. Savol: Abu Nasr Forobiy tarbiyani 2 xil usulda olib borish mumkin deydi, bular qanday usullar?  
Javob: Majburiy va ixtiyoriy.
2. Savol: «Avesto» haqida professor H.Homidov qanday pedagogik asar yaratgan, nechanchi yilda?  
Javob: «Avesto fayzlari». 2001 yil.  
Abu Nasr Forobiy tabiatning qaysi mavjudotini dunyo taraqqiyotining eng mukammal va yetuk yakuni deb biladi?
3. Savol: Insonni.  
Javob: Insonni.
4. Savol: Al-jabr so‘zining asoschisi kim?  
Javob: Muhammad Muso al-Xorazmiy.
5. Savol: Xorazmiy necha tilda ijod qilgan va ular qaysilar?  
Javob: Uch tilda: fors, arab, yunon.
6. Savol: Zardushtiylik diniy ta‘limotida muallimlar kimlar bo‘lgan?  
Javob: Ulamo, kohinlar.  
«Har bir zardusht besh marta yuvinib, poklanib, quyoshni olqishlab, sig‘inishi shart bo‘lgan. Bu an‘ana islomga zardushtiylikdan o‘tgan...» degan g‘oyani ilgari surgan taniqli olim kim?
7. Savol: Fozila Sulaymonova.  
Javob: Fozila Sulaymonova.
8. Savol: Kimning farmoniga binoan «Avesto»ning 1200 bobi oltin taxtaga yozdiriladi?  
Javob: Vishtasping.

9. Savol: Abu Ali ibn Sinoning yirik asari.  
Javob: «Ash-shifo».
10. Savol: Zardushtning ota-onasining ismi?  
Javob: Purshasp, Dug'dova.  
Zardushtiylik ta'limotida ma'naviy sifatlar tarbiyasi,  
oilaviy burch, farzand tarbiyasini alohida tahlil etgan  
11. olimlar kimlar?  
Javob: S.Nishonova, K.Hoshimov, S.Hasanov, H.Boboev,  
Z.G'afurov, J.Hasanboev, H.Homidov.
12. Savol: «Saydona» asari muallifi kim?  
Javob: Abu Rayhon Beruniy.

## 2-guruh

- Savol: Nima uchun Abu Nasr Forobiyga «Ikkinchi muallim» unvoni berilgan?  
Yunon tilini yaxshi bilgani, qadimgi yunon faylasuflari asarlarini tarjima qilgani, Aristotel' falsafasini talqin etishdagi va mantiq sohasidagi sharhlari uchun «Sharq Arastusi», ya'ni «Ikkinchi muallim» unvonini olgan.
1. Javob: Yoqut Halimovning aytishicha, XIII asrda vatanidan ketgan har bir kishining xorazmliklar qanday laqab bilan atagan?
2. Savol: Berun.  
Javob: Berun.
3. Savol: Abu Rayhon atamasining ma'nosi nima?  
Javob: Marhamatli, rahmdil ma'nolarini bildirgan.
4. Savol: Ta'lim-tarbiyaga birinchi bo'lib, ta'rif bergan olim kim?  
Javob: Abu Nasr Forobiy.
5. Savol: Forobiy necha tilda so'zlashgan?  
Javob: 70 dan ortiq tilda so'zlashgan.
6. Savol: Abu Nasr Forobiy umuman fanlarni mazmuniga qarab necha guruhga bo'lgan?  
Javob: 7 ta guruhga bo'lgan.

7. Savol: Al-Fargʻoniy Sharq va Gʻarb mamlakatlarida qanday nom bilan shuhrat qozonadi?  
Javob: Alfraganus.
8. Savol: Abu Rayhon Beruniy dastlabki yirik asarini necha yoshida yozadi va u qanday asar?  
Javob: 27 yoshida, «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar».
9. Savol: «Avesto»da yovuzlik xudosi kim?  
Javob: Axriman.
10. Savol: Zardusht soʻzining maʼnosi nima?  
Javob: 3 xil qarash mavjud: 1. Sariq tuya egasi. 2. Tuya etaklovchi. 3. Oltin tuya sohibi.
11. Savol: Ibn Sinoning Gʻarbdagi taxallusi nima?  
Javob: Avitsenna.
12. Savol: Hozirda zardushtiylik diniga sigʻinuvchi davlatlar qaysilar?  
Javob: Janubiy Hindiston va Shimoliy Eron.

Olib borilgan viktorina savollar natijasini quyidagi jadvalda kuzatamiz:

**«Tezkor savolga – tezkor javob»  
uyin texnologiyasi natijalari**

T/r	Oʻzlashtirish koʻrsatkichi (foizlarda)	Birinchi guruh	Ikkinchi guruh	Uchinchi guruh
1.	Past			
2.	Oʻrta			
3.	yuqori			

## II. TALABALARNING MA'NAVIY SIFATLARINI TARBIYALASHDA PEDAGOGIKA TARIXINING O'RNI. MAZMUNI, SHAKLLARI, USUL VA USLUBLARI

### 2.1. «Avesto»da ma'naviy tarbiya masalalari

Pedagogika tarixini o'qitishda, talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalashda tarixiy manbalar, «Avesto» va Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti hamda Ma'mun akademiyasi allomalari ijodidagi pedagogik fikrlar muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham pedagogika tarixi kursini «Avesto»dagi talabalar ma'naviy sifatlarini tarbiyalashga xizmat qiladigan ma'lumotlar bilan boyitish maqsadga muvofiq.

«Muhtaram Yurtboshimiz I.A.Karimov davlatchiligimizning barcha bosqichlarini chuqur, ilmiy asosda o'rganish masalasini muttasil ravishda ilgari surib kelmoqda. Chunonchi, Ahmad Farg'oniy tavalludining 1200 yilligiga tayyorgarlik yuzasidan olib borilayotgan ishlar bilan tanishuv asnosida tarixchi va arxeolog olimlar diqqatini qadim Qubo davlati tarixini chuqur o'rganishga jalb etish barobarida qadim Xorazm davlati haqida ham to'xtalib o'tdi: Xorazm davlati tarixini biz 2700 yillik tarix deb bilamiz. Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz «Avesto»ning yaratilganiga 3000 yil bo'ldi. Bu nodir kitob bundan 30 asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir. «Avesto» ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi»<sup>18</sup>.

2001 yil oktabr oyida muqaddas kitob Avesto yaratilganligining 2700 yilligi butun dunyoda nishonlandi. Bu tadbir ham ajdodlarimizga bo'lgan hurmat va e'tiborning bir belgisidir<sup>19</sup>.

So'nggi yillarda H.Homidov, S.Hasanov, J.Yo'ldoshev, S.Nishonova, O.Musurmonova, N.Maxmudova «Avesto»dagi ta'limiy-axloqiy qarashlarning ayrim qirralari haqida fikr yuritdilar, tadqiqot ishlari olib bordilar. N.Mahmudova «Avesto»da ta'limiy-axloqiy qarashlar, ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalarini tadqiq etgan.

<sup>18</sup> Ta'lim muammolari jurnali. 2006 йил, 1-сон. – В. 1-2.

<sup>19</sup> Sharifxo'jayev M., Davronov Z. Ma'naviyat asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: Moliya, 2005. – B. 145.



**Mushohada qiling!**

«Avesto»ning barcha qismlari uchun xos bo'lgan ma'naviy sifatlarni va ma'rifiy g'oyalarni tadqiq etish hamda talaba yoshlarda ma'naviy sifatlarni tarbiyalashda ulardan foydalanish masalasi bugungi kunga qadar yetarlicha o'rganilmagan.

**Esda saqlang!**

«Avesto» qadimgi Eron tillari guruhidagi tillarning qadimgi yodgorliklari bo'lib, unda insonlarning orzu-istaklari, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi munosabatlar ifoda etilgan. «Avesto» qadimiy ajdodlarimizning ijtimoiy-falsafiy va ma'rifiy fikrlar yodgorligi sifatida o'tmish tariximiz, madaniy va ma'naviy qadriyatlarimizni o'rganishda, bugungi kunda talabalar ma'naviy sifatlarni tarbiyalashda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

«Avesto»ning bizgacha yetib kelgan qismlari «Yasna», «Yasht», «Visprad», «Vendidod» deb nomlanadi. «Avesto»da jami 22 mashhur «Yasht» bo'lib, ular hajmi, yozilish davri, adabiy va tarixiy-madaniy, pedagogik qimmatiga ko'ra turlicha qo'shiqlardir.

**«Avesto» - insoniyatning moddiy, ma'naviy, pedagogik boyligi sifatida juda katta ta'lim-tarbiyaviy qimmatga ega.**

**Zardushtiylik tadriji uch bosqichga bo'linadi**

Birinchi bosqich  
 "Avesto"ning eng qadimgi qismi  
 "Yast"larda jamoa tuzumi qabilalarining e'tiqodi aks etgan. Ularning kelib chiqishi taxminan miloddan av 3 ming yillikka to'q'ri keladi. Ular mazmunida tabiat kuchlarini iljhiylashtirishdan iborat ko'p xudollik kuzatiladi.

Ikkinchi bosqich – Gota"lar ularda yagona iloh Axuramazda haqidagi ta'limot yoritiladi. U haqdagi ta'limot Zardushtga tegishli deb qaraladi.

Uchinchi bosqich – ko'p xudollik ("Got"lar) va yakka xudolilik ("Got"lar) o'rtasida kurash natijasida miloddan av. V asrda Mazda Yasna deb nom olgan, yuksak e'tiqod yuzaga keladi. U «Avesto» diniy ta'limotida uchinchi va asosiy bosqich sanaladi. «Avesto»da hikoya qilinishicha, ko'plab yaxshi odamlar bo'lgan. bir xil huquqqa ega bo'lishgan, baxtli, yaxshi xulqi bilan hamma bir-biriga namuna bo'lgan. bir so'z bilan aytganda. «oltin asr»da yashashgan.

Shunday qilib, «Avesto» ming yillar davomida yaratilgan va Oʻrta Osiyo, Yaqin Sharq va Oʻrta Sharq xalqlari madaniy hayotining koʻplab tomonlarini oʻzida aks ettirgan yozma yodgorlik hisoblanadi. «Avesto»ning saqlanib qolgan qismi Ashokidlar (mil. av. III asr) davrida toʻplangan. Unda ijtimoiy-iqtisodiy hayot, davlatchilikning yuzaga kelishi, siyosiy–huquqiy fikrlar, falsafiy – maʼnaviy qarashlar va mil. av. I asr oʻrtalari va II asr yarmida Oʻrta Osiyo, Oʻrta va Yaqin Sharq xalqlari dunyoqarashining yuzaga kelishi aks etgan.

**Bilasizmi?** «Davlatchilik tarixi mavzusi haqida soʻz ketganda Prezident I.A.Karimovning oʻzbek davlatchiligi tarixining obroʻ-eʼtiborini oʻz oʻrniga qoʻyishda, uni yuzaga chiqarish bilan bogʻliq tadbirlarni amalga oshirishdagi xizmatlarini alohida taʼkidlash zarur. Inchunkun, 1997 yili Xiva shahrining 2500 yilligini nishonlash kunida Yurtboshimiz Islom Karimov oʻzbek davlatchiligi 2700 yillik tarixga ega ekanligini butun dunyoga rasman eʼlon qilgan birinchi olim va milliy rahbar boʻldi. Bu bilan davlatchiligimizning tarixiy ibtidosi masalasiga uzil-kesil ravshanlik kiritildi»<sup>3</sup>

«Avesto»da barqaror markazlashgan boshqaruvdagi yirik siyosiy birlashmalar tuzish, kuchli hokimiyat, maʼrifat va Axura Mazda qonunlari boʻyicha boshqariladigan jamiyat va xalq manfaati ustida qaygʻuradigan hukmdor nomi ilgari surilgan. «Avesto» bugungi kunda ham yoshlar uchun yoʻlchi yulduz boʻlib xizmat qiladi.

<b>«Avesto»da jinoyatlar turi olti guruhga tasniflangan:</b>					
birinchi guruh	ikkinchi guruh	uchinchi guruh	Toʻrtinchi guruh	beshinchi guruh	oltinchi guruh
dinga qarshi	shaxsga qarshi	jonivorlarga qarshi	mulkka oid	tabiatga qarshi va eng muhimi	maʼnaviyatga qarshi jinoyatlar

Buni bilish talabalar uchun muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. «Avesto»da har qanday axloqsizlik va gʻayritabiiy xatti-harakatlarga yoʻl qoʻyib boʻlmasligi taʼkidlanadi. Fohishabozlik, turmush oʻrtogʻiga xiyonat qattiq qoralangan. Besoqolbozlik eng ogʻir va eng jirkanch

jinoyatlardan sanalib, qatl jazosi ko'zda tutilgan yagona ma'naviy jinoyat hisoblangan. «Avesto»da fohisha bilan yashash ma'naviy jinoyat ekani alohida uqtiriladi. Bu kabi jinoyatlar sirasiga nafaqat oilani buzadigan va oila qoidalarini zaiflashtiradigan, balki bola tug'ilishi, yosh avlod tarbiyasi, nasl pokligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, oila xiyonati ham kiritiladi. Begona ayol bilan yashash, nikohsiz farzand ko'rish qat'iy taqib ostiga olinganki, ushbu qarashlar bugungi kunda ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu kabi jinoyatlar qamchi yoki tayoq bilan 800 zarba urish bilan jazolangan. H.Homidov talqini bilan aytganda, «eru xotinning bir-biriga xiyonati qattiq la'natlangan. Begona erkak bilan juftlashgan ayol badnom qilinib, jazolangan va nikohdagi eri uchun «harom» deb hisoblangan»<sup>20</sup>.

«Avesto»ning bugungi ma'naviy–axloqiy va tarbiyaviy talablarga hamohang bo'lgan eng muhim tamoyillaridan biri – bergan so'zning uddasidan chiqish, ahdga sodiqlik, savdo–sotiq va shartnomalarga qat'iy amal qilish, qarzni o'z vaqtida to'lash, aldanchilik va xiyonatdan xoli bo'lish, iymonlilik sifatlaridan iborat.

«Avesto»da odamlarni iymonli, e'tiqodli bo'lishga, doimo pokiza yurishga, tanani ozoda tutishga, har qanday yomon niyat va so'zlardan tiyilishga, yomon amallardan voz kechishga, nojo'ya ishlardan yuz o'girishga da'vat etadigan axloqiy qoidalar, o'gitlar nihoyatda ko'p.

Bizgacha yetib kelgan «Avesto» nusxalari 2 variantda. Birinchi varianti yolg'iz «Avesto»ni o'z ichiga oladi. Ikkinchi varianti pahlaviy tilidagi sharhli tarjimani ham o'z ichiga olib, u kitoblarga, bob va paragraflarga ajratilgan.

**«Avesto» quyidagi kitob (qism)lardan iborat:**

1.	Vendidod. U 22 bobdan iborat bo'lib, Axura Mazda bilan Zardushtraning savol-javobi yozilgan.
2.	Visparad. 24 bobdan iborat bo'lib, ibodat qo'shiqlarini o'z ichiga oladi.

<sup>20</sup> Homidov H. Avesto fayzlari. – T., 2001. – B. 31.

3.	Yasna. U 72 bobdan iborat bo'lib, qurbonlik chiqarish, marosimda aytiladigan qo'shiqlarni, xudolar madhiyasini va boshqa diniy marosimlarga xos rasm-rusumlarni o'z ichiga oladi. Uning 17 bob; gotlar – gimnlar deb atalgan. Bu boblar «Avesto»ning eng qadimgi qismlari.
4.	Yasht. U Zardushtiylik xudolari va ma'budalari madhiga aytilgan 22 qo'shiqni o'z ichiga oladi.
5.	Kichik «Avesto». Un Quyosh, Oy va ma'budalar sharafiga aytilgan matnlarni o'z ichiga oladi <sup>41</sup> .

«Avesto»ning ko'plab tadqiqotchilari, bu nodir kitobda yuksak ma'naviyatlilik va axloq masalalari yoritilganini ta'kidlaganlar. Bu qarashlar «Got», «Yasna» va «Yasht»larning ayrim boblarida ifodalangan. Pedagogika tarixi bo'yicha majmualar va o'quv qo'llanmalarida xuddi mana shu diqqatga sazovor o'rinlarni saralagan holda kiritish lozim.

**Eslab qoling!** «Avesto»da ta'kidlanishicha, ikki qarama-qarshi kuch: ezgulik va yomonlik mavjud. Yaxshilik kuchlariga Axuramazda, yomonlik kuchlariga Axriman boshchilik qiladi.

Inson hayoti, uning jamiyatdagi o'rni va faoliyati ahamiyati shu murosasiz kurash yakuni bilan belgilanadi. Shu bois insonlar o'zlarining ma'naviy sifatleri bilan ezgulik tarafdori ekanini ko'rsatishi va bu bilan ezgulik ruhlari yovuz kuchlarga qarshi kurashda ko'maklashishlari kerak, aks holda axloqi past, nopok inson osongina yovuzlik to'riga ilinadi, deyiladi. Yolg'on tarafdorlariga esa abadiy qiynoq hozirlangan. Shu sababli inson hayotda biror bir maqsadni belgilar ekan, o'z zimmasiga ma'lum majburiyatlarni olib, ularning bajarilishi uchun mas'uliyat his etmog'i lozim, degan g'oya ilgari suriladi.

Yuksak ma'naviy sifatli Zardushtiylik bo'yicha jaholatning, yomonlikning oldini olishdir. Undagi qadimgi tibbiyot, fazo to'g'risidagi fikrlar, astronomiya va falsafaga oid nodir fikrlar inson qalbini yorug'likka chorlaydiki, bu yorug'lik, albatta, yaxshilikka olib boradi. Ana shunday ezgulikka xos faoliyatlar Axura Mazda obrazi orqali ifoda etilgan.

Shu bilan birga «Avesto»da,

<b>Mitra</b>	quyosh va yorug'lik tangrisi
<b>Anaxita</b>	unumdorlik, hosildorlik, farovonlik tangrisi

<b>Xumo</b>	baxt, taqdir, boylik tangrisi
<b>Xubbi</b>	mard yigit, suv tangrisi
<b>Mirrix</b>	urush va g'alaba tangrisi

sifatida ifodalanganiki, bular orqali go'yoki insonning ezgu niyatlariga amalga oshirishini ta'minlash mumkin<sup>21</sup>.

Dunyodagi biror ta'limot, biror diniy e'tiqodlar yo'qki, hosil olishni Zardushtchalik madh etgan bo'lsa.

**Esda saqlang!** Zardusht iloh Axura Mazdadan so'radi:  
 - Ey, Axura Mazda!  
 Zaminni hammadan ham baxtiyor qiluvchi zot kim?  
 Axura Mazda javob berdi:  
 - Ey, Zardusht!  
 Kimki uni yaxshilab haydasa va ziroatga tayyorlasa!...  
 Ey, Zardusht!  
 Kimki g'alla eksa, u Haqiqatni ekadi<sup>5</sup>...

Asrlar o'tibidiki. «Avesto»da olg'a surilgan ezgu niyatlar, ezgu kalom va ezgu amal hamon barcha insonlarni ezgulik tomon chorlab, ularni ruhan poklab, yuksak ma'naviyat tomon etaklaydi. Yaxshilik kalomlarini abadiylashga chaqiradi. «Ey, hushyorlar! Quloqlaringiz bilan puxta eshitingiz, eng ezgu kalomlarni va yorug' niyat bilan - xoh er, xoh ayol – har biringiz nazar tashlangiz, to buyuk hodisa ro'y bermasdan va odamlarimiz so'nggi manzilga etmasdan, ikki yo'ldan birini o'zingizga ixtiyor etingiz-da, bu kalomlarni o'zgalarga ham etkazingiz»<sup>22</sup>.

Yoki kalom va amallar orqali Axura Mazdani Zardusht olqishlaydiki: natijada, Parvardigor Axura Mazda mazkur olqishlardan xulosa qilishga ishonadi:

Olijanob so'z sehri bilan.  
 Ham muqaddas vazlar bilan.  
 Kalom bilan va amal bilan,  
 Haq aytilgan kalimalarga  
 Eng haqqoniy kalomlar bilan.  
 Sharofatli Axura Mazda  
 Topinmoqqa buyurganlarga

<sup>21</sup> «Avesto» – tarixiy, adabiy yodgorlik / A. Mahkam tarjimasi. – T.: Sharq. 2001. – B. 357.

<sup>22</sup> O'sha manba. – B. 10..

Zardusht ezgu fikrlar orqali Axura Mazdadan Mitraning tashrif buyurishini so'rab nola qiladi:

Kelsin bizga madad bermoqqa,  
Kelsin bizga keng dashtlar uchun,  
Kelsin bizni qo'llamoq uchun,  
Kelsin bizga muruvvat uchun  
Kelsin bizni qutqarmoq uchun,  
Kelsin bizga g'oliblik uchun,  
Kelsin bizga baxt-shodlik uchun,  
Kelsin bizga yaxshilik uchun,  
Yolg'onlarga bo'yinsunmas Ul, -  
Dunyo hamdu sanolarga,  
Loyiq Mitrakim bekarona,  
Yaylovlarning molikidir<sup>24</sup>.

Demak, Zardusht ta'limotiga amal qilganlarga suvli er maydonlari, chorva uchun yaylov, uy va yaxshi xotin va'da qilingan. Zardusht ta'limotiga ko'ra ko'p bolali, oilasini o'z mehnati bilan boqqan, o'z uyida abadiy alangani doimo tutib turgan kishi benuqsondir.

Shunday qilib, O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida yashagan qadimgi xalqlar ma'naviy qarashlarining shakllanishi «Biz» (yaxshilar) va «Ular» (yovuzlar) tushunchalarini ijtimoiy–ruhiy qarama-qarshi qo'yish asosida vujudga kelgan. Yaxshi kishilar zardushtiylikning ma'naviy–axloqiy qoidalariga muvofiq yaxshi sifatlarga ega, yovuz kishilar ezgulikdan mahrum.

Zardushtiylik hamisha dunyo ishlariga: uy qurish, xotin va bola–chaqa orttirish, olov bilan ta'minlash, qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishga o'z kuchi va vaqtini sarflagan, oila qurishga, faol munosabatga chorlagan. Axuramazdaga murojaat qilar ekan, Zardusht aytadi: «Sen, biz uchun chorva, farovonlik manbaini yaratding». Qachon va qayerda ona-yer o'zini baxtli his qiladi, degan savolga Axuramazda shunday javob beradi: «Qayerda e'tiqodli inson uy qursa, unda olov bo'lsa, chorva, xotin, bolalar va podalar bo'lsa, o'sha yerda farovonlik va

---

<sup>23</sup> O'sha manba. – B. 201.

<sup>24</sup> O'sha manba. – B. 184.

yaxshilik bo'lad»<sup>25</sup>.

Inson moddiy boyliklar yaratuvchisi bo'lgani uchungina emas, balki mehnat–ma'naviylik asosi, mehnat–ezgulik manbai bo'lgani uchun ham mehnat qilishga undalgan. Zardushtiylik ta'limoti nuqtai nazaridan yaxshi inson bo'lish uchun, eng avvalo, mehnat qilish, o'z qo'li bilan ne'matlar yaratish lozim. Dangasalik boshqa barcha illatlar onasi sifatida baholanishi ham tasodifiy emas. Shu sababli zardushtiylik ta'limoti o'z tarafdorlariga chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanishni buyuradi, buni jasorat deb baholaydi.

Demak, dehqon mehnati, Zardusht ta'limotiga binoan asosiy saxovat namoyon bo'lishi, qonunga itoatning bosh shakli – Axuramazda timsolida mukammal yoritilgan. «Avesto»ga ko'ra inson oliy mavjudot sifatida mehnat qilish, moddiy boyliklar yaratish qobiliyatiga ega va yovuzlikni yenga oladi. Mehnat – odamdagi insoniylik ko'rsatkichi, mehnat – uning ma'naviy xulqini baholash o'lchovi, mezoni sanaladi.

Zardushtiylikning shaxs ma'naviy sifatlarini targ'ib qiluvchi tavsifi xususiyati shundaki, insonga xos ko'plab tushunchalar ulug'lanadi. Ezgu fikr Axuramazdadan, yovuz fikr Axrimandan bo'lgani kabi Aho Mano, Anxra Manyu atrofidagi asosiy demonlar orasida birinchi o'rinni egallagan alohida mavjudot sifatida fikr yuritiladi. Yovuz ruhlar – gunohlar, adashishlar, kasalliklar va sh.k. Bu odamlarning, kuchlarning doimiy qutblashuvi, ya'ni ezgu ilohlarning yovuz iloh va ruhlar bilan to'qnashuvi kechadigan borliqdagi hayot haqidagi tasavvurlari keng tarqalishi bilan bog'liq.

Ezgulik iloh va ruhlar shohligida ajoyib uyg'unlik – yerdagi ishlar tartibini aks ettiradigan uyg'unlik hukmron.

Kishilar fikri, so'z va ishlari ikki qarama–qarshi kuch: Maxu mana («Ezgu fikr») va Ako mana («Yovuz fikr») ta'siriga beriladi.

Mashhur avestoshunos A.O.Makovelskiyning yozishicha, «Ezgu fikrat»–niyatning yaxshiligi, ilohiy qonun ruhidagi, yaqinlariga nisbatan yaxshilik qilish, zarur bo'lganida madad berishga tayyorlik, kishilar baxt-saodati uchun yovuzlikka qarshi kurashga hozirlik ruhidagi o'y-fikr, barcha bilan tinch-totuv yashashga intilish va shu kabilar. Inson boshqalarga nisbatan baxillik qilmasligi lozim. Ezgu fikrlar egasi jaholatga tushmaydi, chunki jaholatda kishi ezgu niyatlarini yo'qotadi.

<sup>25</sup> Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, – B.25.

burch va adolatni unutadi, o'ylamay ish qiladi<sup>26</sup>...

Olimlarimiz H. Boboev, T. Doschanov, S. Hasanov «Avesto»dagi bu xususiyatlarga shunday fikr bildiradilar. Inson boshqalarga hasad qilmasligi kerak, ezgu fikrli inson jilovlanmagan g'azab va boshqa ehtirolarga tushmaydi. Zero, bu holatda u ezgu fikrni yo'qotadi, burch va adolatni unutadi va o'ylamagan xatti-harkatlarga yo'l qo'yadi<sup>27</sup>

«Avesto»dagi uchlikning haqiqiy ildizlariga to'xtaladigan bo'lsak, ular bizdan vaqt nuqtai nazaridan eng uzoq qadimgi odamlarning ma'naviy tasavvurlariga to'liq mos keladi. Birlashish, muloqot, ezgulik va muruvvatga intilish ibtidoiy odamning uzviy sifatleri bo'lgan. Uning ongi, ma'naviy va boshqa tasavvurlari o'zi mansub bo'lgan jamoa bilan uzviy ravishda hamohang. Jamoa fikri uning ham fikri, jamoa so'zlari uning ham so'zlari, jamoa ishlari uning ham ishlari bo'lgan. Ibtidoiy odam uchun individualizm yot bo'lgan. Jamoa va shaxsiy manfaatlar birligi urug'chilik jamoasining xarakterli jihati, jamoaning istalgan topshirig'i uning a'zolari uchun muqaddas qonun hisoblangan. Vaqt o'tishi bilan avvalgi ma'naviy talablar tamomila o'zgarib, shaxsiy ma'no kasb etdi.

Masalan, keyingi zardushtiylikda ezgu so'zlar deb kelishuvga amal qilish, so'ziga sodiqlik, tijorat ishlarida halollik, qarzni qaytarish, o'g'rilik va bosqinchilikdan nafratlanish, o'zganing mulki (quli yoki xotini)ni egallashni qabul qilmaslik, buzuqlikdan o'zini tiyish va uni qoralash kabilar tushuniladi. Shubhasiz, zardushtiylikning bu kabi qoidalari urug'chilik tuzumi parchalangan davrga xos.

Inson nafaqat ezgulik, balki yovuzlik kuchlari ta'siriga ham beriladi. Ta'kidlash joizki, bu o'rinda ham din belgilagan uchlik ko'zga tashlanadi. Axuramazdaga bu erda Yolg'on ruhi – Drudja va izdoshlari: yovuz fikr – Axriman va bosqinchilik ruhi – Eshma qarshi turadi, ular atrofida insonlarga zarar etkazuvchi devlar qo'shini mavjud. «Yasht»larda shunday deyiladi: «Siz devlar – yovuz fikr mahsuli, yomon so'z vositasida siz insonlarni ne'matlardan mahrum etdingiz»<sup>28</sup>.

«Avesto»ning ma'naviy qoidalarida nafaqat sog'lik va jismoniy kuch, balki ma'naviy poklikka ham alohida o'rin ajratiladi. Ma'naviyatlilik

<sup>26</sup> Hasanov S. Xorazm ma'naviyati darg'alari. – T.: Adolat, 2001. – B. 28-29.

<sup>27</sup> Ahmedov B. Vatan tarixidan lavhalar. –T.: Cho'lpon, 2001. – B. 144..

<sup>28</sup> Jumabayev I. O'rta Osiyo etikasi tarixiy ocherklari. –T.: O'zbekiston, 1980. – B. 51.



me'yorida sifatida «YAsna»da o'z vaqtida va to'g'ri ovqatlanish buyuriladi, bu inson xizmati va ma'naviy majburiyatlarini bajarish hisoblangan. Zardushtiylikning ma'naviy sifatlari insonga hayotda barcha ne'matlardan me'yorida rohatlanish, kunlarini quvonch bilan o'tkazish, oilasi bilan kelishib, yaxshi yashash uchun zarur barcha narsalarni tavsiya etadi. Ma'naviy barkamol inson nafaqat samolarda, balki erdagi hayot sharoitida ham baxtli bo'la oladi. Buning uchun u hayot ne'matlaridan foydalanishi lozim. Haqiqiy ne'mat (baxt nazarda tutiladi) o'zingga oshno qilganlar. Ular (ya'ni baxtli odamlar)ning uylari ko'rkam, chorvalarga boy, uzoq vaqtgacha mo'l-ko'l. Ularning qizlari oyoqlarida taqinchoqlar bo'lgan. Zardushtiylik foydali hayvonlarga yomonlikni mutlaqo taqiqlaydi. Bu katta gunoh, ma'naviy va diniy nuqtai nazardan jinoyat sanaladi. «Jonli mavjudotga yomonlik qilgan, kaltaklaganga avf yo'q»<sup>29</sup>

Oliy xudo Axuramazdaning o'zi kishilarning barcha amallarini biladi va yodda tutadi, hayoti so'ngida har kimga jazo yoki mukofot belgilaydi: «Ezgulik va yovuzlik o'rtasida ikkinlangan oxirat kunida yaxshiligi va yomonligi uchun javob beradi». Inson hayoti ezgu fikr, so'z va ish bilan kelishuv va birlikda o'tgan bo'lsa, zardushtiylik ta'limotiga ko'ra uning pok ruhi abadiy rohatga ko'chib, o'z tanasini kutadi, u o'liklar tirilgan buyuk kunda ruh bilan birlashadi. Agar kelishuv va birlik bo'lmasa, oxirat kuni insonni jazo kutadi<sup>30</sup>.

«Avesto» qoidalarida insonga nafaqat hayot chog'idagi jazo, balki o'limidan keyingi qasos bilan qo'rqitib ta'sir etishga intilishlar ham mavjud. Ma'naviy qoidalar va huquqlar jannat rohati va do'zax azobi sharpasi bilan mustahkamlanadi. Yuqorida aytilganidek, Zardusht ta'limoti ma'naviy-ma'rifiy xususiyatga ega. U Axuramazda timsolida yagona ilohni qarama-qarshi kuch-ezgulik va yovuzlikning muhosasiz kurashi g'oyasini e'lon qiladi. Bu kurash tabiat va jamiyatdagi kabi har bir insondagi o'ziga xos zardushtiylik ma'naviy tamoyillarining asosiy jihatlari qaratadi: dunyo va jamiyatda tartib o'rnatish, inson hayotini tartibga solish. Asosiy talab – fikrlar softligi, ezgu qalb, haqiqat va adolat. Bu zarur talab. Zero, yaxshilik va yomonlik inson ongida mujassam.

Shunday qilib, «Avesto»da jamiyatning ma'naviy hayoti barcha

<sup>29</sup> Homidov K. Avesto fayzlari. – T., 2001. – B. 31.

<sup>30</sup> Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, – B. 24.

jabhalari, jumladan, III-V asrgacha yashagan Sharq xalqlarining ma'naviy qarashlari o'z ifodasini topgan. Demak, «Avesto»ni Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqning tarixiy taqdiri iqtisodiy, siyosiy va madaniy nuqtai nazardan doimo uzviy aloqada bo'lgan xalqlarning yuksak qadriyati-qadimiy madaniy yodgorligi deb, hisoblash zarur.

«Avesto» – xalqlarning ma'naviy tasavvurlari butun davr mobaynida ilohiy emas, balki dunyoviy asosga egaligidan dalolat beradi. Ular asl xalq manfaatlarini va jamiyatdagi tendentsiyalarni ifoda etgan, er yuzida aql va adolat tantanasi uchun kurashda g'oyaviy qurol bo'lib xizmat qilgan, insonlarning ma'naviy sifatlari ulug'langan.

Ma'lumki, jamiyat tiklanishi va rivojlanishi jarayonida inson biologik va ijtimoiy nuqtai nazardan takomillashib borgan. Zardushtiylilik dini va ma'naviy me'yorlarning yuzaga kelishi inson takomili uchun bir rag'bat bo'lgan. Ming yillar davom etgan bu jarayon xulq-atvor qoidalari va talablari, ma'naviy sifatlarni takomillashtirishga bevosita ta'sir etgan. Ular inson ijtimoiy tiklanishining asosi sanaladi.

Tadqiqotchilar ta'kidlaydiki, «Avesto» boshqa diniy kitoblar: «Qur'oni karim», «Tavrot», «Injil», qadimgi hind xalqining «Rigveda», «Ramayana», «Maxobxarat», «Shastra»lari va boshqalar kabi asrlar davomida insoniyatga o'quv qo'llanma bo'lib xizmat qilgan. Bu madaniy yodgorlikning pedagogik ahamiyati yana shundaki, «Avesto»da diniy g'oya va ma'naviy sifatlarni tizimlashgan tarzda keyingi avlodga etkazish an'ana tusini olgan.

«Avesto» yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlarning muhim tomoni shundaki, har bir olim-u tarixchi, faylasuf, huquqshunos, sharqshunos, ahloqshunos bo'lsin o'z qarashlari nuqtai nazaridan yondashib, Axura Mazda ta'limotiga, ezgulik va baxt-saodatga erishish, shu yo'lda halol mehnat qilish, adolat va haqqo'ylik, poklik va kelajak, yuksak hayotga erishish g'oyasini tahlil etadilar. Masalan, A.Asqarov, U.Aleuov, H.Boboev, S.Hasanov, B.G'ofurov, N.Mallaev, S.Qambarov, A.Izmaylov, L.Lelekov, A.Makovel'skiy, M.Xayrullaev, N.Maxmudova va boshqalar shular jumlasidandir.

«Avesto»da aytilishicha, o'sha davrda bola tarbiyasi va ta'limiga katta ahamiyat berilgan. «Tarbiya hayotdagi eng muhim tayanch sanalishi lozim, har bir yoshni shunday tarbiyalash kerakki, avval o'qishni, keyin yozishni o'rganib olgach, eng yuqori darajaga ko'tarilsin»<sup>31</sup>

<sup>31</sup>Ochil S, Hoshimov H. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 2-jild. –

**«Avesto»da bolalarga ta'lim-tarbiya berish uslublari quyidagi tartibda bayon etilgan:**


Jismoniy tarbiya	O'qish va yozishga o'rgatish (aqliy tarbiya)	Diniy va ma'naviy tarbiya
------------------	--	---------------------------

Zardushtiylik dinida ilm va ma'rifat kuchiga katta e'tibor qaratiladi. Yoshlar Axuramazdaning bilim va o'g'itlarini chuqur o'zlashtirishi uchun «Avesto»da o'ziga xos shaklda 20 ta eng yaxshi ma'naviy sifat tushuntiriladi. Ular xulq-atvorning mukammal me'yorlari sifatida taklif etiladi va u har bir yoshda shakllantirilishi lozim deb hisoblanadi. Bu kabi eng yaxshi sifatlarga bilim va donolik yordamida insonning muqaddaslik kasb etishi, uning atrof-olamni bilishi uchun tinimsiz izlanishlari, o'qituvchi va yuksak ma'lumotli insonga o'quvchi bo'la olish, adolatni qo'llab-quvvatlash kabilar kiradi. Bu sifatlarning mavjud bo'lganida inson Axrimanning dushmanligidan himoyalana oladi, ilmi vositasida yovuz, hiylagar kuchlarning yomonligidan xalos bo'ladi. Qadimgi odamlar bolalarni o'qitish, diniy-ma'naviy sifatlari: poklik va ezgulik, mehnatsevarlik, halollik, saxiylik, insonparvarlik va shu kabilar tarbiyalash ustida qayg'urganlar. Jismoniy tarbiya sog'lom, bardoshli, kuchli, irodali, harbiy ishni egallashga tayyor yoshlarni tayyorlash maqsadini ko'zda tutgan: otda yurish, ov, qilichbozlik, suzish, yugurish, nayza uloqtirish kabilar ta'limda majburiy bo'lgan. «Avesto»da diniy-ma'naviy va harbiy-jismoniy tarbiya hamma uchun birdek, biroq o'qish va yozishga o'rgatish faqat imtiyozli sinflar uchun bo'lgan. Bu qatlamlar bolalari uchun saroy maktablari bo'lib, u erda mashhur sarkardalar ularni harbiy san'atga o'rgatishgan.

Maktablarda «Avesto»ni o'rganish jarayonida ma'lum ta'lim uslublari ham ishlab chiqilgan. Ko'rgazmali qurollar, o'tilgan mavzuni darslikdan takrorlash, savol-javoblar, bilimlar darajasini baholash shakli ham mavjud bo'lgan. Ta'lim jarayonida tobora muhim matnlarni yod olishga alohida e'tibor berilgan. Bolalarning yoshi va tarbiya xususiyatlarini hisobga olib, matnlarni yod olish darajasiga ko'ra ular alohida qismlarga bo'lingan, ko'p marta takrorlash uslubi qo'llanilgan. O'quv materiallarini o'zlashtirishda ketma-ketlik, izchillik tamoyillariga rioya etilgan.

T.: O'qituvchi, 1999. – B. 147.

## «Avesto»da talabalar ma'naviy sifatlarni tarbiyalashning asosiy yo'nalishlari




Eng mo'tabar qadimgi qo'lyozma «Avesto»ning yaratilganiga 3000 yil bo'lgan bo'lsada, talabalarning ma'naviy sifatlarni tarbiyalash va rivojlantirishda zarur vosita bo'lib xizmat qila oladi. SHuning uchun ham mazkur manbadagi eng qimmatli, muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan yuqorida ko'rsatib o'tilgan qoidalarni pedagogika tarixi kursi mazmuniga singdirish bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy hamda kasbiy jihatdan qurollantirishda ilmiy-amaliy qimmatga ega.

### **Buni yodda saqlang!**

«Avesto» nafaqat diniy kitob, balki ijtimoiy, falsafiy, madaniy, adabiy-tarixiy, pedagogik qimmatga ega bo'lgan yodgorlikdir.

«Avesto»da ilgari surilgan fikrlar, g'oyalar, qarashlar. ma'naviy sifatlarni keyinchalik Ma'mun akademiyasi olimlari tomonidan tadqiq etildi. «Avesto»ning Vatani Xorazm ekanligi, oradan shuncha asrlar o'tsada, yana Ma'mun akademiyasining Xorazmda tashkil etilishi, faoliyat olib borishi, o'zbek davlatchiligi tarixi rivojlanishida muhim manba bo'lib xizmat qildi.



<b>Tayanch tushunchalar:</b>	Avesto, Zardusht, ezgu fikr, Vishtasp, Axuramazda, ta'lim jarayoni, Mazda, yasna, Mitra, Xubbi, Mirrix, Anaxita, Xumo.
----------------------------------	--

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari**

1. "Avesto" yaratilganligining 2700 yilligi butun dunyoda qachon va qaysi oyda nishonlandi?
  - A. 2000 yil noyabr oyida.
  - B. 2001 yil oktyabr oyida. \*
  - C. 2003 yil oktyabr oyida.
  - D. 2007 yil sentyabr oyida.
2. Avestoning eng qadimgi nusxasi nechanchi yilda ko'chirilgan va saqlab kelayotgan davlat.
  - A. 1440 yilda Eron.
  - B. 1324 yilda Kopengagen. \*
  - C. 1344 yil Buyuk Britaniya.
  - D. 1224 yil Daniya.
3. Zardushtiylik tadriyjiysi necha bosqichga bo'linadi.
  - A. 2 bosqichga
  - B. 3 bosqichga \*
  - C. 4 bosqichga
  - D. 6 bosqichga.
4. Avesto dastlab necha kitobdan iborat bo'lgan?
  - A. 10 kitobdan
  - B. 21 kitobdan \*
  - C. 17 kitobdan
  - D. 19 kitobdan.
5. «Avesto»da axloqsizlikka yo'l qo'yib bo'lmaslik ta'kidlanadi, fohishabozlik, turmush o'rtog'iga xiyonat qilgan kishilar qanday jazolangan?
  - A. yurtdan haydab chiqishgan.
  - B. qatl jazosi ko'zda tutilgan; 800 zarba berib urishgan. \*
  - C. farzandlarini xalq tortib olishgan.

D. b va s.

6. «Avesto»da ma`naviy jinoyat deb nimalarni hisoblashgan.

A. Yo'lg'on gapirgan, tuhmat qilgan va chaqimchilikni.

B. Besoqolbozlik, turmush o'rtog'iga xiyonat fohishabozlik. \*

C. Davlat yiqqan, elga yordam bermagan munofiq kishilarni.

D. Bog'dorchilik, chorvachilik bilan shug'ullanmaganlarni.

7. Bizgacha etib kelgan «Avesto» nusxalari nechta kitob (qism) lardan iborat. Tartib bo'yicha nomlarini ayting.

A. 6 qismdan iborat. Yasna, Yasht, Avesto, kichik Avesto, Visparad, Vindidod.

B. 5 qismdan iborat. Vendidod, Visporad, Yasna, Yasht, kichik Avesto. \*

C. 2 qismdan iborat. Avesto va kichik Avesto.

D. 3 qismdan iborat. Avesto, Visporad, YASna.

8. «Avesto»ni tarixiy adabiy yodgorlik sifatida kim tarjima qilgan?

A. P.Tolstov.

B. Asqar Mahkam. \*

C. B.Ahmedov.

D. S.Hasanov.

9. «Avesto»da ifodalangan Hubbi obrazi nima tangrisi hisoblanadi.

A. Quyosh tangrisi.

B. Mard yigit suv tangrisi. \*

C. Qo'rqqoq yigit, dehqon tangrisi.

D. b va s.

10. «Avesto»da ifodalangan Xumo qushi qiyofasida nimani iks etiladi.

A. Go'zallik, boylik.

B. Baxt, taqdir, boylik. \*

C. Taqdir, chiroy, go'zallik.

D. To'g'ri javob berilmagan.

## **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar**

1. «Avesto» haqida yurtboshimiz I.A.Karimov qanday fikrlar bildirgan? Yozma bayon eting.
2. «Avesto»ning butun dunyoda 2700 yilligini nishonlanishining boisi nimada deb bilasiz?
3. «Avesto» haqida tadqiqotlar olib borgan pedagog olimlardan kimlarni bilasiz?
4. «Avesto»da nimalar ma'naviy jinoyat deb hisoblashadi? Yozma bayon eting.
5. Axuramazda qanday kuchlarga boshchilik qiladi.
6. «Avesto»shunos tarixchi, faylasuf, adabiyotshunos olimlardan kimlarni bilasiz? Yozma bayon eting.
7. Yasna qismida qanday urf-odatlar ifoda etilgan. Konspektlashtiring.
8. «Avesto»datangri, qiyofa orqali qanday obrazlar ifodalangan? Izohlab bering. Konspektlashtiring.
9. Zardushtiylik ta'limoti haqida fikringiz.
10. H.Homidovning «Avesto fayzlari» kitobini o'qib tahlil qiling, konspektlashtiring.
11. «Avesto» qanday kitoblar sirasiga kiradi? Yozma bayon eting.

## **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. H. Boboev va boshqalar. «Avesto» Sharq xalqlarining bebaho yodgorligi. –T.: TFI, 2004. – 303 b.
2. M.Sharifxo'jaev, Z.Davranov. Ma'naviyat asoslari. –T.: Moliya, 2005. –350 b.
3. Ta'lim muammolari jurnali. –T., 2006. 1-son.
4. A. Ziyoyev. O'zbek davlatchiligi tarixi. –T.: Sharq, 2000.–363 b.
5. H.Homidov. Avesto fayzlar» – T., 2001. – 125 b.
6. N.Mallaev. O'zbek adabiyoti tarixi. –T.: O'qituvchi, 1976. – 662 b.
7. «Avesto» – tarixiy-adabiy yodgorlik / A.Mahkam tarjimasi. – T.: Sharq, 2001. – 382 b.
8. K. Hoshimov, S. Nishonova. Pedagogika tarixi. –T.: A.Navoiy nomidagi milliy kutubxona, 2006. – 279 b.



9. S.Hasanov. Xorazm ma'naviyati darg'alari. – T.: Adolat, 2001. – 208 b.
10. B.Ahmedov. Vatan tarixidan lavhalar. –T.: Cho'lpon, 2001 – 176 b.
11. I.Jumaboev. O'rta Osiyo etikasi tarixi ocherklari. – T.. O'zbekiston, 1980. – 178 b.

## **2.2. Ma'mun akademiyasi olimlarining ma'naviy-ma'rifiy qarashlari orqali talabalarda ma'naviy sifatlarni tarbiyalash masalalari**

«Avesto» bilan bir qatorda Ma'mun akademiyasida faoliyat ko'rsatgan olimlarning ma'naviy-axloqiy qarashlari bugungi kunda talabalarining ma'naviy sifatlarini tarbiyalashda alohida pedagogik ahamiyatga ega. Shunga ko'ra pedagogika tarixi materiallari mazmunida Ma'mun akademiyasida faoliyat ko'rsatgan allomalarning axloqiy qarashlariga alohida o'rin ajratish lozim.

Pedagogika tarixi materiallari misolida talabalarining ma'naviy sifatlarini tarbiyalash jarayoni xuddi mana shu tarixiy manbalar asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Boy tarixiy merosimizni har tomonlama o'rganish huquqiy demokratik davlat qurish va jamiyat rivojiga ko'maklashishi shubhasiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1997 yil noyabrdagi «Xorazm Ma'mun akademiyasini tiklash» to'g'risidagi Farmoni tarix, madaniyatni chuqur o'rganish, fan rivoji, uning yangilanayotgan jamiyat hayotidagi samaradorligini oshirish istiqbollari belgilab berdi.

«Milliy va umuminsoniy sivilizatsiya rivojidagi Xorazm Ma'mun akademiyasining ulkan rolini hisobga olib, biz tegishli tashkilotlar bilan uning ming yilligini munosib nishonlash haqida muzokaralar olib bordik. 2003 yil sentyabrda bo'lib o'tgan YUNESKO Bosh konferentsiyasining 32-sessiyasida Ma'mun akademiyasining ming yilligini dunyo miqyosida nishonlash to'g'risida qaror qilindi», - deb ta'kidlagan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov.

Ma'lumki, o'rta asrlar musulmon olamining ilmiy tafakkuri tiklanishi va rivojlanishi jarayonida eng yirik markazlar: Bag'dodda –Muhammad Muso al-Xorazmiy rahbarligidagi «Bayt ul hikma»

(Donishmandlik uyi); Xorazm poytaxti Gurganjda «Majlisi Ulamo» («Bilimlar uyi»), shuningdek, Samarqandda Ulugʻbek akademiyasi, Marvda Nasriddin Tusiy maktabi yaratilishi bilan bogʻliq uch asosiy davr kuzatiladi. Bu ilmiy markazlar dunyo ilm-fani va umuman davr maʼnaviy-maʼrifiy tafakkuri rivojida tarixiy ahamiyat kasb etdi.

Maʼlumki, IX asrda arab xalifaligi parchalanib ketgach, Markaziy Osiyo mustaqillikka erishdi. Arab istilosidan birinchi boʻlib xalos boʻlgan Somoniylar davlati edi. Keyinchalik bu hududda Xorazmshohlar, Gʻaznaviylar, Saljuqiylar, Qoraxoniylar davlatlari barpo etildi. Buxoro, Samarqand, Marv, Gurganj, Xiva va boshqa shaharlar oʻz davrining madaniy markazlari sifatida shuhrat qozondi. Ularda nafaqat savdo-sotiq va hunarmandchilik, balki ilmiy markazlar ham rivoj topdi, madaniy aloqalar mustahkamlandi.

Tarixiy maʼlumotlarga koʻra X asrning ikkinchi yarmida Xorazm: Shimoliy va Janubiy qismga boʻlingan. Shimoliy Xorazm poytaxti Gurganjda amir Maʼmun ibn Muhammad hukmron boʻlsa, Janubiy Xorazm – Qiyotda Xorazmshohlar hukmronlik qilgan.

995 yilda Gurganj amiri Maʼmun ibn Muhammad Xorazmni yaxlit bir davlatga birlashtirdi. Natijada, Markaziy Osiyo, Eron, Arabiston, Hindiston, Sharqiy Yevropa va Shimoliy-Gʻarbiy Osiyo davlatlari: bulgʻorlar, Rus, Ural va Gʻarbiy Sibir qabilalari bilan savdo, siyosiy va madaniy aloqalar tiklandi. Bu, Xorazmning yanada rivojlanishiga turtki boʻldi. Kutubxonalar barpo etilib, oʻsha davrdagi barcha mashhur adabiyotlar jamlandi. Qiyot, Gurganj, Xiva shaharlarida madrasalar ochilib, ularda koʻplab mashhur olimlar, mudarrislar faoliyat koʻrsatdi. Shuning uchun taʼlim-tarbiya masalalariga katta ahamiyat berilgan, yaratilgan asarlarda Sharq xalqlariga xos boʻlgan insonning axloqiy-ruhiy kamolotini ulugʻlash yetakchi rol oʻynagan. Insonparvarlik gʻoyasini amalga oshirishning asosiy vositalari sifatida yuksak axloqiy odatlar, insoniy munosabatlar va xislatlarni tarkib toptirishga olib keluvchi taʼlim-tarbiyani amalga oshirish asosiy masala qilib qoʻyilgan. Zero, insoniylik gʻoyasida yuksak axloqiy xislatlar ifodalanganligi uchun ham Sharq Uygʻonish davri falsafasi va pedagogikasida taʼlimiy-axloqiy yoʻnalish zarur ahamiyat kasb etdi. Axloq masalasi faylasuflarning, buyuk mutafakkirlarning, tarixchi-yu, shoir va adiblarning ham birdek diqqat markazida boʻldi.

Mazkur akademiya faoliyati tarixini M.Jumaniyazov, u erda ijod qilgan allomalarning aniq fanlarga oid merosini G.Masharipova, mutafakkirlarning umumpedagogik qarashlarini S.Hasanov. ma'rifiy-xloqiy qarashlarini F.Babashev tadqiq qilganlar.

Biz mazkur qo'llanmaga Ma'mun akademiyasida faoliyat ko'rsatgan ayrim olimlarning ma'naviy-axloqiy, pedagogik qarashlarini «Pedagogika tarixi» kursi mazmuniga singdirish va shu asosda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash imkoniyatlari haqida to'xtalamiz.

Ruhshunos, axloq masalalariga katta hissa qo'shgan buyuk alloma. Ma'mun akademiyasining yirik namoyandalaridan biri **Abu Sahl Iso ibn Yahyo al-Jurjoniy al-Masihiy (977-1011 yy.)** bo'lib, hayoti va ilmiy ijodi davomida ko'plab shogirdlar tayyorlagan. Astronomiya, matematika, falsafa, tabobat va boshqa tabiiy fanlar bilan shug'ullangan, lekin fan tarixida ko'proq tabib sifatida mashhur. Abu Sahl al-Masihiyning tabobatga oid asarlari O'zbekistonlik olimi S.Karimova tomonidan o'rganilgan<sup>32</sup>.

Abu Sahl al-Masihiy tibbiyot sohasiga oid asarlar yozish bilan bir qatorda, ma'naviy tarbiya masalalariga murojaat qilib, quyidagi fikrlarni bildirgan. «Odam zamondoshlarining eng yaxshi sifatleri vositasida o'zini shakllantiradi. Inson har qancha aqlli bo'lmasin, jamiyat uchun foydali ish qilmasa, u komil emas. Inson ko'p bilsa yaxshi, biroq u o'z bilimlarini kengaytirsas, buyuk bo'ladi. Aqllining xatti-harakati har yerda o'rinli, nodonning harakatlari doimo xavfli», - deydi u. «Agar odam o'zini yaxshi bilsa, bu ajoyib sifat, ammo u o'z bilimini yanada tinmay oshirib borsa, bunda u haqiqatan ham, ulug' odam bo'lib yetishadi»<sup>33</sup> Olimning bu fikrlari ma'naviy tarbiya nuqtai nazaridan qimmatli.

Akademiyaning yana bir mashhur vakili, buyuk matematik, astronom, atoqli shoir **Abu Nasr Mansur Ali ibn Iroq (958-1034 yy.)** bo'lib, u Abu Rayhon Beruniyning ustoz va tarbiyachisi.

Abu Nasr Mansur ibn Iroqning «Podsho almagiti» kitobida uning ma'rifiy tarbiya va pedagogikaga oid fikrlari bayon etilgan. Insonning aqliy rivojida tabiiy fanlar ahamiyatiga e'tibor beradi. «Riyoziyot aqlni charxlaydi va tasavvurni mustahkamlaydi. Bu fan tugallanmagan fikrni

<sup>32</sup> Ta'lim muammolari jurnali. Ma'mun akademiyasining 1000 yilligiga bag'ishlangan maxsus soni, 2006. 1-son. – B.25.

<sup>33</sup> Hasanov S.. Xorazm mana'viyati darg'alari. – T.: Adolat, 2001. – B.79.

tushunib olishga o'rgatadi, chunki uning boshlang'ich qoidalari ma'lum, isboti esa oson. Unda ziddiyat kam bo'lib, aqlga ko'maklashadi, yagona g'oyani ilgari suradi», - degan edi<sup>34</sup>.

Ibn Iroq o'z davrida «Batlimusi soniy» degan faxriy nom olgan. Ul zot Beruniy, ibn Sino, Hammor kabi allomalar bilan nafaqat ilmiy muloqot olib borgan, balki chin do'st ham bo'lgan<sup>35</sup>.

Akademiyaning yana bir a'zosi – **Abu Abdulloh Muhammad ibn YUsof Iloqiy (vaf. 1068)**. Uning «Muxtasar al-Iloqiy» («Sabablar va belgilar haqida kitob»), «Kulliyoti tibbiy Iloqiy» («Iloqiyning tibbiy to'plami») kitoblariga kirgan asarlari bilan ommalashib ketgan edi. Iloqiy asarlari ibn Sino bilan birga turli mamlakatlar olimlari tomonidan XV asrga qadar sharhlanib, izohlanib kelingan. Abu Abdulloh Iloqiy Abu Ali ibn Sinoning eng yaqin shogirdi bo'lib, Gurganchdagi kasalxonani boshqaradi. Abu Ali ibn Sinoga yordamchi bo'ladi. «Iloqiy Toshkent viloyatining Ohangaron tumanida tavallud topadi. O'sha vaqtda bu voha «Iloh vohasi» deb yuritilgan, Iloqiy dastlab Shosh (hozirgi Toshkent) madrasalarining birida ta'lim-tarbiya olib, o'z bilimini yanada oshirish uchun Buxoroga, keyin Gurganchda Ma'mun akademiyasida faoliyat ko'rsatadi. Bir qancha asarlar yozadi, amaliy tabobat bilan shug'ullanadi. Uning yozgan asarlariga XI-XIV asrlarda sharqshunos olimlardan Muhammad Omiliy, Muhammad Tabib va boshqalar sharhlar yozishgan. Olim insonlarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni muomala madaniyati orqali yetkazishni «Davolash usullari» asarida aytib o'tadi.

Ibn Sinoning shogirdi **Abul Qosim Abdurahim Ali ibn Abu Sodiq Mutatabib** nafaqat tibbiyot ilmi bilan shug'ullangan, balki iste'dodli faylasuf va axloqshunos ham bo'lgan. Galen asarlarini o'rgangan. O'rta asrlar tarixchilari yozishicha, u halol, adolatli, so'zga chechan va bosiq odam bo'lgan.

Buyuk alloma, kimyogar **Abul Hakim al-Qosiy** yaratgan «San'atning mohiyati va uning yordami» asari arabchadan inglizchaga tarjima qilingan va 1905 yilda Hindistonda chop etilgan. Muhammad Qosiyning eng katta xizmati kimyoviy elementlarning o'xshashligi haqidagi nazariyani rivojlantirgani va boyitganidir. U bir kimyoviy elementni boshqasi bilan almashtirish mumkinligini ko'rsatib berdi.

<sup>34</sup> Ta'lim muammolari jurnali. Ma'mun akademiyasining 1000 yilligiga bag'ishlangan maxsus soni, 2006. 1-son. – B. 76.

<sup>35</sup> O'sha manba, 9-bet.

Kimyoviy almashtirishning kashf etilishi farmakologiya rivojiga xizmat qildi. Olim kimyo fani misolida yoshlar ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy usullarini yaratdi.

Axloqshunoslik muammolarini targ'ib etgan **Abulxayr ibn Hammor (942–1030 yy.)** Ma'mun akademiyasining eng e'tiborli olimlaridan bo'lgan. Uning «Tabiblar bilimini tekshirish» kitobi Xorazmshoh Ma'mun uchun yozilgan bo'lib, muallif uni yosh tabiblar, shogirdlari uchun amaliy qo'llanma deb bilgan. Akademiyada yigirmadan ortiq tabobat olimi faoliyat yuritgan, har birining o'z shogirdlari bo'lib, ularga kitob, darslik, o'git zarur edi. Ibn Hammorning Ma'mun akademiyasidagi faoliyati uning hayotida eng sermahsul davr bo'lgan. Ibn Abu Usayba guvohlik berishicha, u o'n beshta asar yozgan, shulardan to'rttasi «Insonning yaratilishi va a'zolari tuzilishi haqida», «Tabiblar bilimini tekshirish», «Al-Kohiniy nomi bilan ma'lum kasallik haqida maqola» (Epilepsiya turi), «Keksa kishilar tartibi haqida». Ibn Hammorning ilmiy merosida ilm va ma'rifiy-axloqiy masalalar keng targ'ib qilingan. U o'z asarlarida nutq madaniyati, qanoat, saxiylik kabi xislatlarni ilgari suradi<sup>361</sup>.

«Ma'mun «Majlisi ulamo»si tarqatilgach, Mahmud G'aznaviy Hammorni o'zi bilan poytaxtga olib ketadi. Saroyda Hammor Sultonning shaxsiy tabibi vazifasini bajaradi, umrining oxirigacha uni davolaydi»<sup>372</sup>.

**Abu Muhammad ibn Xidr al-Xo'jandiy (XI asr)** mashhur olim. Uning asarlari Ma'mun akademiyasida yuksak qadrlangan. Akademiyaning olimlari al-Xo'jandiyni astronomik asboblar yaratuvchisi va «asrning noyob hodisasi» deb ta'riflaydilar. Uning vaqt birligisoniyani belgilashdagi asarlarini «beqiyos kashfiyot» deb ataganlar. «Abu Muhammad ibn Xidr al-Xo'jandiy asosan riyoziyot va falakiyot bilan shug'ullangan. Birinchi bo'lib, u Yer va osmon jismlari orasidagi masofani o'lchaydigan asbob – sekstantini yaratgan. Keyinchalik bu asbob «Xo'jandiy sekstanti» deb atalgan. Uning «Geometriyadan masalalar», «Arifmetik risola» asarlarida matematika sohasida erishgan natijalari bilan insonlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashni o'z

---

36 <sup>1</sup> Ta'lim muammolari jurnali. Ma'mun akademiyasining 1000 yilligiga bag'ishlangan maxsus soni, 2006. 1-son. – B. 73.

37 <sup>2</sup> Babashev F. Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalarning ma'naviy-axloqiy qarashlari. P.f.n. diss. – T., 2000. – B. 73.

vaqtida eng sodda va ishonarli tarzda isbot etgan<sup>38</sup>.

**Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al-Xorazmiy (vaf. 997)** ham o'z davrining eng yirik qomusiy olimlaridan sanaladi. Uning «Mafotix al-ulum» («Ilmlar kaliti») asari fanlar rivojlanishi tarixi va tasnifi bo'yicha ajoyib manba sanaladi. U o'ziga xos qomusiy asar, tushunchalarni va ular mazmunini talqin qilish uslublari namunasi bo'lib, fiqh, kalom, axloqshunos, arab grammatikasi, ish yuritish, she'riyat nazariyasi, falsafa, tibbiyot, matematika, geometriya, musiqa, kimyo, jo'g'rofiya, mexanika va boshqa fanlarga oid batafsil sharhlar keltiriladi. Mazkur asarda olim o'z oldiga uchta maqsad qo'yadi; birinchidan, ma'rifatparvarlik – toliblarni fiqh (musulmon qonunshunosligi, huquqi); ikkinchidan, islom falsafasining ahamiyati bilan tanishtirish; o'sha davrdagi Sharqda mavjud bo'lgan dunyoviy ilmlar haqida to'liq va batafsil ma'lumot berish; uchinchidan, mazkur asardagi fikrlarning mantiqiy bayoni va ilmiy munozaralar o'ziga xosliklarga ega ekani va o'rta asrlar Sharqida keng tarqalganligidan dalolat. Alloma barcha fanlarni ikki guruhga: shariat ilmlari («ulum ash-sharia») va falsafiy, ya'ni arabcha bo'lmagan («Ulum al-ansom») ilmlariga ajratadi. Shariat ilmlariga fiqh, kalom, arab grammatikasi, ish yuritish, she'riyat nazariyasi, tarix, «noarab» fanlarga – falsafa, mantiq tibbiyotni, arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqa, jo'g'rofiya, mexanika va kimyoni kiritadi. Shunday qilib, «ikki qismdan iborat mazkur asarda o'n besh ilm to'qson uch bobda bayon etilgan».

Abu Abdulloh ibn Yusuf al-Xorazmiyning ilmiy–ma'rifatchilik faoliyatidagi asosiy xizmati pedagogika tarixida Beruniydan keyin umumjahon fanlarini shariat ilmidan ajratib, har bir fanni umumlashtirib, ilmiy xulosalar qilgani, ilg'or g'oyalarni ilgari surganidadir. Abu Abdulloh al-Xorazmiy o'z asarlarida farzandlarni yaxshi tarbiyalash, ularga bilim berishga katta ahamiyat beradi. Ularni o'z oldiga xolis niyat qo'yib, kelajakka ishonib yashash lozim deb ta'kidlaydi. Yomon odatlardan, ayniqsa, sharobxo'rlikdan saqlanish, go'zal odatlardan bahramand bo'lishga undaydi. Abu Abdulloh ibn Yusuf al-Xorazmiy ijodiga I.Yu. Krachkovskiy qomusiy manba sifatida yondashgan. U.I.Karimov, M.M.Xayrullaev, G.P.Matvievskayalar ham o'z ishlarida Abu Abdulloh ibn Yusuf al-Xorazmiy asarida ilmlar tasnifining berilishi haqidagi ba'zi

<sup>38</sup> Ta'lim muammolari jurnali. Ma'mun akademiyasining 1000 yilligiga bag'ishlangan maxsus soni, 2006. 1-son. – B. 76.

bir ma'lumotlarni keltirganlar.

Asarning «Kimyo» bo'limini U.I.Karimov, riyoziyotga oid bo'limini G.P.Matvievskeya, jo'g'rofiyaga oid boblarini S.Hasanov, mexanikaga oid bo'limini M.M.Rojanskaya, mantiqqa oid bobini A.Sharipov, she'riyat va aruzga oid bo'limini M.Ziyovuddinova tadqiq qilganlar<sup>39</sup> Asarning mazmuni va ahamiyati haqida birinchi marta R.Bahodirov o'zbek tilida ilmlar tasnifini nashr ettirganlar.

Abu Abdulloh al-Xorazmiy o'z davrining qomusshunos, lug'atshunos, axloqshunos olimi bo'lgan, uning pedagogikaga oid qarashlari haqida F.Babashev, I.Abdullaev, S.Hasanov, M.Xayrullaev tadqiqotlar olib borishgan.

Ma'mun akademiyasining faoliyatiga munosib hissa qo'shgan buyuk vatandoshimiz **Muso al-Xorazmiy (783-850 yy.)** Bag'doddagi «Bayt ul hikma»da faoliyat olib borib yunon olimlari asarlariga sharhlar yozdi. bundan Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari juda mohirlik bilan foydalandilar. Bu haqda Muso al-Xorazmiyning tanlangan asarlar kitobida, G.P.Matvievskeya va B.A.Rozenfeld, M.Xayrullaev, T.Doschanov, M.Jumaniyazovlarning asarlarida va pedagogika tarixi, pedagogik antologiyalarda to'liq ma'lumot berilgan.

Muso al-Xorazmiyning pedagogik va ma'naviy qarashlarini quyidagi fikrda ko'rish mumkin: «o'tmish davrlarda o'tgan xalqlarning olimlari ulardan keyin keladiganlarni nazarda tutib, fan bo'limlari va falsafa sohasiga oid asar yozib tinmaganlar, o'z kuchlariga munosib mukofotga umid bog'lab, ular xolis dillardan maqtov olish: shuhrat va xotiradan umidvor bo'lganlar, ular fan sirlarini ochish uchun chekkan zahmat oldida bu hech nima emas. Ulardan biri boshqasidan o'zib ketib, hali o'rganilmaganini o'rgandi, o'zidan keyingilarga meros qilib qoldirdi. Boshqasi o'tganlar ishini sharhlab, mushkulini oson qildi, yashirin narsani ochdi, yo'lini yoritdi va uni yanada qulay qildi. Yoki ayrim kitoblardan nuqsonlarni topdi va uzilganlarni birlashtirdi. o'z o'tmishdoshi haqida yaxshi o'ylab, uning oldida kibrlanmadi, qilgan ishidan mag'rurlanmadi»<sup>40</sup>

Bu fikrlar buyuk olimning ma'naviy dasturi edi. Ular olimning

<sup>39</sup> Bahodirov R.. Abu Abdulloh al-Xorazmiy va ilmlar tasnifi tarixidan. – T.: O'zbekiston, 1995. – B. 7.

<sup>40</sup> Hoshimov K.. S.Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 1-jild. – T.: O'qituvchi, 1995. – B. 74.

pedagogik qarashlarini belgilashda yuksak ahamiyat kasb etadi.

**Abu Rayhon Beruniy (973-1048 yy.)** fan tarixida qomusiy olim sifatida nom qoldirgan. Beruniy inson tabiati, feʼl-atvori va jamiyatdagi oʻrniga baho berar ekan, bu masalaga maʼrifatparvarlik nuqtai nazaridan yondashadi. Insonning tabiati haqida fikr yuritganda, u inson xatti-harakatining axloqiy asoslarini insonning oʻzidan qidirdigan, oʻzidan oldin oʻtgan mutafakkirlar kabi shaxs tabiatidan keltirib chiqargan<sup>41</sup>.

Beruniy taʼlim-tarbiya birligiga barkamol, aqlli va maʼnaviyatli insonni tarbiyalash vositasi sifatida qaraydi, mehnat va kasb taʼlimi, oila tarbiyasi va tarbiya birligini tavsiya etadi, oʻz asarlarida mutafakkir insonning maʼnaviy boyligini sharaflyadi, uni madaniyatli va maʼrifatli, aqlli va idrokli qilib tarbiyalashga chaqiradi; xotira, aql. ilhom, qobiliyatlari, tajriba va koʻnikmalarga katta ahamiyat beradi. Beruniy fikricha, bilim insonni ulugʻlaydi, ezgulikka, donolikka chorlaydi. Biroq mutafakkir komillikka yuksak aqliy va maʼnaviy xislatlarni tatbiq etish jarayonida erishishi mumkin, deydi. Beruniy bilim insonni toʻgʻri yoʻlga boshlashiga qatʼiy ishongan. «Kishi tabiati bilolmagan narsani bilishga muhabbatlidir, faqat haqiqiy bilimga ega boʻlganda, bilolmagan narsani bilishga ehtiyojli boʻlib axtarganini topadi, bilimni chuqurlashtiradi... Bilim qaytarish va takrorlash mevasidir»<sup>42</sup>.

Beruniy mehnat tarbiyasiga katta eʼtibor bergan. Mutafakkirning fikricha, yoshlarning toʻgʻri rivojlanishida zarur shart mehnatdir. Aynan mehnat – moddiy boyliklar yaratishning asosiy omili. Beruniy hayot va baxtni mehnatsiz tasavvur qilolmaydi va mehnat bilan tarbiyalash – inson hayotining asosi, deb biladi. «Mineralogiya» va «Geodeziya» asarlarida yozishicha, «Insonning qadr-qimmati oʻz vazifasini aʼlo darajada bajarishdan iborat: shuning uchun insonning eng asosiy vazifasi va oʻrni mehnat bilan belgilanadi, inson oʻz hohishiga mehnat tufayli erishadi»<sup>43</sup>.

Beruniy bilim umuminsoniy qadriyatlarni oʻrganishning kaliti ekanligini uqtiradi. Ilm-maʼrifatli odam jamiyat taqdiri uchun kurashuvchan, barcha yomonliklardan uzoqdir<sup>44</sup>.

<sup>41</sup> Hasanov S.. Xorazm maʼnaviyati dargʻalari. –T.: Adolat, 2001. – B.110.

<sup>42</sup>Hoshimov K, S.Ochil. Oʻzbek pedagogikasi antologiyasi. 1-jild. –T.: Oʻqituvchi, 1995. – B.127.

<sup>43</sup>Maʼnaviyat yulduzlari/ M.Xayrullayev tahriri. – T.: A Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1999. – B. 97.

<sup>44</sup>Hoshimov K, S.Ochil. Oʻzbek pedagogikasi antologiyasi. 2-jild. – T.:



Haqiqatan ham, Beruniyning aqli, bilimi va kasb-hunar haqidagi ma'rifiy-pedagogik qarashlari mazmunida barcha ezgu ishlarning asosi ilmu ma'rifatda ekanligi haqidagi g'oya asosiy o'rinda turadi. Abu Rayhon Beruniyning mehnatga munosabati e'tiborga molik. Uningcha, aql, mehnat va uni erkin tanlash inson hayoti va ijtimoiy holatini belgilab beradi. Ta'lim asosida esa insonlarning eng olijanob niyatlari – tushunish, o'zaro yordam, o'zaro manfaatlilik, ehtiyojlarni birgalikda qondirish, umumiy qiziqishlar yotadi. Allomaning fikricha, bu ezgu fazilatlar har bir insonning ajralmas ma'naviy tamoyiliga aylanmog'i lozim. Inson hamisha boshqalarning manfaatlari, ma'lum vazifalarni bajarish zarurati haqida o'ylashi kerak. Zero, bu insonning dunyoda mavjudligi tamoyildir<sup>45</sup>.

**Buni esda saqlang!** Beruniy ilmning insonparvarlik asoslarini qat'iy yoqlagan va boshqa olimlarni boylik va intilish, g'arazgo'ylikdan qaytargan. Buni alloma hayotiga oid faktlar ham tasdiqlaydi. Bugungi kunimizgacha etib kelgan hikoyatga ko'ra Beruniy Sulton Ma'sud tomonidan unga «Ma'sud qonuni» kitobi uchun yuborgan mukofot – 250 kg sof kumushdan voz kechgan, garchi bu sovg'a olimni g'aznaviylar imperiyasining eng boy kishilaridan biriga aylantirishi mumkin bo'lsa-da, Beruniy Sultonga o'z javobida bu yuk uni ilmiy ishdan to'xtatishini, dono insonlar esa oltin, kumush ketib qolishini, ilmning qolishini bilishlarini aytadi. Aql amriga bo'ysunib, abadiy ilmiy bilimni qisqa muddatli zar yaltrashiga almashmasligini ta'kidlaydi.

Shunga binoan, Beruniy insonning o'z hayoti va jamiyat oldidagi vazifalarini belgilab beradi. Alloma fikriga ko'ra inson zimmasiga boshqa mavjudotlarga nisbatan o'ta mas'uliyatli vazifa yuklatilgan. Inson tabiatning oliy takomili, insonning ma'naviy qiyofasi uning vazifasiga muvofiq bo'lishi kerak. Har bir inson o'z ishini a'lo darajada bajarishi lozim, ularning asosiy majburiyati va vazifalaridan biri – mehnat. Alloma ayyorlik, ochko'zlik, adolatsizlik, yolg'on, ko'ngli bo'shlik, ikkiyuzlamachilik, laganbardorlikni qoralaydi. Bu kabi illatlarga ega

---

O'qituvchi. 1999. – B. 126.

<sup>45</sup> O'sha manba, 130-bet.

bo'lgan inson zo'rlik, soxta guvohlik, xiyonat, o'zganing mulkini o'zlashtirish, o'g'irlik va boshqa illatlarga qodirki, ular dunyoni va inson zotini buzadi. YOlq'on xususida Beruniy shunday fikr bildiradi – yolg'on doimo rostdan mag'lub bo'ladi va suv yuzasidagi ko'pik misol yo'qoladi, – deydi. Ma'naviyatsiz inson rohat, farog'atning me'yorini bilmaydi, insonlar o'z intilishlariga ko'ra turlicha. Ular baxt, rohat va hayot mazmunini ham xuddi shunday tushunadilar. «Inson zoti barcha hayvonlardan yuqori turadi... Yer yuzini obod etish uchun va uni boshqarib turish uchun... insonga katta sharaf ko'rsatilgan, unga aql-zakovat kuchi armug'on etilgan»<sup>46</sup>. Aqlli faqat abadiy ma'naviy ishlardan rohat qiladi, nodon esa asl qadriyatni bilmay, nigohini turli bezak berilgan, ongsiz hayvonni ham yerga qaratadi. Dono inson ma'naviy rohat oladi, qachonki buni aqli va fikri bilan bajarsa ham nodon faqat jismoniy rohatni his qila oladi. G'ayriaxloqiy sifatlarga olim yuksak insoniy fazilatlarini qarshi qo'yadi. Uningcha, mamlakat ravnaqi maorif, fan va insonning ma'naviy kamoloti bilan belgilanadi, qashshoqlik va nodonlikdan ilm, bilimlarni tarqatish va tinimsiz mehnat yordamidagina xalos bo'lish mumkin.

Beruniy merosi ulkan bir xazinaki, unda ilm, ta'lim-tarbiyaning mazmuniga oid qimmatli fikrlar ko'plab topiladi.

Beruniy ma'naviy tarbiyada ilmning rolini birinchi o'ringa olib chiqadi. U insonlarni o'zida yuksak ma'naviy fazilatlarini tarbiyalashga chaqiradi. Yuqorida aytilganidek, xalqning qashshoqlik va nodonlikdan fan, ma'rifat va mehnat yordamida qutqarish mumkin, deb biladi. Bilim egallashni esa ko'p kuch, vaqt va sabot talab qiladigan katta mehnat hisoblaydi. «Fanlarning foydasi – ular yordamida oltin va kumush to'plash emas, balki kerakli narsalar hosil qilish»<sup>47</sup>

Beruniy har bir insonning mard, adolatli va haqiqatgo'y bo'lishini, buni amalda bajarishni uqtiradi. Ularning fikricha, mard inson yolg'onga qarshi kurashishi har qanday ta'qib va xavf-xatarga qaramay, haqiqatni himoya qilishi lozim. «Rostgo'ylikka yopishgan kishini boshqa odam u yoqda tursin, yolg'onchining o'zi ham sevib maqtaydi», deydi Abu Rayhon Beruniy «Hindiston» asarida.

---

<sup>46</sup> Hasanov S.. Xorazm ma'naviyati darg'alari. –T.: Adolat, 2001. – B. 123.

Hoshimov K. S.Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 2-jild. – T.: O'qituvchi. 1999. – B. 128.

**Buni esda saqlang!** Beruniy o'z davrining etakchi allomasi sifatida ta'lim va tarbiya birligini barkamol inson tarbiyasi vositasi deb bilgan. Ta'lim, mehnat va oila tarbiyasini birgalikda olib borishni tavsiya etgan. Shu nuqta: nazardan ta'lim tamoyillarini quyidagicha ko'rib chiqqan: 1) onglilik; 2) ko'rgazmalilik; 3) tizimlilik va izchillik; 4) asoslanganlik; 5) nazariya va amaliyot birligi; 6) darslikka talablar.

Allomaning olim axloqiga oid fikrlarini barcha davrlar ilm ahillari uchun vasiyat deb bilish mumkin. Bular soxtani haqiqiydan ajratish, fan rivojida aniq va zarur holatlarni farqlash, ilm-fanga sodiq bo'lish, fanning insonparvar asoslarini himoya qilish. Shuning uchun ham allomaning ijodiy merosiga oid A.Irisov tomonidan nashr etilgan «Abu Rayhon Beruniy. 1000 hikmat», T. Doschanov, S. Hasanov tomonidan nashr etilgan «Ma'mun Akademiyasi yulduzlari», T. Raufov tadqiqot ishi, B.Rozenfeldning «Abu Rayhon al-Beruniy» asari, A. Qayumovning «Abu Rayhon Beruniy, Abu ali Ibn Sino» asari, M.Xayrullaev tomonidan nashr etilgan «Ma'naviyat yulduzlari», «Pedagogika tarixi» va «O'zbek pedagogikasi antologiyalarida» muhim ma'lumotlar berilganki, bularning barchasi Abu Rayhon Beruniy hayoti, ilmiy-ma'rifiy faoliyatiga bag'ishlanadi.

Abu Rayhon Beruniy ma'naviyatga alohida e'tibor qaratadi. U ma'naviyatni qadr-qimmat, sha'n, yaxshilik va yomonlik, adolat va vijdon sifatida e'tirof etgan. Beruniyning inson qadr-qimmati va olijanoblighi to'g'risidagi fikrlari qiziqarli.

Beruniy do'stlik va o'rtoqlikni «hayotning qimmatbaho ne'mati» deb bilgan. Do'stlikning muhim qirralarini ochib berarkan, olim o'quvchilarni o'zaro yordam va o'rtoqlik ruhida tarbiyalashni talab qiladi. Uning ta'kidlashicha, «Yaqin do'sti bor kishi chinakam baxtiyor kishidir. U do'st munosib hayot tarziga ega, yoqimli xususiyatlar sohibi bo'lishi lozimdir. Ana shunday chin do'st har bir kishida bitta bo'ladi...»<sup>48</sup>.

---

<sup>48</sup> Hasanov S. Xorazm ma'naviyati darg'alari. –T.:Adolat, 2001. –B. 120.

## **Buni bilasizmi!**

Beruniyning ilmiy merosini o'rganish shuni ko'rsatadiki, u ma'naviy sifatlarga, ya'ni sha'n va qadr-qimmat, o'rtoqlik va do'stlik, yaxshilik, adolat va vijdon kabilarga alohida ahamiyat bergan. Beruniy yoshlarni saxiy, insonlarga nibatan g'amxo'r va e'tiborli bo'lishga, hammadlik va yordam ko'rsatishga chorlaydi. «yaxshilik», «adolat», «haqiqat» so'zlarining ma'nosini juda to'g'ri izohlaydi. Tabiatiga ko'ra adolat ma'qullash ekani, mohiyatiga ko'ra muhabbat qozongani, go'zalligiga ko'ra o'ziga tortgani kabi haqiqatan ham, aynan shundayligiga bizni ishontiradi, deb biladi alloma. O'sha davrda hamuna ustozlar haqida faxrlanib, to'lqinlanib gapirsa, ibn Iroq shogirdining yuksak ma'naviyati xususida ana shunday fikr yuritadi.

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqqan yetuk alloma, tabib, axloqshunos olim **Abu Ali ibn Sino (980–1037 yy.)** yaxshilik, kamtarlik, ma'naviyat, iroda kabi tushunchalarni falsafiy talqin qilgan. U o'z ijodida ma'naviy sifatlarni tarbiyalashga alohida e'tibor bergan. Ibn Sino insonning vazifasi mehnat qilib, er yuzida yaxshi nom qoldirishini butun asarlarida uqtirib o'tadi. Buyuk mutafakkir ibn Sino o'zini bola qalbining nozik bilimdoni sifatida namoyon eta olgan. Tarbiya jarayonini u aqliy, jismoniy, estetik, ma'naviy tarbiya, shuningdek, hunar ilmini o'z ichiga olgan yagona yaxlit jarayon sifatida baholaydi. Uning didaktik tamoyillari mohiyati quyidagilardan iborat: ta'lim oddiydan murakkabga qarab bormog'i lozim. U bolaning moyilliklari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilmog'i; mashqlar bola uchun tushunarli, uning kuchi yetadigan bo'lishi kerak va ta'lim jismoniy mashqlar bilan uyg'unlikda bo'lishi zarur. Ibn Sinoning pedagogik qarashlaridagi asosiy g'oya bola tarbiyasida atrof muhitning yetakchi rol o'ynashidir. Komil inson tarbiyasi, mutafakkir fikricha, bir kunlik ish emas, shu bois bolani sabr bilan tarbiyalash zarur.

Buyuk tabib, alloma Abu Ali ibn Sinoning yosh avlod ta'lim va tarbiyasiga oid qarashlari o'z vaqti uchun ilg'or va zamondoshlarinikiga ancha yaqin bo'lgan. U Sharqda birinchilardan bo'lib, tarbiyaning qat'iy tizimi va usullarini bayon etgan. «Tadbir ul-manzil», «Tib qonunlari», «Ash-shifo», «Urjuza fittib», «Donishnoma» va boshqa asarlarida ta'lim va tarbiyaga alohida boblarni bag'ishlagan. Ibn Sino bola

tarbiyasi go'daklikdan boshlanishi kerakligini uqtirgan, tarbiyachining butun e'tibori bola xarakterini yaxshilash, parvarishning tegishlicha yo'nalganligi, istagan va intilgan narsa doim mavjud bo'lishi. uning huzurida u yoqtirmagan ishga yo'l qo'ymasligiga qaratilishini bolaning xulq-atvorli qilib tarbiyalashning imkoni yaratilishini ta'kidlagan. Uning ma'naviy sog'ligi. jismoniy salomatligi ham tarbiyaga bog'liqligini uqtiradi va shunday deydi «G'azab kuchli qizdiradi, qayg'u kuchni quritadi»<sup>49</sup>.

Tarbiya, ta'lim va o'qitish mazmuni haqida gapirar ekan, ibn Sino birinchi aqliy rivojlanish va tarbiya, ikkinchi ma'naviy-axloqiy tarbiya, uchinchi estetik tarbiya, to'rtinchi jismoniy sog'lomlashtirish, unga tibbiyot xizmat qiladi. beshinchi mehnat tarbiyasini nazarda tutadi. Ibn Sino o'zining birinchi ustozlari deb Ibrohim al-Notiliyni tan oladi. Al-Notiliy Beruniyning keksa zamondoshi, ibn Sinoning birinchi ustozlari edi. Ta'lim va tarbiya mazmuni muammosiga ibn Sino faqat tabib emas, balki yetuk pedagog sifatida ham yondashadi. Ibn Sino fanlarni qat'iyat bilan o'rganish, komillikka intilishga chaqiradi. «Tib qonunlari», «Muhabbat haqida risola», «Ko'ngil haqida risola», «Qushlar haqida risola», «Donishnoma», «Hay ibn Yaqzon», «Solomon va Ibsol» va boshqa asarlarida ibn Sino ma'naviy tarbiya masalariga to'xtalib, yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalashga oid aniq maslahatlar beradi. Olim insonlardagi ikkiyuzlamachilik, yolg'onchilik, o'z manfaatiga intilish kabi illatlarni qoralaydi. Uning fikricha, tarbiyachining shaxsiy namunasi zarur. Zero, kattalardagi yomon odatlar bola xulqining shakllanishiga salbiy ta'sir etadi.

**Buni yodda saqlang!** «Nasihat bobida uch mingta so'z yozdim. uch mingtadan uch kalimani tanlab oldim. Bu uchtadan ikkitasini esda saqla va birini unutib yubor: Xudoni va o'lim haqligini yodingda tut. qilgan yaxshiliklaringni unutib yubor»<sup>6</sup>

Inson xatti-harakatlari uning ijobiy va salbiy ma'naviy sifatlari sababini ibn Sino insonning o'zidan izlaydi, ularni ruhiy nuqtai nazardan asoslashga urinadi. Inson mohiyatini undan tashqarida, deb uqtirgan,

---

<sup>49</sup> Ta'lim muammolari jurnali. Ma'mun akademiyasining 1000 yilligiga bag'ishlangan maxsus soni, 2006. 1-son. – B. 64.

uyat, vijdon, sha'n va shu kabi harakatlarni asoslagan diniy axloq oldida, aql «tasavvur» kuchi bilan ish ko'rib, inson faoliyati rejalarini belgilaydi. Olimning fikricha, harakatdagi aql insonning yolg'on, zo'rlik va shu kabi salbiy xatti-harakatlariga ta'sir o'tkazadi.

Ibn Sino 17 yoshidayoq yosh tabib sifatida Somoniylar davlatining boshlig'i Nuh ibn Mansurni davolab, Saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu kutubxona o'sha davrda O'rta va Yaqin Sharqdagi eng katta va boy kutubxonalardan sanalardi. Bir necha yil davomida kecha- kunduz tinmay mutolaa qilish natijasida ibn Sino o'z bilim doirasini mislsiz darajada kengaytirdikim, u davrda shu qadar bilimga ega bo'lgan boshqa bir kishini topish mushkul edi<sup>50</sup>

Shunday qilib, ibn Sinoning amaliy aql haqidagi ta'limoti ko'proq ma'naviy ta'limot, zero, u inson xulqi me'yorlarini qamrab olgan. Ibn Sino bilishning bola aqliy, ma'naviy, jismoniy, estetik va psixologik rivojlanishiga ijobiy ta'sirini, bugungi kun tili bilan aytganda, bilish faoliyatining pedagogik o'ylangan va tashkil etilgan shaxslararo muloqot jarayoni bilan uzviy bog'liq jamoaviy shakllarini alohida ta'kidlaydi.

Abu ali ibn Sino haqida uning «Tib qonunlari», «Tibbiy o'gitlar», «Abu Ali ibn Sino tarjimai holi», Abu Bakr ar-Roziy, Abu Bakr ibn Jafar Narshaxiy, YU.Aruzmetov va K.YUldashev, I.Abdullaev asarlarida mukkamal ma'lumot va aniq sharhlar berilgan. Ibn Sino haqida juda ko'p olijanob fikrlar aytilgan. *«Men dunyoga Abu Ali ibn Sinodek buyuk insonni taqdim etgan qadimgi o'zbek yeriga ta'zim qilaman»*, - deb yozadi AQSH senatori Edvard Kennedi. Bu aytilgan iliq so'zlarning barchasi Ma'mun akademiyasiga borib taqaladi<sup>51</sup>.

Zamonasining mashhur olimi, tabib va axloqshunos **Ismoil Jurjoniyning «Zaxirayyo Xorazmshohiy» (Xorazmshoh xazinasi)** asarida ma'naviyatga oid qarashlari o'z aksini topgan. Olim ilmga intilish zarurligini ta'kidlab, hatto ilmga muhabbati bo'lgani uchun shohni qo'llab-quvvatlaydi. Uning fikricha, «bilim odainlarga Xorazmning iqlim sharoitiga moslashishiga yordam beradi. Bir tomondan, iqlimi yaxshi, parrandalari ko'p, uning go'shti shirinroq. Suvi – mashhur Jayxun suvi. Har bir dala, agar shu suv bilan yaxshi sug'orilsa, yuqori hosil beradi,

<sup>50</sup> Karimov U., S. Abu Ali ibn Sino. Tibbiy o'gitlar. T. Mehnat 1991 yil 5-bet.

Ta'lim muammolari jurnali. Ma'mun akademiyasining 1000 yilligiga bag'ishlangan maxsus soni, 2006. 1-son. – B. 68.

o'simlik dunyosi boy, ko'plab giyohlar dorivor. Xorazm havosidan nafas olgan, dorivor giyohlarini iste'mol qilgan kishi sog'lom bo'ladi, miyasi yaxshiroq ishlaydi. Buning uchun, albatta bilimga ega bo'lishi zarur. Boshqa tomondan, bu yerda issiq havoda mahsulotlar tez buziladi. ularni iste'mol qilish turli kasalliklarni keltirib chiqaradi. Sovuq paytlarda shamollash, tumov ko'p tarqaladi. Kasalliklarning oldini olish uchun Jurjoniy insonni ovqatdan o'zini tiyish, ichimliklarni iste'mol qilmaslik, jismonan va ma'nan ozoda bo'lish, o'ziga ishonchni suiste'mol qilmaslik, halol bo'lishni maslahat beradi. Tabiblar xasis bo'lmasligi kerak. O'z ishini yaxshi bilishi lozim. Zero, inson taqdiri ularga ishonib topshiriladi», deb uqtiradi<sup>52</sup>.

Bu ma'naviy sifatlarning uning barcha asarlariga singdirilgan. Shuning uchun ular shaxsning kasbiy hamda ma'naviy sifatlarni egallashlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Shoir va mashhur alloma **Muhammad Suxayliy (X asr)** ta'lim va tarbiya bilan bevosita shug'ullangan. uning asarlaridan keyingi avlodlar tarbiya topgan. Bu asarlar O'rta Osiyo va umuman, dunyo xalqlari madaniyati va maorifi rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Muhammad Suxayliyning ma'rifatchiligi – pedagogik fikr taraqqiyotidagi buyuk xizmati ham shunda. Allomaning ma'naviy-ma'rifiy sohalariga oid fikrlari bugun ham o'z tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotmagan.

Ma'mun akademiyasi haqidagi qimmatli ma'lumotlarni Abu Mansur Abdumalik ibn Muhammad ibn Ismoil as-Saolibiyning «Yatimat ad-dahr fi mahosin ahl al-asr», Abu Nasr al-Utbiyning «Tarix al-yamini», ibn al-Asirning «Kamil fi tarix», ibn Xoliqning «Vafaqat al-ayan», Kaxaliyning «Mujdai al-muallifin», Ali Muhammadning «Kunduz al-ajdod», Muhammad Mahdiy al-Basiriyning «Fi-l-adab al-abbasa» asarlari haqida zamondosh olimlarimizdan V.Al'vardita, K.Brokel'man, E.Videman, I.Y.Krachkovskiy, I.Abdullaev, S.Hasanov, F.Babashev tadqiqotlarida ma'lumot berilgan bo'lib, pedagogika tarixini o'qitishda talabalarning ma'naviy sifatlarni tarbiyalash maqsadida kengaytirgan holda foydalanish lozim.

Ijtimoiy-gumanitar turkumdagi fanlar bo'yicha buyuk qomusiy olim **Abu Mansur as-Saolibiy 961 yilda Nishopurda tug'ilgan**, shu yerda boshlang'ich ta'lim olgan. Allomaga amir va shoir Abul Fadl al-**Mikoliy homiylik** qilgan. Saolibiy savdo ishlari bilan ham shug'ullangan.

<sup>52</sup> Bayhaki Tatimat Sivan al-hikma SBR 1, №286/ 1448. – B.144.

Shu boisdan ko'p o'lkalarda bo'lish imkoniga ega edi. Chunonchi, 992-993 yillari Saolibiy Buxoroga keladi. Bu shaharda ham olimu fozillar davralarida bo'lib, ko'plab do'stlar orttiradi, mushoiralarda ishtirok etadi. Bir qancha vaqt o'tgach, alloma Xorazmga, ya'ni Ma'mun saroyiga yo'l oladi. Saolibiy o'zining Xorazmshoh saroyiga kelish sabablari, u yerdagi ijodi haqida quyidagilarni yozadi: «Kitobning («Yatimat ad-dahr» asarining) dastlabki uch bo'limini tugatgach, zamon (o'zgardi), hayotim turli to'siq va baxtsizliklarga duch keldi... Xorazmshoh Abul Abbas saroyida bo'lish muallifga (Saolibiyga) ijobiy ta'sir qildi, amirning fe'lidan ilhomlanib, qo'lyozmani uning kutubxonasiga loyiq holatga keltirdi»<sup>53</sup>.

As-Saolibiy o'zi yaratgan barcha asarlarida saxiylik, muruvvatlilik, bilimlilik, yaxshi xulq-atvor, shirinsuxanlik va suxandonlik xislatlarini ulug'laydi. Uning «Ajoyib ma'lumotlar» asarida turli toifadagi kishilarning fazilatlariga maxsus bob bag'ishlangan. Zino qilish, yolg'onchilik, hiylagarlik, baxillik, zolimlik kabi salbiy illatlarni qoralab, o'z fikrlarini misollar orqali tasdiqlaydi. Masalan, boshliqlarning ayblari haqida yozar ekan, Abu al-Aloning «Boshliq bo'lishlilikdan man qiladigan narsalarni faqat boshliqlardagina uchratganmiz, xolos. Bulardan birinchisi yoshlik: Abu Jaxl mo'ylabi chiqmay turib, qurayshlarga boshliq bo'ldi...» degan so'zlarini bayon etadi.

«Arab tilidan foydalanishda odob quyoshi» risolasi o'z nomi bilan odob-axloqqa doir yaratilgan asar. As-Saolibiy Xorazmshoh Ma'mun ibn Ma'munga bag'ishlangan «Metonimiyalar va imo-ishoralar» kitobida esa ayollar va oila, xizmatkorlar va boshqalarga ishlatiladigan, taomlarning ayrim turlariga ishlatiladigan metonimiyalar, pastkashlik va qabihlikka taaluqli, vaqt va ichimliklarga ishlatiladigan metonimiyalar, metonimiya va imo-ishoralar bilan bog'liq san'at turlari haqida fikr yuritadi.

«Notiqlik xislatlari va mukammal nutq sirlari» asarining mazmuni haqida Saolibiy kirish qismida «Kitobning ayrim qismlarida dunyodagi eng yorug' yulduzlar, eng yuksak fazilatlar sohiblari bo'lgan asrimiz notiqlarining nasriy (iboralarini) yig'dim, ularning ayrim qismlarini, she'rlarini «Yatimat ad-dahr» asarimda joylashtirgan amir-shoirilar

---

<sup>53</sup> Ta'lim muammolari jurnali. Ma'mun akademiyasining 1000 yilligiga bag'ishlangan maxsus soni, 2006. 1-son. – B. 25.



asarlaridan namunalar, mashqlar keltirdim», deydi<sup>54</sup>.

«Kanna al-kuttab» asarida esa, xat yozish va she'rlar bitish san'ati. salomlashish va hadya qilish san'ati. ta'ziya, bag'ishlov va ular bilan bog'liq udumlar, yaxshi xulq, tahsinlar va ular bilan bog'liq narsalar; uzr so'rash, hamdardlik bildirish, yordam so'rash, yaxshilik qilish, o'zgalarning hurmatini qozonish, salbiy xatti-harakatlarni ifodalash. maqollar, hikmatli so'zlar va axloq haqida, baxtsizlikdan qutilish, nomoz o'qish va boshqalar o'sha davr kishilariga qo'llanma bo'lish bilan birga hozirgi davrda ham yoshlarda ma'naviy sifatlarni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi<sup>55</sup>. Bundan tashqari «Kitob latif al-maorif (Ajoyib ma'lumotlar)» asarida ham insonga xos bo'lgan mehnatsevarlik, saxiylik, mehmondo'stlik xislatlari va davlatni boshqarish masalalarini yoritadi. Salbiy illatlar – zino, yolg'onchilik, hiylagarlik, baxillik, zolimlik kabilarni qoralab, ba'zi hukmdorlarning davlatni boshqarishdagi ijobiy xislatlarini tavsiflaydi.

Ma'mun akademiyasi olimlarining ma'naviy-ma'rifiy qarashlarida talaba-yoshlarning ma'naviy qiyofasi, sifatlari, aql va bilim, ijodkorlik, xulq-odob, muloqot. insoniy munosabatlar, tinimsiz mehnat va mehnatsevarlik. sog'lom turmush tarzi kabi ma'naviy sifatlarni ulug'lanib, bular inson va uning kamoloti, yuksak axloqiylik, bilimlilik, uning ko'p qirraligi va chuqurligi, sog'lom turmush tarzi, jismoniy salomatligi kabi masalalar yoritilgan. Mazkur akademiyada ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim, ustoz-shogird ta'limi muammolarini hal etishda munozara, bahs, suhbat, savol-javob metodlari ko'proq qo'llanilgan. Shuningdek, notiqlik san'atiga ham katta e'tibor berilgan. O'z ustida mustaqil ishlash, tadqiqotchilik va o'z fikrini isbotlash. mantiqiy fikrlash, nutq savodxonligi ham muhim sanalgan. Bu borada suhbat, ma'ruzalar, munozara, bahs, o'z fikrini isbotlash, maslahat, o'git, ishontirish asosida ma'naviy yuksaklikka intilishda namuna ko'rsatgan notiqlar bellashuvi kabi ta'limning shakl, uslub, usullari qo'llanilgan. Bular ibn Miskavayxning «Dunyo xalqlari tajribasi», «Abadiy aql», as-Saolibiyning «Qiziqarli xabarlar», «Metonimiya va mimika», «Nutq sirlari», «Mirzalar kitobi» va boshqa olimlarning ta'limiy-axloqiy asarlari orqali hayotga joriy etilgan.

<sup>54</sup> Абдуллаев И. Поэзия на арабском языке в Средней Азии и Хорасане X – начало XI века –Т.: Фан, 1984. – С. 18.

Babashev F. Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalarining ma'naviy-axloqiy qarashlari: P.f.n. diss. – T., 2000. – B. 93.

Gurganch haqida zamonasining mashhur sayyohi, geograf **Yoqut Hammaviy** «Men... bundan buyukroq, boyroq va ko'rkamroq shaharni ko'rmaganman...»<sup>56</sup>, deb yozgan edi. Ma'mun akademiyasi haqida so'z yuritganda, shuni ham aytish kerakki. hozirga qadar uning tarixi va faoliyati to'raligicha, chuqur ilmiy o'rganilmagan. Xolbuki, Ma'mun akademiyasi o'z zamonasining mashhur ilm-fan beshiklaridan biri edi. Nazarimizda bunga asosiy sabab mo'g'ullar (1218-1370) bosqini va rus imperiyasi istilosi yillarida olib borilgan mustamlakachilik siyosatining ta'siri va uning ma'naviy oqibatidan boshqa narsa emas.

Biz Ma'mun akademiyasining buyuk olimlari faoliyati haqida shuni ta'kidlamoqchimizki, IX-XII asrlarda arab istilosidan keyin shunday ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, g'oyaviy – axloqiy shart-sharoitlar yuzaga keldiki, bular Ma'mun akademiyasi olimlariga o'z qobiliyatini namoyon etish, jahon ilm-fani, sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shish imkonini beradigan ilmiy markazlar yaratilishiga asos bo'ldi. Ma'mun akademiyasi olimlarining ma'naviy-ma'rifiy qarashlari bugungi yoshlar tarbiyasi uchun qimmatli bo'lganligi uchun ham «Pedagogika tarixi» kursi mazmuniga ushbu qarashlarni singdirishga harakat qildik. Ma'mun akademiyasi allomalari inson uchun bilish – oliy baxt, deb hisoblaganlar. Zero, unga aql-idrok berilgan.


Demak, chinakam inson shaxsiy va ijtimoiy hayotini aql va adolat talablariga muvofiq qurmog'i lozim. Ular tinchlik va xalqlar o'rtasidagi do'stlik tarafdori bo'lganlar, urush oqibatida fan va madaniyat zavol topishiga qarshi turganlar, o'z asarlarida ijtimoiy taraqqiyot negizi madaniyatlar va ilm-fanning birlashuvi ekanini isbotlaganlar. Inson tabiatining barcha salbiy qirralarini qoralab, ezgulik, saxovat, olijanoblikni ulug'laganlar. Demak, mutafakkirlar insonning ma'naviy xatti-harakatlari va axloqni uning o'zidan izlaganlar.

**Tayanch tushunchalar:** Ma'mun akademiyasi, Beruniy, Ibn Sino, Iloqiy, Jurjoniy, tibbiyot, tarjima, Bag'dod akademiyasi, Al-Xorazmiy, Javxariy, falsafa, axloqshunoslik.

---

<sup>56</sup> Ta'lim muammolari jurnali. Ma'mun akademiyasining 1000 yilligiga bag'ishlangan maxsus soni, 2006. 1-son. – B. 48.

## Interfaol metodlar (Klaster usuli)



## Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

### Ma'mun akademiyasi olimlarining ma'rifiy qarashlari orqali talabalarning ma'naviy siftlarini tarbiyalash mavzusi yuzasidan

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Xorazm Ma'mun akademiyasini tiklash» to'g'risidagi Farmoni nechanchi yil qaysi oyda belgilab berildi?

- A. 1998 yil noyabr
- B. 1997 yil noyabr \*
- C. 1998 dekabr.
- D. a va s.

2. Ma'mun akademiyasi Xorazmdan oldinroq qayerda tashkil topgan edi?

- A. Buxoroda
- B. Bag'dodda. \*
- C. Xurosonda.
- D. Eronda.

3. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo madaniyati rivojlandi o'sha davrda qaysi qomusiy olimlar dunyoga keldi?

- A. Al Farg'oniy, Fitrat, Behbudiy, Cho'lpon, Xorazmiy.
- B. Xorazmiy, Beruniy, Forobiy, Farg'oniy, Ibn Sino, Zamaxshariy, Marvoziy, Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib, Iloqiy, Javhariy. \*
- C. Buxoriy, Marvaziy, Javhariy, Xorazmiy.
- D. to'g'ri javob berilmagan.

4. Sharq uyg'onish davrida tashkil etilgan birinchi akademiya.

- A. «Bobolar merosi» akademiyasi
- B. «Baytul - hikma». \*
- C. Islom madaniyati.
- D. a va s.

5. Sharq uyg'onish davrining birinchi yo'nalishi IX-XII asrgacha davom etgan, bu yo'nalish necha etapga bo'lib o'rganilgan?

- A. 1 etapda bo'lgan «Sharq uyg'onish davri madaniyati».
- B. 2 etapga bo'lib o'rganilgan. 1-Ma'mun akademiyalariga asos

solgan olimlar Bag‘dod va Xorazmda (IX-X asrgacha). 2-XI-XII asrgacha (Zamaxshariy, Koykovus, Yugnakiy, Yusuf Xos Hojiblarning pedagogik merosi). \*

C. to‘g‘ri javob berilmagan.

D. a va b.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Ma‘mun akademiyasida faoliyat olib borgan olimlar haqida nimalar bilasiz? Yozma ravishda bayon eting.

2. Abu Nasr ibn Iroq haqida qanday ma‘lumotga ega bo‘ldingiz?

3. Abu Sahl – Masihiy ma‘naviy tarbiyaga oid qanday fikrlarni ilgari suradi. Izohlang. Konspektlashtiring.

4. Abu Abdulloh Ilohiy asarlari G‘arbda Ibn Sino bilan turli mamlakatlar olimlari tomonidan XV asrga qadar sharhlanib, izohlab kelinganligining boisi nimada?

5. Olimning tarjimai holi haqida nima bilasiz?

6. Abu Sodiq Mutabib qanday olim bo‘lgan? Izohlab bering.

7. Abulxayr ibn Hammor Ma‘mun akademiyasining eng obro‘li olimlaridan biri bo‘lgan? Sizning fikringiz? Izohlab bering.

8. Abu Muhammad Xidr al-Xo‘jandiy akademiyadan qaysi fan bilan shug‘ullanishgan? Konspektlashtiring.

9. «Mafotik al-ulum» (Ilmlar kaliti) asarining muallifi haqida qanday ma‘lumotlarga ega bo‘ldingiz? Izohlab bering.

10. Muso al-Xorazmiy 783-850 yillarda Bag‘doddagi Ma‘mun akademiyasida qanday ishlarni amalga oshirdi.

11. Bag‘dod akademiyasida faoliyat olib borgan Sharq olimlaridan yana kimlarni bilasiz?

12. A.R.Beruniy Xorazm Ma‘mun akademiyasini boshqarganda unga yordamchi, vazir vazifasini boshqargan olim kim bo‘lgan?

13. Bolani sabr bilan tarbiyalashni Ibn Sino qanday ta‘riflaydi.

14. Siz Ma‘mun akademiyasi faoliyatiga oid yana qanday manbalar bilan tanishdingiz? Konspektlashtiring.

15. Xorazm Ma‘mun akademiyasi faoliyatining bugungi kundagi ishlari haqida fikr yuriting.

Internet orqali Xorazm Ma‘mun akademiyasi faoliyati bilan tanishib chiqing va konspekt tuzing. E-mail: [mamun@uzssi.net](mailto:mamun@uzssi.net). Veb.

### **Tavsiya etiladigan manbalar**

1. Ta'lim muammolari jurnali. Ma'mun akademiyasi 1000 yilligiga bag'ishlangan maxsus soni. 2006 yil 1-son.
  2. F.Babashev. Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalarining ma'naviy-axloqiy qarashlari. P.f.n. ... diss. –T., 2000. -145-bet.
  3. A.Bahodirov. Abu Abdulloh al-Xorazmiy va ilmlar tasnifi tarixidan. –T.: O'zbekiston, 1995. -142 b.
  4. K.Hoshimov, S.Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi 1-jild. –T.: O'qituvchi, 1995. -458-bet.
  5. Ma'naviyat yulduzlari / M.Xayrullaev tahriri. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1999. -400-bet.
  6. S.Hasanov. Xorazm ma'naviyat darg'alari. –T.: Adolat, 2001. -208-bet.
  7. Karimov U. Karimova S. Abu Ali ibn Sino. Tibbiy o'gitlar. –T.: Mehnat, 1991. -186-bet.
  8. Bayxaki Tatimat Sivon al-Hikma SVR 1, № 286 / 1448.
  9. I.Abdullaev. Poeziya na arabskom yazike v Sredney Azii i Xorasane X – nachala XI v. –T.: Fan, 1984. -294-str.
- Ma'mun akademiyasining bugungi faoliyati haqida Internat sayti.  
E-mail: [mamun@uzssi.net](mailto:mamun@uzssi.net). Veb.sahifa: mamun.fan.uz.

### **2. 3. Sharq mutafakkirlari pedagogik ta'limotida talabalarining ma'naviy sifatlarini rivojlantirishning istiqbolli rejaları shakl va uslublari**

Ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladigan xalqimizning ma'naviy qadriyatlari azaldan umuminsoniy g'oyalar bilan uyg'unlashib ketgan. Bugungi kunda ma'naviyat tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi har bir mutaxassisning vazifasi ajdodlarimiz asrlar mobaynida yaratgan ma'naviy merosni o'sib kelayotgan avlod, butun xalqimiz mulkiga aylantirishdan iborat, toki bu meros o'zbek xalqining farovonligi, yuksak ma'naviyati, davlatimiz qudratini oshirishga xizmat qilsin.

Burch, qadr-qimmat, vijdon, adolat, poklik va shu kabi tushunchalar

xalqda qadimdan ma'naviy-axloqiy me'yorlar sifatida faylasuflar, mutafakkirlar, pedagoglar e'tiborini jalb etib kelgan. Bu sohalariga bag'ishlangan ishlarni tadqiqotchi A.J.Muratbaeva<sup>57</sup> uch guruhga bo'ladi. Birinchi guruhga muallif al-Buxoriy, at-Termiziy, al-G'azzoliy, Ahmad Yassaviy va boshqalarning asarlarini kiritadi. Ular inson abadiyligi uning yaxshi nomi, ezgu amalida deb ko'rsatadi. Shu sababli ma'naviyat mezonlariga bo'ysunib, insonni ezgulik va muruvvatga chorlaydi.

Ikkinchi guruhga Suqrot, Arastu, Diogen, Mork, Avreliy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Abay Qo'nanboyev, K.Rerix, N.Rerix, I.Kant kabilarning asarlarini kiritadi. Bu mutafakkirlar ma'naviy tushunchalarni insonning ma'naviy sifatlarini jihatidan yoritadilar. Bu sifatlar insonlarning o'zaro munosabatlarida yaxshilik, halollik, adolat, mehr-shafqat, o'zaro yordam kabilarni tushunishga ko'maklashadi. Masalan, Forobiyning ta'kidlashicha, «o'zida o'n ikki tug'ma xislatni birlashtirgan kishigina ma'naviy axloqli odam bo'la oladi»<sup>58</sup>.

A.J.Muratbayeva uchinchi guruhga zamonaviy tadqiqotchilar asarlarini kiritadi, ularda ma'naviy-axloqiy sifatlar boshqa umuminsoniy qadriyatlar bilan aloqada, insonlar faoliyatida yaxshilik va yomonlikni baholashda namoyon bo'lishini ta'kidlaydi.

I.Abdullayev, X.Aliqulov, O.Aleuov, M.S.Imomnazarov, J.Tulenov, M.M.Xayrullayev, E.Yusupovlarning fikrlariga tayangan holda, tadqiqotchi inson o'zining oliy maqsadiga erishish hamda tinch va farovon yashashni istar ekan, u ma'naviy-axloqiy me'yorlarga muvofiq ish ko'radi, deydi.

O'qituvchi o'tmish va buyuk olimlarning boy pedagogik merosi ulkan manba ekanligini, uni faqat pedagogika bo'yicha ma'ruzalarda to'laligicha o'rganish va o'zlashtirish mumkin emasligini, talabalar mustaqil ishlash jarayonida bu boradagi bilimlarini yanada boyitishlari mumkin va lozim ekanligini uqtiradi va dalillar bilan asoslaydi.

Shuningdek, o'qituvchi O'rta asrlar qomusiy olimlarining pedagogik merosini yanada keng yoritish maqsadida maxsus kurs va

<sup>57</sup> Муратбоева А. Ж. Нравственные ценности народа и их значение в духовном возрождении Узбекистана: Автореф. дисс. канд. пед. наук. – Т., 2000.

<sup>58</sup> Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. Tuzuvchi M.Mahmudov. –T.: Xalq merosi, 1993. – B. 186.

seminarlar, fakultativ mashg'ulotlar o'tkazishi ham mumkin.

Talabalar uchun o'tkaziladigan maxsus kurs va maxsus seminarlarda Ma'mun akademiyasida faoliyat ko'rsatgan qomusiy olimlarning pedagogik merosi va ma'naviy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishning shakl va uslublari belgilab olinadi va kerakli manbalar tavsiya etiladi.

Ma'ruza oliy ta'lim muassasalarida ta'limning asosiy shakli hisoblanadi, har bir ma'ruza talabalarga tayyor ilmiy axborotlar beradi, ularni zarur nazariy bilimlar tizimi bilan qurollantiradi, o'rganilayotgan masalaga qiziqishni orttiradi. Biroq o'qituvchining bilimlari qanchalik keng va chuqur, pedagogik mahorati qanchalik yuksak bo'lmasin, u qaysi texnik axborot va kommunikativ vositalardan foydalanmasin, ma'ruza doirasidagina o'z oldida turgan vazifalarni muvafaqqiyatli hal eta olmaydi.

Ma'ruzada o'qituvchi asosiy bilimlarni ma'lum qiladi, talaba esa (o'z qobiliyati, malakasi darajasida) ma'lumotlarni tinglaydi, qabul qiladi.

Talabalarni «Avesto»da bayon qilingan pedagogik fikr va g'oyalar, Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti hamda Ma'mun akademiyasi olimlari-Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr ibn Iroq, Abu Sahl Masihiy, Abulxayr ibn Hammor, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Miskavayx, Abu Mansur as-Saolibiy kabilarning ma'naviy sifatlariga oid qarashlari bilan tanishtirishga bag'ishlangan maxsus kurs va maxsus seminar dasturlari va tezkor o'yin dars mashg'ulotlari ishlab chiqildi.

Maxsus kurs o'qituvchilari uchun quyidagi uslubiy tavsiyalarni havola qilamiz:

Ma'mun akademiyasi olimlari Abulxayr ibn Hammor, Abu Nasr ibn Iroq, ibn Sino, Beruniy, Abu Sahl Masihiy, Abu Ali ibn Miskavayx, Abu Mansur as-Saolibiy, Abu Abdulloh Iloqiy (vaf.1068), Muhammad ibn Xidr al-Xo'jandiy (XI asr), al-Muttatabib (X-XI asr). Abul Hakim al-Qosiy (X-XI asr), al-Xorazmiy (XI asr) va boshqalar hayoti, ilmiy faoliyati va pedagogik g'oyalarini o'rganishga bag'ishlangan mashg'ulotlarda:

- ularning hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar;
- ilmiy faoliyatidagi asosiy yo'nalishlar;
- ular yozgan va bizgacha yetib kelgan asarlari;
- pedagogik fikr va g'oyalarining o'ziga xosligi;



- ular qo‘llagan ma‘naviy tushunchalar;
- mutafakkirlar ilg‘or fikr va g‘oyalarning bugungi kunda oliy ta‘lim muassasalarida pedagogika tarixini o‘qitish, talabalarning ma‘naviy sifatlarini tarbiyalashdagi ahamiyati haqida ma‘lumot berish kerak.

### **1- mashg‘ulot**

Birinchi mashg‘ulotda o‘qituvchi maxsus kursning vazifalari, ish uslublarini yoritadi, uning zarurligi, ahamiyatini asoslab beradi, Ma‘mun akademiyasi qomusiy olimlarining pedagogik merosi talabalarning kasbiy, shaxsiy va ma‘naviy sifatlarning tarbiyalashdagi ta‘siri haqida to‘xtaladi.

Bundan tashqari, allomalarning hayoti, ilmiy faoliyati, pedagogika va ma‘naviyatga oid g‘oyalarga hamda badiiy adabiyotlar, sahna asarlari, boshqa materiallar bilan tanishtiradi, ma‘ruza va maxsus adabiyotlardan qaydlar va ko‘chirmalar olishga oid maslahatlar beradi.

### **2-mashg‘ulot**

O‘rta asrda Sharq mamlakatlarida ilm-fan va madaniyatning jadal rivojlanish omillari bayon qilinadi.

### **3-mashg‘ulot**

O‘qituvchi talabalarni zardushtiylik va uning muqaddas kitobi-qadimgi yozma madaniy yodgorlik «Avesto», undagi pedagogik qarashlar, insonning ma‘naviy tarbiyasiga oid g‘oyalar. ular qo‘llagan ma‘naviy sifatlar bilan tanishtiradi. Bu g‘oya va qarashlarning bugungi kundagi ahamiyatiga to‘xtaladi.

### **4-mashg‘ulot**

Abu Abdulloh ibn Yusuf al-Xorazmiyning hayot yo‘li, uning ilmiy faoliyati, asarlari, matematika fani rivojlanishida tutgan o‘rni, yoshlarning ma‘naviy tarbiyasiga oid pedagogik fikr va g‘oyalari bilan tanishtiriladi.

### **5-mashg‘ulot**

Abu Rayhon Beruniyning hayoti va ilmiy faoliyati. Tabiiy va pedagogika hamda ijtimoiy fanlar rivojiga qo‘shgan hissasi. Beruniyning tabiatga, fan asoslarini empirik o‘rganishga munosabati, yoshlarda ma‘naviy sifatlarning rivojlanishi, uning ma‘naviy fazilatlarini

shakllanishida bosh omil – mehnat ekanligi haqidagi fikrlari. Ma'mun akademiyasining asoschisi sifatidagi faoliyati.

### **6-mashg'ulot**

Abu Ali ibn Sinoning hayoti va faoliyati. Ilmiy faoliyati. Tabobat ilmi rivojidadagi beqiyos xizmatlari.

Inson faoliyatida aqliy, jismoniy, ma'naviy va mehnat tarbiyasi birligi haqidagi qarashlari, shaxsning shakllanishida yosh xususiyatlari va boshqa omillarning ta'siri haqidagi fikrlari.

### **7-mashg'ulot**

Ma'mun akademiyasi. Uning tashkil topish tarixi, akademiyada faoliyat ko'rsatgan olimlar. Ularning buyuk kashfiyotlari.

Akademiya a'zolarining pedagogika fani rivojiga qo'shgan hissasi. Ularning ma'naviy tarbiya, talabalarning shaxsiy-ma'naviy sifatlarni tarbiyalashga xizmat qiladigan fikrlari, bugungi kundagi ahamiyati.

### **8-mashg'ulot**

O'qituvchi o'z ma'ruzasida umumlashtiruvchi xulosalar qilib, Ma'mun akademiyasi olimlarining din va ilm-fanga oid asosiy pedagogik qarashlari; insonning tabiat va jamiyatdagi o'rni, tarbiyaning maqsad va vazifalari, uning tarkibiy qismlari (aqliy, jismoniy, ma'naviy, estetik va mehnat tarbiyasi), ta'lim va tarbiya jarayoni mazmuni, mohiyati, didaktik tamoyillari, shakl va uslublari, ularning gnoseologik talqini, o'qituvchiga, uning shaxsiga qo'yiladigan talablar, oila tarbiyasi masalalari xususida to'xtaladi.

Qomusiy olimlar pedagogik merosining alohida qimmati, talabalarning kasbiy va ma'naviy tayyorgarligida ulkan imkoniyatlar mavjudligi haqida so'z yuritiladi.

O'tmish allomalarining pedagogik fikr va g'oyalarini bilish va yuqori baholashgina emas, balki ularni ijodiy qo'llay olish ko'nikma va malakalarini egallash zarurligi ham uqtiriladi. Yakuniy mashg'ulotda mavzuga doir konferensiya darsi o'tkazish ham mumkin. Konferensiya darsini «Hozirgi zamon talaba-yoshlarining ma'naviy sifatlari: u qanday bo'lishi kerak» mavzusida o'tkazish maqsadga muvofiq. Konferensiyaga tayyorlanishda, albatta, Sharq mutafakkirlarining talabalar ma'naviy

sifatlarini tarbiyalashga xizmat qiladigan fikr va g'oyalari bilan birga hozirgi davrda yoshlar egallashi zarur bo'lgan xislatlar uyg'unlashadi.

Mashg'ulotlar oxirida o'tkaziladigan o'quv viktorinasi talabalarning fanga doir qiziqishini uyg'otadi. U quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi:

1. Qadimgi yozma yodgorlik «Avesto»da keltirilgan ma'naviy tamoyillar haqida nimalarni bilasiz?

2. O'rta asrlarda Sharqda ilm-fan va madaniyatning jadal rivojlanishida asosiy omillar nimalardan iborat edi?

3. Ma'mun akademiyasi olimlaridan kimlarni bilasiz? Nima sababdan ularni qomusiy olimlar deymiz?

4. Abu Rayhon Beruniyning hayoti va ma'naviy qarashlari haqida nimalarni bilasiz? Uning ustozlari kimlar?

5. Ibn Sinoning hayoti va ilmiy faoliyati. Uning qaysi pedagogik fikr va g'oyalari Sizningcha, alohida qimmatga ega?

6. Sharq qomusiy olimlarining pedagogik qarashlaridagi qaysi asosiy yo'nalishlar Ma'mun akademiyasidagi olimlar faoliyati yo'nalishlariga to'g'ri keladi?

7. Ma'mun akademiyasida faoliyat yuritgan olimlarning ma'naviy tarbiyaga oid fikrlari haqida nimalarni bilasiz?

8. Ma'naviyatlilik mezonlari nimalardan iborat?

9. Sharq mutafakkirlarining pedagogik g'oyalarini keyingi avlod olimlaridan kimlar rivojlantirdi?

10. Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqa allomalarning pedagogik merosi bilan tanishish Sizga nimalar berdi? Kelajakdagi pedagogik faoliyatingizda undan qanday foydalanmoqchisiz?

Viktorina so'nggida hakamlar hay'ati (talabalar) qarori e'lon qilinadi va g'oliblarga estalik sovg'alari topshiriladi.

Bundan tashqari, «Ma'mun akademiyasi olimlarining talabalar ma'naviy sifatlarini tarbiyalash va pedagogika fani rivojlanishida tutgan o'rni» mavzusidagi maxsus seminar ham pedagogika tarixini o'qitishda talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalashda ijobiy natijalar berdi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ldiki, Ma'mun akademiyasi olimlarining talabalarni ma'naviy sifatlarini tarbiyalashga oid ilg'or qarashlari bugungi kunda ham yuksak qimmatga ega.

Ma'mun akademiyasi olimlarining pedagogik merosini o'rganish talabalariga turli davr olimlarining insonning jamiyatdagi o'rni, tarbiya,

ayniqsa, ma'naviy tarbiyaning maqsadi va vazifalari, tarkibiy qismlari, talaba-yoshlarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlanishiga ta'sir etadigan omillar, o'qituvchi shaxsiga talablar, oiladagi tarbiya va boshqa masalalarga qarashlarini kuzatish imkonini beradi.

Biroq bu merosni shunchaki bilishning o'zi kifoya qilmaydi, undan foydalana olish, pedagogik faoliyatda uni qo'llashning yo'llari va uslublarini aniqlash lozim.

Bu borada «Pedagogika tarixi» kursidan «Sharq mutafakkirlarining talabalar ma'naviy sifatlarini tarbiyalashga doir qarashlari»ga oid yaratilayotgan o'quv qo'llanma muhim ahamiyat kasb etdi. Maqsad:

1. Talabalarning Sharq mutafakkirlari pedagogik merosi haqidagi bilimlarini kengaytirish va umumlashtirish.

2. Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarining ma'naviy sifatlarini tarbiyalashdagi asosiy yo'nalishlarini aniqlash va tasniflash.

3. Talabalarni bugungi kunda dolzarb bo'lgan ma'naviy sifatlarini tarbiyalash haqidagi pedagogik fikr va g'oyalarini ijodiy o'zlashtirish, kelgusi faoliyatida ulardan foydalanishga yo'naltirish.

Pedagogika tarixi kursining asosiy ish shakli dars, asosiy uslublari-talabalar ma'ruzasini tinglash va muhokama qilish. mustaqil ish davomida o'rgangan falsafiy, tarixiy, pedagogik bilimlarini umumlashtirishdan iborat.

Pedagogika tarixi o'quv qo'llanmasining vazifalari, uslublari va kutilayotgan natijalar talabalarga ilmiy-amaliy anjumanida ishtirok etish imkoniyatini yaratadi.

Talabalarga mustaqil holda ma'ruza uchun mavzu tanlashga imkon beriladi. Ma'ruzaga, uning mazmuni yuzasidan chiqishlarga, ma'ruzalarni kichik hajmdagi referat tarzida rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar bilan tanishtiriladi. Adabiyotlar ro'yxati tavsiya etiladi.

Dastlabki mashg'ulotlarda talabalar O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» bo'yicha ma'naviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirish masalalariga oid ikkita ma'ruzani tinglash va muhokama qilish vazifasi qo'yiladi. So'ng amaliy seminar mashg'ulotlarida ko'riladigan masalalar mazmuni bilan tanishtiriladi.

Birinchi mashg'ulotda o'rta asrlarda Ma'mun akademiyasi olimlarining ilm-fan va madaniyatning jadal rivojlanishiga tarixiy

omillarning ko'rsatgan ta'siri yoritiladi: Xorazmiy, ibn Sino, Beruniyning yoshlarni ma'naviy sifatlarini tarbiyalashga doir fikrlarining asosiy yo'nalishlariga tavsiflab beriladi.

Ikkinchi mashg'ulot. Ma'mun akademiyasi olimlari ijodida talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalashga ta'sir etuvchi omillar: ma'naviy tarbiya va ma'naviy sifatlar haqidagi mavzularga bag'ishlanadi (zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy etiladi).

Uchinchi mashg'ulotda esa talabalarni zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da ma'naviy sifatlarini tarbiyalash masalalari mavzusidagi ma'ruzalari tinglanadi va muhokama qilinadi (zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy etiladi).

To'rtinchi mashg'ulot talabalarning «Yaqin va O'rta Sharq allomalarning yoshlar ma'naviy sifatlarini tarbiyalash shakl va usullari to'g'risida» mavzusidagi ma'ruzalarining muhokamasiga bag'ishlanadi.

Beshinchi mashg'ulotda talabalarning «Ma'mun akademiyasi allomalari ma'naviy tarbiya haqida» mavzusidagi ma'ruzalari muhokama qilinadi.

Talabalar o'zaro taqriz qilish uchun referatlar almashadi, hamma: to'ldirish uchun so'rovnoma tarqatiladi.

«Pedagogika tarixi» darslarida talabalarga singdirilgan ma'naviy-axloqiy sifatlar ularning borliqqa munosabati, xulq-atvorining me'yori bo'lib xizmat qila oladi. Ma'naviy sifatlar aql, adolat, mas'uliyat, o'zaro yordam, mehr-shafqat kabi xulq-odob me'yorlari bilan uzviy bog'liq. Talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalashda «Pedagogika tarixi» darslari, kurs doirasida tashkil etiladigan seminar mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Biz quyida Avesto va Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti hamda Ma'mun akademiyasi olimlarining asarlari asosida tashkil etilgan seminar mashg'ulotlari haqida fikr yuritimiz. Kurs doirasidagi dastlabki 1-seminar mashg'uloti «**Eng qadimgi ma'rifiy yodgorliklarda ta'lim-tarbiya (VII asrgacha)**» deb nomlanadi. Mazkur mashg'ulot quyidagi tartibda tashkil etildi.

## **Eng qadimgi ma'rifiy yodgorliklarda ta'lim-tarbiya (VII asrgacha)**

### **Reja:**

1. *Eng qadimgi davrlarda ta'lim-tarbiyaning kelib*

*chiqishi. Ibtidoiy odamlar hayotida ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari.*

2. *Qadimgi davlatlar So'g'diyona, Baqtriya, Xorazmda ta'lim-tarbiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi.*

3. *«Avesto» – Zardushtiylik ta'limotining muqaddas kitobi.*

4. *Xalq og'zaki ijodida ta'lim-tarbiya mazmuni va usullarining ifodalanishi.*

Ushbu reja asosida talabalar quyidagi ma'lumotlarni to'plashlari lozim. O'rta Osiyoda yashayotgan tub xalqlarning ajdodlari shu o'lkada bundan bir necha ming yillar oldin yashagan bo'lib, ular o'ziga xos madaniyat va ma'rifatning dastlabki kurtaklarini vujudga keltirishgan. Dastlabki tosh qurollaridan tirikchilik uchun foydalanishdan ancha takomillashgan mehnat qurollari yasashgacha, undan urug'chilik, qabilachilik davrlariga kelib, xo'jalik va madaniy taraqqiyotda erishilgan yutuqlargacha ega bo'lganligini tarixdan bilamiz. Eramizning birinchi ming yilliklarida Baqtriya, Xorazm, So'g'diyona, Marg'iyona va Parkana kabi o'lkalarda turli qabila va elatlar yashagan. Mazkur elatlar va qabilalar hozirgi O'rta Osiyo hududidagi xalqlarning ajdodlari bo'lib hisoblanadi.

Turkiy va forsiy zabon xalqlarning hayoti, ma'naviy madaniyat yodgorliklari qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning «Tarix», Strabonning «Geografiya» asari Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk» asari va O'rxun Enisey bitiklari kabi adabiy-tarixiy, pedagogik manbalarda o'z ifodasini topgan va shular orqali bizgacha yetib kelgan bo'lib, uzoq yillar davomida yosh avlod ma'naviy sifatlarini tarbiyalashga ko'maklashgan.

Eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalariga kelib *oromiy yozuvi*, Aleksandr Makedonskiy istilosidan so'ng esa *yunon yozuvi* va shu bilan birga *forsiy mixxat* ham ma'lum vaqtlarda qo'llanib kelingan. Bu yozuvlar esa ta'lim-tarbiyaning dastlabki kurtaklariga zamin bo'lib, inson axloqiy tafakkurini rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga eng qadimgi yozuvlardan ham oldinroq paydo bo'lgan xalq pedagogikasi ham o'z milliy asoslariga ko'ra ta'lim-tarbiyaning rivojiga hissa qo'shib boradi.

Insoniyat taraqqiyotida avloddan-avlodga ko'chib, tarix sinovlaridan o'tib kelayotgan umuminsoniy va ma'naviy-madaniy

qadriyatlar, milliy an'analar, axloqiy omillar va urf-odatlar xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'lib, xalqimizning ma'naviy-madaniy tafakkurini yuksaltirishga hissa qo'shgan boyligidir.

Berilgan ma'lumotlar asosida talabalar quyidagilarni bilishlari lozim.

1. Miloddan oldin V asr boshlarida Xorazmda Ma'mun akademiyasi - «Donolar uyi» tashkil qilingan.

2. Akademiyaga to'plangan Sobit ibn Kurra, Kusto ibn Lukka, Yax'ya ibn Adiy, Ishaq al-Damashqiy kabi olimlar ilm-fan rivojida qilgan xizmatlari, ilmi adab, axloqiy masalalarga doir chet el asarlarini arab tiliga tarjima qilganliklari bilan O'rta Osiyo madaniyati rivojiga ham hissa qo'shganlar.

3. Eng mo'tabar qadimgi qo'lyozma «Avesto»ni yaratilganiga 3000 yil bo'layapti. «Avesto» zardushtiylikning muqaddas kitobi. U nafaqat diniy kitob, balki ijtimoiy falsafiy, madaniy, adabiy-tarixiy qimmatga ega bo'lgan yodgorlikdir.

«Avesto» Vishtaspning farmoniga ko'ra 1200 bobdan iborat qilib, oltin taxtaga yozdirib qo'yilgan. «Avesto»ning kitob holdagi matni 12 ming oshlangan mol terisiga oltin harflar bilan bitilgan.

«Avesto»ning eng qadimgi nusxasi 1324 yilda ko'chirilgan bo'lib, Kopengagen kutubxonasida saqlanadi.

Talabalar «Avesto»da ifodalangan ma'naviy-axloqiy qarashlarni ajrata olishlari kerak.

**Ikkinchi seminar mashg'uloti mavzusi «Sharq uyg'onish davri va unda ta'lim-tarbiya masalalari (IX–XIII asrlar)» tarzida belgilanib, u quyidagi reja asosida o'tkazildi.**

### **Reja:**

1. *Sharq uyg'onish davri va unda ilm-fan rivojlanishi yo'nalishlari.*

2. *Ma'mun akademiyasi olimlarining ma'naviy-axloqiy qarashlari.*

3. *Ma'mun akademiyasi olimlari ma'naviy-axloqiy qarashlarining inson tarbiyasidagi ahamiyati va ularning talabalar ma'naviy sifatlarini tarbiyalash imkoniyatlari.*

4. *Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.*

Islom dinining yoyilishi, markazlashgan Arab Xalifaligidagi ilm-fan taraqqiyotida, ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish Movarounnahr va Xurosonda IX asrga kelib, ma'naviy ko'tarilish, Uyg'onish davrini boshlab berdi.

Al-Ma'mun tomonidan tashkil etilgan «Bayt ul-hikma» («Donishmandlar uyi») – akademiya barcha ilm sohiblari to'plangan markazga aylandi va Sharqda ilm-fanning taraqqiy etishi, ma'naviy hayot yuksalishiga ta'sir etdi.

Butun Sharqda bo'lgani kabi Movarounnahrda ham ilm-fan va ma'rifat sohasida mashhur bo'lgan faylasuf va munajjimlar, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy meros bilan nom qoldirgan al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar yetishib chiqdi.

**Eslab qoling!** «Bayt ul-hikma» olimlari orasida Markaziy Osiyolik Ahmad Farg'oniy, Muhammad Xorazmiy, Abbos Ibn Said Javhariy, Ahmad Ibn Markaziy kabilar ham bo'lgan.

«Bayt ul-hikma» olimlari orasida hamyurtimiz Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy alohida mavqega ega bo'lgan. Ahmad Farg'oniy uning taklifi bilan 815 yilda yozib tugatgan astronomiyaga oid asarini muhokamaga qo'yadi, ilmiy jamoa unga yuqori baho beradi. Oqibat natijada, yosh olim Ahmad Farg'oniy bu nufuzli maskanning haqiqiy a'zosi etib qabul qilinadi. Xorazmiy vafotidan so'ng Ahmad Farg'oniy bu jamoaning yetakchi allomalaridan biriga aylanadi, uning dovrug'i butun O'rta va Yaqin Sharqqa yoyiladi.

Biz har bir dars mashg'ulotini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida olib borishga undashimiz lozim.

#### **Mavzu bo'yicha mustaqil tayyorlanadigan savollar:**

1. IX–X asrlarda ilm-fanning yuksalishi.
2. «Bayt ul hikma» va uning ilm-fan rivojidadagi ahamiyati.
3. IX–X asrlarda pedagogik fikr taraqqiyoti va uning asosiy yo'nalishlari.

«Bayt ul hikma» olimlarining Xorazm Ma'mun akademiyasi shakllanishiga ko'rsatgan ta'siri.



### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. A.Zunnunov va boshqalar. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar.-Toshkent.: Fan, 1996 yil.
2. K.Hoshimov boshqalar. Pedagogika tarixi (ma'ruzalar matni) 1-jild. Toshkent, 2001 yil.
3. H.Boboyev va boshqalar. Milliy istiqlol mafkurasi va taraqqiyot.-Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2001 yil.

Navbatdagi seminar mavzusi «**Abu Ali ibn Sinoning ma'naviy ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari**» deb nomlanadi. Bu seminar mashg'uloti quyidagi reja asosida tashkil etiladi.

### **Reja:**

1. *Abu Ali ibn Sino o'rta asrlarda yashab o'tgan qomusiy olimdir.*
2. *Abu Ali Ibn Sino ta'limotida ma'naviy ta'lim-tarbiya usullari, shakl va uslublari.*
3. *Ibn Sino bola tarbiyasi haqida.*
4. *Ibn Sino pedagogik qarashlarining bugungi kunda talabalar ma'naviy sifatlarini tarbiyalashdagi ahamiyati.*

Abu Ali ibn Sinoning fan va madaniyat taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissasi uchun ham Sharqda xalq unga «Shayx ur-ra'is» («Olimlar boshlig'i»), Yevropada «Olimlar podshosi» degan hurmatli unvon beradilar.

Ibn Sino 980 yilda Buxoro shahriga yaqin Afshona qishlog'ida kichik amaldor oilasida tug'ilgan.

IX asrning oxiri X asr boshlariga kelib, o'lkada ijtimoiy-siyosiy vaziyat murakkablashadi, Qoraxoniylar Somoniylar davlatini bosib oladi. Shu tufayli Ibn Sino Xorazmga - Gurganchga ko'chib o'tadi. Xorazmda u bir qator olimlar bilan hamkorlikda Abu Rayhon Beruniy boshqarayotgan «Ma'mun akademiyasi» da ilmiy ish bilan shug'ullana boshlaydi.

**Buni yodda saqlang!**

Ibn Sino umrining so'nggi yillarida Gurganch, Ray va Hamadonda yashaydi. U 1037 yil oxirida Isfahonda vafot etadi.

Ibn Sinoning odob-axloq va insonparvarlik haqidagi ta'limoti katta ilmiy-amaliy, tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu ta'limot inson olam rivojlanishining toji bo'lib, u buyuk sharaf va hurmatga loyiqdir, degan fikrga asoslanadi.

**Bilib qo'ying!**

Ibn Sinoning falsafiy qissalarida ilmning aslo qarimasligi, uning olamni kezishi, kishilarni jaholat va nodonlik g'affatidan uyg'otishi haqidagi g'oyani ilgari suradi.

Ibn Sinoning ma'naviy-axloqiy va ma'rifiy masalalar haqida olg'a surgan ilg'or g'oyalari:

Yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik, rohat va azob-uqubat, saxiylik va baxillik, kamtarlik va maqtanchoqlik, vafodorlik va bevafoqlik kabilardir.

**Ibn Sino fanlarni quyidagicha tasnif etadi:**

Birinchi guruhga – etika, iqtisod, siyosat

Ikkinchi guruhga – fizika, matematika, metafizika, dunyo qonuniyatlarini o'rganuvchi barcha fanlar.

**Bilib oling!** Markaziy Osiyo ma'naviyatining ulkan arboblardan biri hisoblangan ibn Sinoning asli ismi sharifi Abu Ali al-Husayn Ibn Abdulloh ibn Sinodir. Ibn Sino jahon madaniyati tarixida qomusiy bilimga ega bo'lgan mutafakkir, alloma sifatida alohida o'rin tutadi. U fanning turli sohalariga oid 450 dan ortiq asari mavjudligi to'g'risida olimlar ma'lumot beradilar. Ularda tibbiyot, musiqa, falsafa, etika, ilohiyotshunoslik, ijtimoiyot, siyosat, tilshunoslik, estetika masalalari atroflicha yoritilgan.

**Mushohada uchun!**

Alloma yaratgan «Kitob ash-Shifo» 18 tomдан iborat bo'lib, falsafiy bilimlar qomusi hisoblanadi, u o'z ichiga 4 ta katta bo'lim (mantiq, fizika, matematika, metafizika)ni oladi. Ibn Sinoning «Kitob ul-insof» («Adolat kitobi») asari 21 jilddan iborat bo'lgan.

**Bilasizmi?**

Ibn Sino sakkizta doston yozgan. Bular: sog'liqni saqlash-gigiena haqida urjuza; Yilning to'rt fasli haqida urjuza; Anatomiya haqida urjuza; Gippokrat vasiyatlar haqida urjuza; Tabobat haqida urjuza; Tibbiy nasihatlar haqida urjuza; Aloqa haqida urjuza.

## **Buni yodda saqlang!**

Ibn Sino bilim olishda bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd etar ekan. ta'limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- o'qitishda, jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o'qitishni jismoniy mashqlar bilan olib borish.

### **Mavzu bo'yicha mustaqil tayyorlanadigan savollar**

1. Ibn Sinoning ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlarini o'rganib kelish.
2. Alloma qachon va qayerda tug'ilgan?
3. Ibn Sino fikriga ko'ra o'qituvchi qanday bo'lishi kerak?
4. Ibn Sinoning qaysi asarlarini bilasiz?
5. «Kitob ash-Shifo» kitobi necha tomlik va buning necha tomi mantiqqa oid?
6. Ibn Sino fanlar tasnifi muammosini qay tarzda hal etgan?
7. Ibn Sino axloqiy xislatlarga bergan ta'rifini keltiring.
8. Olimning axloqqa bergan ta'rifini bilasizmi?
9. Ibn Sinoning jismoniy tarbiya haqidagi fikrlari.
10. Ibn Sinoning qaysi umumbashariy qadriyatlarini bilasiz?

**Buni yod oling!** Axloq fani kishilarning o'ziga va boshqalarga nisbatan xatti-harakati me'yorlari va qoidalarini o'rganadi.

### **Ibn Sino do'stlikni 3 turga bo'ladi:**

1. Har qanday qiyinchiliklarga qaramay o'z do'stini xavf-xatarda yolg'iz qoldirmaydigan do'stlik.
2. Manfaatlari o'xshash va g'oyaviy yaqin do'stlik.
3. O'z shaxsiy manfaati va ehtiyojini qondirishga qaratilgan do'stlik.

### **Ibn Sino hikmatlari**

Aysh-ishrat va bekorchilikdan buzuqlik va kasalmandlik kelib chiqadi. Aksincha, aqlning nimagadir intilishi sog'liqni muttasil mustahkamlanib boradigan bardamlikni yuzaga chiqaradi.

1. Do'stimki, dushmanimga do'stlik qilar ekan, uni men do'st

hisoblamayman. Zaharga qo'shilgan shakardan ehtiyot bo'l, o'laksa ilon ustiga qo'ngan pashshadan o'zingni tort.

2. Abu Ali ibn Sino o'zi davolayotgan kasallarga bunday der ekan:

- Biz uch tarafmiz: men (tabib), sen (bemor) va u (kasallik). Agar sen men tarafga o'tib olsang, u yengiladi. Agar u tarafga o'tib olsang, ikkovingni yengishim qiyin...

3. Go'sht tanani mustahkamlaydigan taom bo'lib, u boshqa ovqatlarga nisbatan qonni tezroq ko'paytiradi.

4. «Erta sahadan anor, tushda piyozli ovqat yesang, yotish oldidan asal nush yesang, qoning ko'z yoshidek beg'ubor bo'ladi».

5. Har kishi anjir tanovul aylasa tun-kun mudom, ko'ksidan balg'amni haydar, bartaraf qilg'ay taom.

6. Sholg'om urug'ini tuyib, maydalab, asal bilan qo'shib qilsang iste'mol.

Ichingni yumshatar, zaharni kesar.

Belingni baquvvat qiladi darhol.

7. Surma qo'ysa har kishi ko'ziga laylu nahor,

Ko'zidan suv oqmagay va nuri bo'lgay beg'ubor.

8. Ketma-ket mast bo'lish juda yomondirki, jigarni va mijozni buzadi. asabni kuchsiz qiladi. Asab kasalliklarini, sakta kasalligini va to'satdan o'lishni keltiradi.

9. Qora yer qa'ridan to avji Zuhal,

Koinot mushkuli barin qildim hal.

Ko'p mushkul tugunni angladim, yechdim.

Yechilmay qolgani birgina ajal.

### **Buni yod oling!**

O'qituvchi qanday bo'lishi kerak?

- o'quvchi bilan muomalada bosiq va jiddiy bo'lish;
- berilayotgan bilimlarni talabalar qanday o'zlashtirib olayotganligiga e'tibor berish;
- ta'limda turli usul va shakllardan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarini egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;
- fanga qiziqтира olish; berilayotgan bilimlarning eng zarurini

ajratib bera olishi;

– bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi;

– har bir soʻzning oʻquvchi hissiyotini uygʻotish darajasida boʻlishiga erishish zarur.

«Pedagogika tarixi» kursi oʻquv fanini oʻrganib boʻlgandan soʻng mashgʻulotlar oʻquv konferensiyasi bilan yakunlanadi.

Konferensiya rejasi quyidagicha tuziladi:

### **1–variant**

1. Muhokama etiladigan masalalar.
2. Sharq allomalarining pedagogik fikr va gʻoyalari haqida maʼruza.
3. Soʻrovnomalar yakunlarini eʼlon qilish.
4. Talabalarining eng yaxshi taqrizlari va eng yaxshi referatlarini eʼlon qilish.
5. Yakunlash.

### **2–variant**

Konferensiya ishtirokchilari avval besh guruhga boʻlinadi. Har bir guruh bitta olimning maʼnaviy sifatlarni tarbiyalashga xizmat qiladigan pedagogik fikr va gʻoyalari yuzasidan maʼruza tayyorlaydi. Maʼlum ketma-ketlikda chiqish qilar ekan, talabalar amaliy seminar, unga mustaqil tayyorlanish jarayonida oʻzlariga topshirilgan olimning hayoti, ilmiy faoliyati va pedagogik fikr va gʻoyalari haqida oʻrganganlarini umumlashtiradilar. Oʻz chiqishlarida maxsus tayyorlangan materiallar: portretlar, diopozitivlar, slaydlar, kitoblar, shu olim faoliyatini tadqiq etgan olimlardan intervʼyu, audio, videomateriallar va boshqalarni tayyorlaydilar (maʼruzani koʻrgazmali misollar yordamida tushuntiradi.)

Oʻquv konferensiyasi qatnashchilariga quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin: hozirgi yoshlar qanday maʼnaviy sifatlarga ega boʻlishi kerak? Qomusiy olimlar talabalarining maʼnaviy sifatlari qanday talablar qoʻyadi?

Savollar yuzasidan fikr almashuvdan soʻng, yakun yasaladi: Talabalarining soʻrovnomalarga javoblari, eng yaxshi referat va taqrizlar eʼlon qilinadi.

Yuqorida muammoga doir amaliy ishlar natijalaridan koʻrinib turibdiki: 1. «Pedagogika tarixi» kursidan nazariy maʼlumotlarni

amaliyotga joriy etish talabalarning ma'naviy sifatlarini o'z shaxsiy hayotlarida tarkib topishida ijobiy natijalarga olib keladi. 2. Talabalar amaliy mashg'ulotlarida qo'yilgan muammolarni hal etishda erkin, ijodiy, mustaqil fikrlashga harakat qiladilar. 3. Talabalar ma'ruzalarda o'rgangan bilimlarini amaliyotda qo'llashi ularning bilim, malaka va ko'nikmalari rivojlanayotganligi ma'lum bo'ladi. Buni biz dars mashg'ulotlarida tahlil etish orqali aniqlashga muvaffaq bo'ldik.

Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalashning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat.

1. Eng qadimgi ma'naviy yodgorlik - «Avesto» ming yilliklar davomida yaratilib, Sharq xalqlari madaniy hayotining turli sohalarini aks ettirgan asosiy manba.

2. Zardusht ta'limoti ezgulik va yovuzlikning murosasiz kurashi asosida yaratilgan bo'lib, kurash tabiat va jamiyatda bo'lgani kabi, har bir insonda ham kechadi. Shu sababli zardushtiylikning ma'naviy ta'limotlari dunyoda, umuman jamiyatda ijtimoiy tartib o'rnatish va inson hayotini tartibga solish kabilardan iborat bo'lib, asosiy tamoyil ezgu fikr, ezgu kalom hamda ezgu amal haqiqat va adolatdan iborat.

3. Zardushtiylik Sharq va G'arbning keyingi falsafiy va siyosiy-huquqiy tafakkuriga katta ta'sir ko'rsatdi. Uning ma'naviy-axloqiy triadasi: «ezgu fikr», «ezgu kalom», «ezgu amal». Demokrat, Galen (Jolinus), Gippokrat (Buqrot), Epikur, Evklid (Iqlidus), Aristotel (Arastu)larning falsafiy ta'limotlariga ta'sirini alohida ta'kidlash muhim. Zardushtni o'z ustozlari deb tan olgan birinchi yunon faylasufi Aflotun haqida ham shuni aytish mumkin.

4. Ma'mun akademiyasi allomalari ma'naviy-ma'rifiy qarashlarida inson, uning har tomonlama barkamol rivojlanishi, yuksak ma'naviyat, bilim va ilmga ega bo'lishi, sog'lom turmush tarzi va mustahkam jismoniy tarbiya muammolari dolzarflik kasb etgan. Aynan shu holatlar insonning o'z fikrini aniq ifodalash va o'z qarashlarini himoya qila olish qobiliyati rivojiga xizmat qilgan. Shu tariqa ilmiy dunyoqarash, mustaqil fikrlash va tafakkur, ma'naviy kamolot uchun zamin hozirlagan.

5. Zardushtiylik ta'limoti, Sharq uyg'onish davrida ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan «Pedagogika tarixi» kursi materiallari vositasida asosiy o'rin egallagan mutafakkirlar va Ma'mun akademiyasi allomalarning pedagogik qarashlarida o'ziga xos umumiylik va

xususiylilik mavjud bo'lib, ular quyidagilarda ko'rinadi:

a) Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limotida umuminsoniy qadriyatlar, dinga e'tiqod, iymon, ona zaminga, Vatanga muhabbat, ekrsevarlik, xalqparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik kabi ma'naviy sifatlar pedagogika tarixining muhim omili sifatida talqin qilinadi;

b) «Avesto»da qayd etilgan ma'naviy-axloqiy qoida-insonni mehnat qilishga, o'z qo'llari bilan moddiy boyliklar yaratib, farovon hayot kechirishga da'vat etilganida bo'lsa, Abulxayr ibn Hammor, Abu Nasr ibn Iroq, Abu Nasr Forobiy, ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Sahl Masihiy, Abu Abdulloh Iloqiy, Abu Ali ibn Miskavayx, Abu Mansur as-Saolibiy, Maxmud Xamid ibn Xidr al-Xo'jandiy, al-Muttatabib, Abul Hakim al-Qosiy, al-Xorazmiy kabi allomalarning ta'limotida inson ijtimoiy-ma'naviy takomil, baxt-saodatga, ilm-ma'rifat hosilasi sanaladigan aqliy va axloqiy fazilatlarining mushtarikligi orqali erishish mumkinligi kabi fikrlari yotadi;

v) eng qadimgi ma'rifiy-axloqiy yodgorlik «Avesto»da, Sharq allomalarining pedagogik ta'limoti va falsafasi mazmun-mohiyatida ham bitta haqiqat yotadi: yuksak axloq, ijodiy mehnat sohibi inson qadri va uning ulug'ligi. Zero insonning tabiat va jamiyatdagi o'rmi uning aql-idroki, doimiy ravishda komillik sari intilishdan iboratdir.

6. Pedagogika tarixi materiallari misolida Sharq mutafakkirlarining talabalar ma'naviy sifatlarini tarbiyalash to'g'risidagi ta'limoti qomusiy olimlar ilmiy merosi va ta'limiy-axloqiy asarlarida ilgari surilgan. Ma'naviy-axloqiy sifatlar o'z davri jamiyat taraqqiyoti talabalaridan kelib chiqqan holda yosh avlod tarbiyasida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'ldi. Insonning ijtimoiy hayot, davlat uchun foydasi, ideal ma'naviy qiyofa, aql-idrok, bilim, yaratuvchanlik-ijodkorlik, xulq-odob, insonlararo munosabatlar, tinimsiz mehnat va mehnatsevarlik, sog'lom turmush mavzulari allomalar diqqat markazida bo'lgan.

7. Talabalarining ma'naviy sifatlarini tarbiyalashda Sharq xalqlarining ilg'or ma'naviy-axloqiy, madaniy va ilmiy merosidagi insonparvarlik, muhabbat, do'stlik, mehnatni sevish kabi xislatlarni takomillashtirish.

**Tayanch tushunchalar:** Ma'naviy sifat, istiqbolli reja, pedagogik ta'limot, uslub, mutafakkir.

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari**

1. Ilm aslo qarimaydi, u olamni kezadi, kishilarni jaholat va nodonlik g'aflatidan uyg'otadi, degan g'oyalar muallifi kim?
  - A. Ibn Sino. \*
  - B. Beruniy.
  - C. Al-Xorazmiy.
  - D. b va s.
  
2. Inson olam rivojlanishining toji bo'lib, u buyuk sharaf va hurmatga loyiqdir degan fikrni asoslagan Sharq mutafakkiri nuqtalar o'rniga mos so'zni qo'ying.
  - A. Ibn Sino. \*
  - B. Forobiy.
  - C. Al-Farg'oniy.
  - D. Beruniy.
  
3. Axloqiylikning asosi necha guruhga bo'lib o'rganiladi?
  - A. 2 guruhga: yaxshilik va yomonlik. \*
  - B. guruhga bo'linmaydi, axloqiylik.
  - C. 4 guruhga: yaxshilik, yomonlik, to'qlik va ochlik
  - D. b va s javoblar.
  
4. Eng qadimgi ma'rifiy yodgorliklarga nimalar kiradi?
  - A. Urxun-Enisey yozuvlar, bitiklar, Avesto \*
  - B. Zardo'shtiylik ta'limoti.
  - C. Xalq og'zaki ijodi.
  - D. Dastlabki tosh qurollari, mehnat qurollari.
  
5. Aleksandr Makedonskiy istilosidan so'ng qanday yozuvlar O'rta Osiyoda ma'lum vaqtgacha qo'llanilib kelingan?
  - A. Yunon yozuvi, forsiy mixxat. \*
  - B. Sug'd yozuvi, Baqtriya yozuvi.
  - C. Sanskrit yozuvi, Sug'd yozuvi.
  - D. Oromiy yozuvi, Sug'd yozuvi.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti hamda ma'naviy-



ma'rifiy g'oyalari mohiyatini tushuntiring.

2. Mashg'ulot mavzulari haqida batafsil, to'liq ma'lumot bering.

3. O'quv viktorinasi haqida sizning fikringiz. Yana qanday viktorinalarni taklif etasiz?

4. Amaliy seminar mashg'ulotlarining savol va topshiriqlari haqida qanday fikrdasiz? Yozma ravishda ifoda eting.

5. Seminar mashg'uloti bilan amaliy seminar mashg'ulotining o'zaro bir-biridan farqini izohlab bering.

6. O'quv konferensiyasini siz qanday tushunasiz? Mushohada qiling. Yozma ravishda ifoda eting.

7. Pedagogika tarixi fanini o'rganish orqali qanday yangi ma'lumotlarga duch keldingiz? Konspektlashtiring.

8. «Talabalarning ma'naviy sifatlarini, o'tmish meros g'oyalari asosida tarbiyalash mohiyati» haqida fikr yuriting. Konspektlashtiring.

9. Sharq mutafakkirlari ta'limoti talqinida ma'naviy sifatning birinchi belgisi nima?

10. IX-XII asr mobaynida Movaraunnahrda bo'lgan o'zgarishlar tarixiga bir nazar.

### **Tavsiya etiladigan manbalar:**

1. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. –T Ma'naviyat, 2008. -172-bet.

2. Forobiy fozil odamlar shahri / Tuzuvchi M.Mahmudov. –T.. Xalq merosi, 1993. -186-bet.

3. H.Homidov. «Avesto» fayzlari. –T., 2001. -31-bet.

4. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar qo'llanma. O'zbek faylasuflari milliy jamiyati. –T.: Yangi asr avlodi, 2001. -202-bet.

5. M.Qahhorova. Ma'naviy-axloqiy muhit. Demokratik yangilanishning muammo va yechimlari. –T.: Falsafa va huquq instituti, 2008. -178-bet.

### **«O'yin» texnologiyasi.**

#### **«Tezkor savolga – tezkor javob» o'yini**

Talabalar uch guruhga bo'linadi. Savollar o'qituvchi tomonidan o'qiladi, tezkorlik bilan talaba javob bermasa, o'qituvchi javobini o'qib beradi. Har bir savolga to'g'ri javob 5 ball, chala javob bersa 2,5 ball yozuv taxtasiga yozib boriladi. Qaysi guruhda savolga javob bermasa,

guruhini himoya qilib gapirsa, baqirsa, chapak chalsa jarima tayoqchasi beriladi. Ya'ni bundan maqsad guruhni tinch, osoyishta, faol o'yin darsini tashkil etish.

**1-guruh**  
**Sharq mutafakkirlarining pedagogik**  
**ta'limotlari yuzasidan**

1. Savol: Zardushtiylik dinini birinchi bo'lib qabul qilgan inson Zardushtdan keyin kim bo'lgan?  
Javob: Eron shohi Vishtasp.
2. Savol: Forobiyning fikricha, ta'lim-tarbiya nima orqali amalga oshiriladi.  
Javob: Tajriba orqali.
3. Savol: Mehnat insonni uch narsadan saqlaydi. 1-yurak siqilishdan, 2-axloqiy buzilishdan, 3... – nima?  
Javob: Muhtojlikdan.
4. Savol: Ma'mun Akademiyasini boshqargan va «Hindiston» asarini yozgan qomusiy bilim sohibi kim?  
Javob: Abu Rayhon Beruniy.  
Savol: Zardusht necha yoshida kim tomonidan o'ldiriladi?
5. Javob: 77-yoshida Arjasp buyrug'i bilan Bratar Vaxsh tomonidan.  
Tabib, adib va shoir, huquqshunos musiqashunos, matematik, axloqshunos astronom, tabiatshunos.
6. Savol: faylasuf, qomusiy olim, pedagog. Ushbu fikrlar Sharq allomalaridan kimga tegishli?  
Javob: Ibn Sinoga.  
Savol: Pedagogika tarixini o'rganishda nimalarga asoslanildi?
7. Javob: Qadimgi yozuvlar, bitiklar, yodgorliklar, xalq og'zaki ijodi.
8. Savol: Zardushtiylik axloqiy ta'limotida imon va diyonat uch tayanchga asoslanadi deyiladi, 1 ezgu fikr 2...., 3... ;  
Javob: Ezgu kalom, ezgu amal.

- Prezident I.A.Karimovning «Xorazm Ma'mun Akademiyasini qaytadan tashkil etish to'g'risi»dagi Farmoni nechanchi yil, qaysi oyda qabul qilingan?
9. Savol: 1997 yil, 11 noyabr.  
Javob: Kimning qaysi asarida Zardusht va uning muqaddas kitobi «Avesto» haqida ko'plab fikrlar mavjud?
10. Savol: Firdavsiyning «Shohnoma» asarida.  
Javob: 2006 yil Ma'mun akademiyasining necha yilligi nishonlandi?
11. Savol: 1000 yilligi.  
Javob: «Avesto»ni qanday asar deb ataydilar?
12. Savol: Dastlabki pedagogik asar.  
Javob:

## 2 guruh

### («Avesto» asari yuzasidan)

1. Savol: Zardusht ta'limoti qaysi muqaddas kitobda jamlangan?  
Javob: «Avesto»da.
2. Savol: «Avesto» qachon yaratilgan?  
Javob: Eramizdan avvalgi VII asr oxiri va VI asr boshlarida.
3. Savol: «Avesto» ning Vatani.  
Javob: Xorazm.
4. Savol: «Avesto»ni qaysi shoh targ'ib qiladi?  
Javob: Eron shohi Vishtasp.
5. Savol: «Avesto» eramizdan oldin qanday manbada saqlangan?  
Javob: 12 ming qoramol terisiga yozib qoldirilgan.
6. Savol: «Avesto» bizgacha necha nusxada yetib kelgan?  
Javob: 2 nusxada.  
Savol: «Avesto» necha qismdan iborat va ular qaysilar?  
Javob: 5 qismdan iborat: Vendidod, Vispered, Yasna, Yasht, kichik Avesto.
8. Savol: «Avesto»ning qaysi qismi Aluiarazda bilan Zardushtning savol-javobi shaklida yozilgan?  
Javob: Vendidod.

9. Savol: «Avesto»ning qaysi qismi 72 bobdan iborat bo'lib, unda diniy, ibodat paytida aytiladigan qo'shiqlar, xudolar madhi keltirilgan?  
 Javob: «Yasna».
10. Savol: «Avesto»ning qaysi qismi 22 qo'shiqni o'z ichiga oladi?  
 Javob: «Yasht»lar.
11. Savol: «Avesto»da qaysi sohadagi mehnat Axuramazda qonuni bilan ulug'lanadi?  
 Javob: Dehqonchilikdagi mehnat.
12. Savol: «Avesto»da odob-axloq mezonini qaysi uchlikda namoyon bo'ladi?  
 Javob: Ezgu so'z, ezgu amal, ezgu fikr.

### 3 guruh

#### Xorazm Ma'mun akademiyasi mavzusi yuzasidan

1. Savol: Ma'mun akademiyasida yetakchi olim va rahbar bo'lib ishlagan alloma?  
 Javob: Beruniy.
2. Savol: Ma'mun akademiyasi necha yil faoliyat ko'rsatgan?  
 Javob: 13 (14) yil.
3. Savol: 2006 yil Ma'mun akademiyasining necha yilligi nishonlandi?  
 Javob: 1000 yilligi.
4. Savol: Akademiyalar ichida Xorazm Ma'mun akademiyasiga nechanchi bo'lib asos solingan?  
 Javob: 3-bo'lib
5. Savol: Ma'mun akademiyasidan oldingi akademiyalar?  
 Javob: 1 mil. av. Afinada, 2 – Xorun ar-Rashid.
6. Savol: Ma'mun akademiyasi nechanchi yilda qurilgan?  
 Javob: 1010 yilda.

7. Savol: Ma'mun akademiyasi Xorazmning qaysi shahrida bunyod etilgan?  
Javob: Urganchda.
8. Savol: Akademiyaning eng keksa vakillari kimlar bo'lgan?  
Javob: Al Notimiy, Hammor
- Savol: Ma'mun akademiyasida Beruniydan tashqari yana qaysi allomalar ish olib borganlar?
9. Javob: Ibn Sino, faylasuf Abu Sahl Masihiy, tabib Abu Xasan Hammor, Abu Abdullox Iloqiy, Ibn Iroq, Abu Ali ibn Miskavayx, Ahmad ibn Said al-Javhariy, Abu Mansur as-Saolibiy va boshq.
10. Savol: Ma'mun akademiyasi qaysi Xorazmshoh davrida paydo bo'lgan?  
Javob: Abu Abbas Ma'mun ibn Ma'mun II.
11. Savol: Ma'mun akademiyasi tarqab ketishiga nima sabab bo'lgan?  
Javob: Mahmud G'aznaviy bosqini.

Olib borilgan viktorina savollar natijasini quyidagi jadvalda kuzatamiz:

**«Tezkor savolga – tezkor javob»  
O'yin texnologiyasi natijalari**

T/r	O'zlashtirish ko'rsatkichi (foizlarda)	Birinchi guruh	Ikkinchi guruh	Uchinchi guruh
1.	Past			
2.	o'rta			
3.	Yuqori			

### III. SHARQ ALLOMALARI FAOLIYATI YUKSAK MA'NAVIY – MADANIYAT TIMSOLI

#### 3.1. Talabalarining ma'naviy sifatlarini tarbiyalashda pedagogika tarixining ahamiyati

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni alohida o'rin tutadi. U o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq amalga oshiriladi.

«Pedagogika tarixi» faniga II kursda 112 soat ajratilgan, shundan 30 soat ma'ruza, 32 soat amaliy mashg'ulot, 50 soat mustaqil ta'lim. Bu bosqichning asosiy vazifalari talabalarda pedagogik kasbga qiziqishni o'rttirish, uning jamiyatda yashashi va faoliyat ko'rsatishi uchun aniq tasavvurlarni shakllantirish, ularning umumpedagogik madaniyati va ma'naviy sifatlarini rivojlantirish, pedagogik faoliyatga psixologik va amaliy tayyorgarligini shakllantirishdan iborat.

Ma'naviy yuksak fazilatlariga ega bo'lgan insonni shakllantirish hozirgi kunning asosiy vazifalaridan bo'lib, ma'naviy xislatlarga ega bo'lish muhim ijtimoiy ehtiyoj ekanligi, uni har bir insonda tarbiyalash birinchi darajali ahamiyat kasb etmoqda. Yuksak ma'naviyat uchun kurash murakkab jarayon. Zero, jamiyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlamasdan, uning har bir a'zosida yuksak ma'naviy sifatlarini rivojlantirmasdan turib farovon va madaniy hayotni qurish mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov mustaqil O'zbekistonning ma'naviy-axloqiy negizlarini mustahkamlashni davlatimizning yangilanishi va taraqqiyotining asosiy tamoyillaridan biri sifatida ta'kidlagan<sup>59</sup>.

Ma'naviy qadriyatlar-jamiyatdagi xulq-atvor me'yorlarini boshqarish va tartibga solish tizimining uzviy bo'g'ini. Chunki dunyoqarash, bilim, e'tiqod, u yoki bu xatti-harakat uyg'un bo'lishi bilan birga, ayni paytda u insonda shakllanadi ham. Inson o'z g'oya, fikr va qarashlarini faqat faoliyat davomida amalda qo'llaydi va qayta yaratadi. Shu sababli har bir inson, har bir jamoa faoliyatida ma'naviy qadriyatlar yangi jamiyatni qurish va uni mustahkamlash yo'lida aniq ishlar bilan uyg'unlashishiga erishmoq lozim. Oliy insoniy qadriyatlarni individual xulq-atvor sohasidan izlash kerak. Ta'kidlash joizki, yoshlarda oliy

<sup>59</sup>Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. –T.: O'zbekiston, 1992. – B. 29.

insoniy qadriyatlarni muntazam tarbiyalash muhim vazifa ekan, bunga ma'lum psixologik xulq-atvor me'yorlarini ular ongiga izchil tarzda singdirib borish orqali erishish mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning hozirgi bosqichida jamiyatni yanada demokratlashtirish imkoniyatlari kengaymoqda, bu jamiyatni ma'naviy-axloqiy takomillashtirish muammolarini har tomonlama aniq va yanada chuqur o'rganishga imkon yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Mustaqil O'zbekistonning kuch qudrati manbai – xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir»<sup>60</sup>.

Mustaqillik bizga keng ufqlarni ochdi. o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurish, o'z taqdirimizni belgilash, o'z hayotimiz va umumiy uyimizni milliy manfaat va qadriyatlarimiz, umum tomondan tan olingan demokratik tamoyillarga javob beradigan qilib obod etishga sharoit yaratdi..

Xalqimizning ildizlari qadim tarixga borib taqaladigan ma'naviy qadriyatlari azaldan umuminsoniy yuksak fikr va g'oyalar bilan yo'g'rilgan. Ma'naviyat muammolari bilan shug'ullanadiganlarning bugungi vazifasi ajdodlarimiz tomonidan asrlar osha to'plangan ma'naviy boyliklarni yosh avlodning chinakam mulkiga aylantirish, bu bilan yoshlarni ma'naviy barqaror, o'z Vataniga sodiq qilib tarbiyalashdan iborat.

Pedagogika tarixi fanini o'qitish oliy ta'lim muassasalarining ma'lum didaktik tamoyillari: ilmiylik, tarixiy ma'lumotlarni hayot bilan bog'lash, izchillik va tizimlilik, ko'rgazmalilik, kasbiy yo'nalganlik, individual xususiyatlarni hisobga olish asosida quriladi.

O'qitishni tashkil etishga asosiy talablarni ifoda etgan tamoyillar soni doimo bir xil bo'lib qolavermaydi. Hayotning o'zi oliy pedagogik ta'limga jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi – ta'lim jarayonini tashkil etishning yangi tamoyillarini ilgari surdi. Bizning nuqtai nazarimizda, ularning orasida eng ahamiyatlisi:

– o'quv ishlarida talabalarining ijodiy faolligi, ongliligi, mustaqilligi;

– o'quv jarayonida o'qituvchi va talabalarining birligi va ijodiy hamkorligi, o'qituvchilarning boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik roli va

<sup>60</sup>Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T. O'zbekiston, 1998. – B. 56.

hokazolar.

Tarixiylik tamoyili, masalan, o'qitishning talabalarni nafaqat o'quv fani, ularning mohiyati, xususiyatlari, keyingi rivojlanish istiqbollari bilan tanishtirish, balki qachon, qaysi sabablar bilan yuzaga kelgani, ildizlari haqida bilim berishni ham nazarda tutadi.

Tarixiylik tamoyilini tashkil etish biz kuzatgan OTM sharoitida «Pedagogika tarixi» kursini o'qitish jarayonida «Avesto» va Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti hamda Ma'mun akademiyasi olimlari faoliyatiga oid yangi ma'lumotlarni talabalarga yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

**Bilasizmi?** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, bugungi eng muhim vazifalardan biri xalqimizning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini tiklash, buyuk ajdodlarimiz – shoirlar, olimlarning merosini xalq mulkiga aylantirishdan iborat. Shuningdek, xalqning o'z tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlariga ishonchini orttirish zarur.

Qimmatli tarixiy manbalar hisoblangan «Avesto» va Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti hamda Ma'mun akademiyasi olimlari Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr ibn Iroq, Abu Sahl Masihiy, Abulxayr ibn Hammor, Abu Abdulloh ibn Yusuf al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Miskavayx, Abu Mansur as-Saolibiylarning ma'naviy axloqiy tarbiya haqidagi qarashlari hamda olimlarning bu sohadagi izlanishlarini o'rganib, muhim ma'lumotlarni to'plashga, ularni ma'ruzalar, seminar mashg'ulotlari, mustaqil ishlar jarayonida talabalarga taqdim etishga erishdik.

Tadqiqot vazifalariga muvofiq talabalarning ma'naviy sifatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari pedagogik qarashlar, tarixiy manbalar, talaba ma'naviy tarbiyasiga oid fikr va g'oyalar, ularning pedagogika fani rivojidagi ahamiyati, umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun o'qituvchilar tayyorlashdagi imkoniyatlari, bu imkoniyatlarni pedagogika fani, xususan pedagogika tarixini o'qitishda foydalanishga qaratilgan model ishlab chiqildi.



## **Tadqiqot jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilar uchun talabalarning ma’naviy sifatlarini tarbiyalash**

«Avesto» va Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta’limoti hamda Ma’mun akademiyasi allomalari qarashlari orqali talabalarni ma’naviy axloqiy sifatlarini tarbiyalashga yo‘naltirish mazmuni quyidagi 14 ta qismdan iboratdir:

1. O‘qituvchi o‘rganiladigan fan, har bir mavzuning talabalar ma’naviy sifatlarini tarbiyalash va ularni o‘tmishning boy merosi bilan tanishtirish imkoniyatlarini bilishi va hisobga olishi.

2. Ma’naviy tarbiya ildizlari qadim o‘tmishga borib taqalishini ta’lim-tarbiya masalalari aks etgan zardushtiylik ta’limoti, o‘tmishning bebaho yozma yodgorligi «Avesto» bilan bog‘lay olishi.

3. Ma’mun akademiyasi olimlari Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr ibn Iroq, Abu Sahl Masihiy, Abulxayr ibn Hammor, Abu Abdulloh ibn Yusuf al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Miskavayx, Abu Mansur as-Saolibiyning pedagogik g‘oyalarini asosiy yo‘nalishlari, ularning inson, uning jamiyatdagi o‘rni, fan va dinning o‘zaro munosabatlari, tarbiyaning maqsadi, tarkibiy qismlari, aqliy, ma’naviy, jismoniy, estetik, mehnat tarbiyasi; ularni tashkil etish shakli va usullari, tamoyillari, ta’lim jarayonlari, o‘qituvchining jamiyatdagi o‘rni, unga qo‘yiladigan talablar bo‘yicha gnoseologik qarashlarni bilishi.

4. Sharq allomalarining ma’naviy tarbiyaga oid fikr va g‘oyalarini yoritib beradigan materiallarni har bir mavzuga zo‘rma-zo‘raki emas, balki ularni o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan o‘quv materialini mazmuniga mantiqiy va tabiiy mos keladigan holda uyg‘unlashtirish.

5. Tanlangan material ilmiy, asosli, izchil, ishonchli, yorqin va obrazli bayon qilinishi, talabalarning alohida qiziqish va e’tiborini jalb qilishi.

6. Talaba-yoshlarning ma’naviy sifatlarini tarbiyalashda maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari hamda oliy ta’lim muassasalarida uzviylikka e’tiborni qaratish va amal qilish lozim.

7. «Avesto» va Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta’limoti hamda Ma’mun akademiyasi olimlarining talabalar ma’naviy sifatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan qarashlarini o‘zaro qiyoslash, pedagogika tarixi fanining shakllanishi va rivojlanishiga o‘zining bebaho hissasini qo‘shgan Sharq allomalari pedagogik g‘oyalari tadrijiysini kuzatish imkonini beradigan qiyosiy pedagogika uslublarini keng qo‘llashi.

8. Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rtta Sharq olimlarining asrlar osha o'z ahamiyatini, ulkan ma'nosini yo'qotmagan pedagogik fikr va g'oyalar talqini va rivojlanishida ustuvorligini asoslay bilishi.

9. Integratsiya, ijodiy meros hamda pedagogika fani o'qituvchilarining falsafa, O'zbekiston tarixi, etika, adabiyot va boshqa fan o'qituvchilari bilan hamkorligidan keng foydalanish.

10. Buyuk qomusiy allomalar Beruniy, ibn Sino, Abu Nasr ibn Iroq, Abu Abdulloh Iloqiy va boshqalar hayoti, ilmiy faoliyatini yoritadigan badiiy, sahna asarlari, mo'yqalam, musiqa, kino, video materiallarni keng qo'llash.

11. Talabalarni o'rtta asrlar Sharq allomalari hayoti va ijodini o'rganish, o'z xotirasida Abulxayr ibn Hammor, Abu Nasr ibn Iroq, Abu Nasr Forobiy, ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Sahl Masihiy, Abu Abdulloh Iloqiy, Abu Ali ibn Miskavayx, Abu Mansur as-Saolibiy, Maxmud Xamid ibn Xidr al-Xo'jandiy, al-Muttatabib, Abul Hakim al-Qosiy, al-Xorazmiy va boshqalar hayotiga oid hodisa va voqealarni tiklashga unday olishi.

12. Ularning faoliyatini Ma'mun akademiyasi olimlari faoliyati bilan bog'lab yoritishi.


13. O'rtta asrlar Sharq allomalari pedagogik merosidan foydalanib, talabalarda ma'naviy sifatlar va o'z yurtdoshlari bilan faxrlanish tuyg'usini tarbiyalashi.

14. Talabalarda mutafakkir olimlarning inson ma'naviy tarbiyasiga oid tavsiyalarni amaliy faoliyat hamda hayotda qo'llash malakalarini shakllantirish, buyuk allomalar asarlarida bayon etilgan ma'naviy sifatlarni o'zlashtirish bo'yicha amaliy ishlar olib borishi zarur.

Mazkur o'quv qo'llanmaning dastlabki boblarida talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash asosida barkamol insonni tarbiyalash pedagogika tarixi materiallari misolida ularning o'rni nazariy jihatdan asoslab berilgan edi.

Ushbu ma'noda bugungi talaba-yoshlar pedagogika tarixini o'rganish orqali o'tmish merosimizdan, islom dini yaratgan ma'naviy boyliklardan ham foydalanishlari muhimdir. Ismoil al-Buxoriy, imom at-Termiziy, Baxouddin Naqshband, Xo'ja Axmad Yassaviy kabi islom olami buyuk allomalarining adolat, insonparvarlik, mehnatsevarlik, Vatanga muhabbat, axloq, odob, iymon va e'tiqod haqidagi ta'limoti va fikrlaridan halqimizning, yoshlarning baxramand bo'lishi - umuminsoniy qadriyatlarini anglab olishlari, ular haqida tasavvurga ega bo'lishlari uchun kerak.

## Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarning ma'naviy sifatlari tarbiyalash modeli



Taklif etilgan tavsiyalardan foydalanish natijalarini aniq va xolis baholash uchun pedagogika tarixi materiallarini o'qitish orqali talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalashda quyidagi mezonlar ishlab chiqildi: talabalarning intellektual salohiyati asosida

– diyonat, e'tiqod, vijdonlilik adolat va insonparvarlikning namoyon bo'lishi;

- milliy o'zlikni anglashi;
- iffat, hayo, andishalilik;
- ma'naviyat va axloqiy me'yorlarni qayta tiklashi;
- samimiylik, saxiylik, sofdillikni his etishi;
- Vatanga muhabbat, milliy iftixor tuyg'usi;
- burch va mas'uliyatni his etishi;
- xushmuomalaligi va oilaparvarlik mas'uliyatiga egaligi;
- diniy madaniyatga egaligi;
- qadimgi va zamonaviy ma'naviy boyliklarni bilishi;
- mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkurning rivojlanganligi;

**Talabalarning hayoti faoliyati davomida pedagogika tarixini o'qitish orqali ma'naviy sifatlarning namoyon bo'lish darajasiga aks ta'sir etuvchi omillar:**

1.«Pedagogika tarixi» kursi va uning mohiyatini yorituvchi manbalarning o'zbek tilida ehtiyojlar darajasida yetarli emasligi.

2.Ta'lim jarayonida talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash targ'ibotini tashkil etishda samarali shakl, usul va vositalardan foydalanmaslik.

3.«Pedagogika tarixi»ni o'qitishda talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash mohiyatini o'rganishga nisbatan ehtiyoj va qiziqish uyg'otilmaganligi.

4.Pedagogik tarixini o'qitishda talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash mohiyatini targ'ib etuvchi tadbirlar mazmunining g'oyaviy jihatdan mukammal emasligi.

5.Talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash targ'ibotini tashkil etishga yo'naltirilgan tadbirlarning maqsadga muvofiq, izchil tizimli va uzluksiz tashkil etilmayotganligi.

6.Pedagogik tarixini o'qitishda talabalarning ma'naviy sifatlarini

tarbiyalash targ'ibotini tashkil etish jarayonida pedagogika oliy ta'lim muassasalari hamda ijtimoiy tashkilotlar o'rtasida mustahkam hamkorlikning o'rnatilmaganligi.

7. Ommaviy axborot vositalari orqali talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash mohiyatining bir yoqlama yoritilishi yoki fikrlar mazmunidagi mantiqning ustuvor mavqega ega emasligi.

8. O'qituvchilarning «Pedagogika tarixi»ni o'qitishda talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalashdan to'laqonli xabardor emasliklari.

### **Talaba-yoshlar ma'naviy sifatlarini amalga oshirish metodikasi**

<b>Tavsifi ko'rsatkichlar</b>	<b>Tekshirish turlari. Boshlang'ich darajalari</b>
Tekshirish mazmuni	Pedagogika tarixini o'qitishda talabalar ma'naviy sifatlarini tarbiyalashning rivojlanganlik darajasi, psixologik xususiyatlari
Tekshirish maqsadi	Talabalarning ma'naviy sifatleri rivojlanganlik darajasining DTS va Kadrlar tayyorlash milliy modeli bilan qiyoslash
Tekshirish uslublarining mazmuni	Nazorat topshiriqlari, savolnomalar, amaliy ishlar, ish ob'ektlari, mustaqil topshiriqlar.
Nazoratning qaytarilishi	Bir marotaba, o'quv yili o'rtasida
Talabalar soni	Kamida 20-25 ta
Nazorat turi	Laboratoriya sharoiti, auditoriya, tabiiy sharoit, amaliy, seminar mashg'ulotida.

Pedagogika tarixi fanini o'rganishda asosan tarixiy manbalar o'rganildi, adabiyotlar tahlil etildi, trening, suhbat, so'rovnomalar o'tkazish metodikasi yaratildi. Talabalarning aqliy va amaliy qobiliyatlarining rivojlanganlik darajalari, hayotiy yo'llanmalari va ma'naviy fazilatleri, bilim, ko'nikma va malakalari o'z o'tmish tarixini anglashini aniqlash maqsadida savol-javob o'yinini tashkil etish lozim.

Talabalarni turli, hatto bizdan juda uzoq davrlarda, turli mamlakatlarda yashab, ijod qilgan psixologiya, pedagogika, xususiy uslubiyotlar rivojiga bebaho hissa qo'shgan buyuk olimlar faoliyati bilan chuqur tanishtirish edi. Ular orasida ayniqsa, buyuk yurtdoshlarimiz o'rta asrlar qomusiy olimlari: Abulxayr ibn Hammor, Abu Nasr ibn

Iroq, Abu Nasr Forobiy, ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Sahl Masihiy, Abu Abdulloh Iloqiy, Abu Ali ibn Miskavayx, Abu Mansur as-Saolibiy, Maxmud Xamid ibn Xidr al-Xo'jandiy, al-Muttatabib, Abul Hakim al-Qosiy, al-Xorazmiy va boshqalar borligi, oliy ta'lim muassasalarida ularning ma'naviy ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari bilan talabalarni tanishtirish va ularni ma'naviy sifatlarini tarbiyalash lozim. Qadimgi yodgorliklar va allomalarning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya mezonlari ham ishlab chiqilganki, bu mezonlar talabalarda ma'naviy sifatlarini tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Bu ma'naviy sifatlar: maqsad sari intiluvchanlik, bilimga intilish, poklik, adolat, haqiqatgo'ylik, donolik, saxiylik va muruvvatlilik, bolalar va keksalarga g'amxo'rlik, jiddiylik, jasurlik va boshqalardir. Talabalarga kirishuvchanlik, hamkorlik va o'zaro yordamga intilish kabi ma'naviy sifatning ahamiyatini ham yetkazishdir.

Ma'lumki, «Pedagogika tarixi» kursi 4-semestrda o'qitiladi. Fan bo'yicha dasturning «tushuntirish xati»da aytilishicha, pedagogika tarixini fan sifatida o'rganish pedagogik fikrlash doirasini kengaytiradi, o'tmish pedagogik tajribasiga to'g'ri munosabatni shakllantirishga ko'maklashadi... alohida mutafakkirlar va pedagoglarning tarbiyaga oid qarashlarini yoritishda pedagogik nazariyasining rivojlanishiga ko'maklashgan yangilikni maksimal aniqlik bilan ajratish zarur: «o'quv rejasi»da ko'zda tutilgan soatlar miqdori «Pedagogika tarixi» kursi fanini izchil bayon qilish va ayniqsa ma'naviy tushunchalarni anglab olish uchun yetarli emas. Shuning uchun ayrim mavzularga qo'llanma muammosi bilan bog'liq qo'shimchalar kiritdik ayrim mavzular esa o'qituvchi ixtiyoriga ko'ra talabalarga mustaqil ta'lim uchun tavsiya etildi»<sup>61</sup>.

Bu ancha muhim tavsiya. «Pedagogika tarixi»ni o'qitishda talabalarni buyuk yurtdoshlarimiz hamda O'rta va Yaqin Sharq mutafakkirlarining pedagogik fikr va g'oyalari bilan tanishtirishda foydalanish zarurligini ta'kidlashimizga asos bo'ladi. Aynan ular o'rta asrdayoq pedagogika nazariyasining ilgarilashi uchun turtki bo'lgan yangilikni topa olganlar. Mutafakkirlarning asrlar osha o'tib kelgan fikr va g'oyalari bizning zamonamizda ham ahamiyatlidir.

O'qituvchi talabalarni nafaqat ulug' allomalar merosi bilan tanishtirishi, balki bu merosga qiziqish uyg'ota bilishi, ularning hayoti va ilmiy faoliyati, pedagogik fikr va qarashlari haqida yangi, yanada to'liq

<sup>61</sup> Pedagogika tarixi. Dastur. –T.: TPDU, 2006. – B.26.

bilimlarni mustaqil ravishda egallashga intilishini tarbiyalashi, ulardan ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatishda foydalanishiga rag'bat uyg'otishi lozim.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning xalqimizning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini tiklash, buyuk ajdodlarimiz merosini xalq boyligiga aylantirish eng muhim vazifalardan ekani haqidagi so'zlari nihoyatda o'rinli.

Dastur va darsliklar tahlili davomida, ishonch hosil qildikki. Ma'mun akademiyasi allomalarining pedagogik fikr va g'oyalari ularda keng o'rin olmagan. Bu fikr va g'oyalarning hayotda alohida o'rin tutganligiga ham urg'u berib borish lozim. Buni esa o'zi shu fikr va g'oyalarni yaxshi bilgan, tushungan va shunga amal qila oladigan mutaxassisgina bajarishi mumkin.

Turli davrlarda, turli ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida yashab, ijod qilgan ma'rifatparvar olimlarning qarashlari, fikrlari, eng muhim pedagogik muammolar talqinidagi o'xshashlikni qanday izohlash mumkin?

Bizningcha, bu ikki asosiy holat bilan tavsiflanadi:

1. Turli davr, turli avlodga mansub bo'lgan buyuk olimlar qadimgi Gretsiya (Sparta, Afina), Rim, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida pedagogik fikrlarning rivojlanish tarixini, albatta, kuzatib borganlar, Sharq madaniyatining G'arbiy Yevropa madaniyatiga ta'sirini ta'kidlaganlar.

Ular o'z o'tmishdoshlarining yoshlar ma'naviy tarbiyasiga oid merosida eng qimmatli fikr va g'oyalarni aniqlashgan, tahlil qilishgan, baholashgan, saralab olishgan, ular bilan qurollanib, ularga tayanib, pedagogik fikrlarning keyingi rivojiga ko'maklashgan.

2. Agar keyingi avlod olimlari ma'naviy tarbiya haqidagi asosiy fikr va g'oyalarni oldingilarini rivojlantirib talqin qilishsa, bu talqinlar turli olimlar ongida turli davr, turli sharoitlarda yuzaga kelib, umumiy konsepsiyalarda vaqt sinovidan o'tgan va o'z qimmatini ishonarli tarzda tasdiqlagan.

Agar ular talabalarni ma'naviy tarbiya mezonlari bilan tanishtirishdagi katta imkoniyatlarni o'zida qamray olsa, bir necha guruhlarda qo'shib o'tiladigan ma'ruzadan farqli o'laroq, ular kichik akademik guruhlarda olib borilsa, bunda har bir talaba shaxsini o'rganayotgan materialga alohida qiziqtirish, maxsus mustaqil ishga

rag'bat uyg'otish imkoniyati ta'minlanadi.

**Eslatma!** Talabalar tomonidan o'rganilgan barcha materialni saralab va umumlashtirib, tegishli xulosalarga kelgan o'qituvchi yana bir bor uning kasbiy va shaxsiy-ma'naviy sifatlarini tarbiyalashdagi ahamiyatiga to'xtaladi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonida ta'limning shakllari ham haqli ravishda alohida o'rin tuta boshladi.

**Tayanch tushunchalar:** Pedagogika tarixi, ma'naviy tarbiya, yuksak ma'naviyat, pedagogik g'oyalar, Markaziy Osiyo, integratsiya.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar**

1. Pedagogika tarixi fanining asosiy vazifasi nimadan iborat?
2. Pedagogika fani nechanchi kursda o'qitiladi, ma'ruza va seminarga qancha soat ajratilgan?
3. Pedagogika tarixi kursidan mustaqil ta'lim mavzularining mazmun mohiyatini tushuntiring.
4. Mustaqillikkacha pedagogika tarixi fani qanday tashkil qilingan?
5. Sharq mutafakkirlarining g'oyalarini yoshlar ongiga qanday singdirish mumkin?
6. Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash modelini sharhlab bering.
7. Yoshlar, ma'naviy sifatlarni tarbiyalashga yo'naltirish mazmuni necha qismdan iborat? Izohlab bering.
8. Talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalashda qanday mezonlar ishlab chiqildi?

### **Tavsiya etiladigan manbalar**

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. –T.: O'zbekiston, 1992. -29-bet.
2. K.Hoshimov, S.Nishonova. Pedagogika tarixi. Dastur. –T. TDPU, 2006. -26-bet.
3. K.Hoshimov, S.Ochil. Pedagogika tarixi antologiyasi.
4. O.Hasanboyeva va boshqalar. Pedagogika tarixi. –T.: G'.G'ulom, 2005. -243-bet.



### **3.2. Pedagogik texnologiyalarni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish yo'llari va imkoniyatlari**

O'zbekistonda ta'limning hozirgi sharoitida o'qituvchiga ishonch va mas'uliyat yanada ortdi. Chunki u yuksak ma'naviyatli, madaniyatli, o'z kasbining fidoyisi, chuqur nazariy bilimlarga ega bo'lgan, pedagogik mahoratni to'liq egallagan inson sifatida jamiyatning peshqadam a'zosi tarzida namoyon bo'lmoqda.

Bunday o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarini pedagogika fanining yuzaga kelishi va turi tarixiy davrlarda rivojlana borishiga oid bilimlar bilan tanishtirish alohida ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Pedagogik fikr xazinasida o'rta asrlarda Sharqning buyuk qomusiy olimlari pedagogik merosi haqli ravishda alohida o'rin tutadi.

O'zbekistonning bo'lajak o'qituvchilari nafaqat bu bebaho merosni bilishi, o'zbek olimlarining pedagogika fani rivojiga qo'shgan hissasini yuksak qadrlashi, undan o'zining amaliy faoliyatida keng foydalanishi ham lozim.

Respublikamizda oliy ta'lim muassasalari yangi rivojlanish pog'onasiga ko'tarildi. Barcha fanlardan DTSlar ishlab chiqildi. Bugun mustaqil respublikamizda barkamol avlod manfaati va ta'lim ustivorligi e'tirof etilgan bir davrda pedagogika tarixi fani erkin shaxsni shakllantirish, qonuniyatlari, talaba-yoshlar shaxsini hayotga moslashtirishning shakl va metodlari, mazmuni va prinsiplarini o'rganadi. Bugun pedagogika tarixi fani o'z predmeti, fanlar bilan aloqasi, pedagogik bilimlar tizimi, ularning mantiqiy tuzilmasi, nazariy pedagogik bilimlarni tarbiyaga, ma'naviyatga ta'lim amaliyotida qo'llash masalalariga doir muammolarni yangicha talqin etishmoqda. Pedagogik texnologiya – ta'lim metodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi, pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalari majmuidir. Pedagogika tarixi fanida pedagogik texnologiyalami qo'llash, foydalanish barkamol insonni shakllantirish faoliyatidir.

Pedagogik texnologiyani ta'lim shakliga singdirishdan oldin ta'lim shaklining uch turi tarixini yaxshi bilish lozim.

1. An'anaviy ta'lim shakli (XVII asrda vujudga kelgan Y.A.Komenskiyning «Buyuk didaktika» asari orqali yoyilgan sinf-dars

tizimi).

2. Noan'anaviy ta'lim shakli (Har xil usullardan foydalanib dars o'tish, interfaol usullar majmui) XX asrning 50 yillaridan rivojlandi.

3. Yakka tartibdagi ta'lim shakli (Quldorlik davridan paydo bo'lgan. quldorning bolasini qullar o'qituvchiga olib borgan, ularni alohida individual usul asosida o'qitishgan)

Talabalar o'zini o'qishida bahs-munozara mavqeini mustahkamlash orqali o'quv mavzularini chuqur o'rganadilar. Bugun oliy o'quv yurti muassasalarida nazariy mashg'ulotlar bo'yicha o'quv-bilish faoliyatini loyihalash pedagogika tarixi qonuniyatlarining o'rganilmagan qirralari bisyor. Bu esa tadqiqotchilar uchun tadqiqot mavzusi bo'lishi mumkinligini unutmash kerak.

Milliy dasturda belgilangan maqsadni amalga oshirish yuzasidan Oliy va o'rta maxsus vazirliklarda ilg'or pedagogik texnologiyalarni loyihalash asosiy vazifalardan biri qilib belgilanganligi maqtovga sazovordir, lekin kezi kelganda aytish kerakki, oliy ta'lim tizimida barcha o'qituvchilarning hammasi pedagogik texnologiya nima ekanligi-yu, texnologiya bilan metod o'rtasidagi farqni ajrata olmaydilar yoki o'tayotgan dars mashg'uloti qaysi ta'lim shaklida ekanligini bilmaydilar. An'anaviy ta'lim shakli bilan noan'anaviy ta'lim shaklini farqlay olmaydilar.

Har bir o'qituvchi talabalarga dars berayotganda pedagogik texnologiya haqida soatlab ma'ruza o'qishi mumkin. Nazariy ma'lumot, qoida, ta'rif keltirish mumkin, lekin bundan bo'lg'usi pedagoglar samaradorlikka erisha olmaydi, qachonki 2-3 dars mashg'ulotni yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'tkazib, interfaol metodlarni tushuntirib, amaliyotda qo'llay olsagina biror bir ijobiy samaraga ega bo'ladi. Bugun deyarli barcha o'qituvchilarimiz dars mashg'ulotini noan'anaviy ta'lim shaklida olib boradilar. Ana shu shakllarni farqini har bir dars mashg'ulotida talabalarga ko'rsatib o'tish kerak. Bugungi kunga kelib pedagogika tarixi fanini o'quv jarayonini texnologiyalashtirish o'zining boshlang'ich davrini boshidan kechirmoqda. Bu jarayon tezkor suratlar bilan o'sib bormoqda. Ayniqsa, 80 yillarning o'rtalarida rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida keng quloq yoygan ishbilarmonlik darajasidagi o'yin darslari bunga misol bo'la oladi.

Pedagogik texnologiyaning turlari:

1. Klassik ma'ruza.
2. Texnika vositalari yordamida o'qitish.
3. Maslahatchilik tizimi.
4. Pedagogika tarixi darsligi bo'yicha o'qitish.
5. Kichik guruhlar tizimi.
6. Komp'yuter yordamida o'qitish.
7. Repetitorlik tizimi.
8. Dasturlashtiriladigan boshqaruv.

Ta'lim oluvchiga yondashuv turi bo'yicha pedagogik texnologiya quyidagicha nomlanadi:

1. Didaktik yo'naltirilgan.
2. Ijtimoiy yo'naltirilgan.
3. Antropologik yo'naltirilgan.
4. Pedagogik yo'naltirilgan.
5. Shaxsga ma'naviy ta'sir etish usuli.

Dars mashg'ulotining shovqin bo'lishi, darsda pedagogik texnologiyani qo'llanishi, o'yin mashg'ulotlari, darsning amaliy mohiyatiga e'tibor berish o'qituvchining dars o'tish talabiga bog'liq.

O'quv qo'llamaning asosiy vazifasi talabalarning «Avesto» dagi pedagogik fikrlar va ma'naviy tushunchalarda, Sharq mutafakkirlari hayoti, ilmiy faoliyati, pedagogik fikrlari ma'naviy tarbiyaga oid qarashlari va Ma'mun akademiyasi allomalarining ijodiy merosini o'rganish haqida bilimlarini boyitishdan iborat. Shunday ekan ushbu pedagogik texnologiya orqali o'yin dars mashg'ulotini tavsiya etamiz. Mashg'ulotning asosiy tashkiliy shakli ma'ruza, ilmiy-ommaviy adabiyotlar, ma'lumotnoma va lug'atlardan foydalanish mumkin.

O'yin dars mashg'ulotini olib borishda o'qituvchi asosiy vazifani bajarib boradi. Auditoriyani guruhlariga ajratadi. I-II-III – savolni o'qituvchi o'qiydi, guruh javob beradi, sekund ichida, savollarga javob bermasa, o'qituvchi javobni aytib ketadi. Har bita savolga 5 balli tizimida ballar qo'yib boriladi.

Yozuv taxtasiga ballni talabalar ko'z oldida bitta *kuzatuvchi advokat* talaba qo'yib boradi. Agar talabalar o'z guruhini himoya etib chapak chalsa, qichqirib yuborsa, shovqin solsa (ma'naviy tarbiyasiga) jarima tayoqchasi / belgisi quyib boriladi. Uchtagacha jarima tayoqchasini olgan guruh o'yindan mag'lub bo'lib chiqib ketadi. Demak o'yin qoidasi

«Tezkor savolga – tezkor javob».

Pedagogik texnologiyalarni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish yo'llari va imkoniyatlarini "Pedagogika tarixi" fanini o'qitish orqali talaba-yoshlar ongiga singdirishda quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash mohiyati, asosiy fikr va g'oyalarni pedagogika turkum fanlarining dastur, o'quv qo'llanmalari, darsliklar tarkibiga kiritish hamda ta'lim jarayoniga joriy etish.

2. Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash bo'yicha pedagogika kafedralarida maxsus mutaxassis–pedagoglar tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarini takomillashtirish.

3. Pedagogika oliy o'quv yurtlarining pedagogika o'quv rejalariga talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash maqsadida «Ma'naviy tarbiya», «Ajdodlar me'rosi – oliy ne'mat» degan kurslar kiritish.

4. Pedagogika tarixi dasturiga «Avesto», Sharq mutafakkirlarning pedagogik ta'limoti va Ma'mun akademiyasiga oid soatlarni ko'paytirish.

5. Respublika oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun ma'naviy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti, pedagogik-uslubiy tajribalarni ommalashtirish, o'zaro tajriba almashish va tarbiya muammolarini yoritib borishga ko'maklashadigan «Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya» nomli jurnal tashkil qilish.

6. «Avesto»da ifoda etilgan qoidani davom ettirish maqsadida Respublikaning har bir hududida, shahar-qishloqlarida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, farzand dunyoga kelganda o'g'il bola uchun 40 tup terak daraxtni ekishni urf-odat tusiga kiritish (bu urf-odat faqatgina Farg'ona vodiysida saqlanib qolgan).

7. Oliy ta'lim muassasasi hududlarida va yotoqxonalarda talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash mohiyati, maqsadi, vazifalari, milliy qadriyatlar hamda an'analarni talabalar ongiga muttasil singdirib borish maqsadida radio va telemarkaz tashkil qilish, maqsadli eshittirish va ko'rsatuvlar uyushtirish.

Biz ta'lim–tarbiya tarixida talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishga doir fikr va g'oyalar, ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etishga oid katta bir muammoning kichik bir sohasiga doir izlanishdik.

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari**

1. Musiqashunos, matematik, huquqshunos, adib va shoir, tabib, axloqshunos, astronom, tabiatshunos, faylasuf, qomusiy olim, pedagog... ushbu fikrlar Sharq mutafakkirlaridan qaysi allomaga tegishli?

- A. Ibn Sino. \*
- B. Javhariy.
- C. Jurjoniy.
- D. Forobiy.

2. Mehnat insonni uch narsadan saqlaydi. Birinchi yurak siqilishidan, ikkinchi muhtojlikdan, uchinchi ...nimadan saqlaydi?

- A. axloqiy buzilishidan. \*
- B. nochorlikdan.
- C. ochlikdan.
- D. to'g'ri javob berilmagan.

3. Zar'dushtiylilik diniy ta'limotida ulamo, koinlar bugungi kunda qaysi kasb egalariga mos keladi?

- A. ustoz, muallim. \*
- B. shifokor, hamshira.
- C. texnolog, muhandis.
- D. direktor, rahbar.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar**

1. Pedagogika texnologiyasi asosidagi savol-javob o'yini dars mashg'ulotidan qanday foydalana oldingiz?

2. Pedagogika tarixidan qanday fikrlarni birinchi marta eshitdingiz? Izohlab bering.

3. Ushbu o'quv qo'llanmaga sizni fikringiz?

### **Tavsiya etiladigan manbalar**

1. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. -173-b.

2. K.Hoshimov, S.Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi.

1-jild. –T.: O‘qituvchi, 1995. -460-b.

3. M.Qahhorova. Ma’naviyat – axloqiy muhit. Demokratik yangilanishning muammo va yechimlari. T., 2008. -178-b.

### **«O‘yin» texnologiyasi.**

#### **«Tezkor savolga – tezkor javob» o‘yini**

Talabalar uch guruhga bo‘linadi. Savollar o‘qituvchi tomonidan o‘qiladi, tezkorlik bilan talaba javob bermasa, o‘qituvchi javobini o‘qib beradi. Har bir savolga to‘g‘ri javob 5 ball, chala javob bersa 2,5 ball yozuv taxtasiga yozib boriladi. Qaysi guruhda savolga javob bermasa. guruhini himoya qilib gapirsa, baqirsa, chapak chalsa jarima tayoqchasi beriladi. Ya’ni bundan maqsad tinch, osoyishta, faol o‘yin darsini tashkil etish.

### **1-guruh**

#### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ma’naviy tarbiya mavzusi yuzasidan**

1. Savol: I.A.Karimovning qaysi asarida «ma’naviy tarbiya masalasi o‘qituvchiga borib taqaladi» deb aytilgan?  
Javob: «Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori» asarida.
- Savol: Mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishning 4 ta ma’naviy-axloqiy negizini ayting?  
– umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi;  
– xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
2. Javob: – insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;  
– vatanparvarlik.  
«Xalqning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish O‘zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir: ushbu so‘zlar Prezident I.A.Karimovning qaysi asaridan olingan?
3. Savol: I.A.Karimovning qaysi asaridan olingan?  
Javob: «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li».

4. Savol: «Faqat ma'naviy sog'lom, kuchli jamiyatgina islohotlarga tayyor bo'lishi mumkin? Ushbu so'zlar qaysi asardan olingan?»
- Javob: O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.
5. Savol: «Xotin-qizlarga munosabat jamiyatimiz ma'naviy-axloqiy yetukligining o'lchovi bo'lib xizmat qilishi kerak». Ushbu so'zlar qaysi asarda uchraydi?»
- Javob: O'zbekiston - iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.
6. Savol: «Ma'naviy qadriyatning yana bir qudratli manbai – oila va qarindoshlik munosabatlari odobidan iborat». Bu so'zlar qaysi asardan olingan?»
- Javob: «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asaridan olingan.
7. Savol: «Hamamizning etnik, madaniy va diniy sabr bardoshimiz – ma'naviy uyg'onishning yana bir bitmas-tuganmas manbaidir». Ushbu so'zlar qaysi asardan olingan?»
- Javob: «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari».
8. Savol: «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asaridagi bosh g'oya nima?»
- Javob: Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi.
9. Savol: «Ma'naviyatni mustahkamlash uchun mehnat va mablag'ni ayash - o'z kelajagiga bolta urish demakdir». Ushbu so'zlar qaysi asardan olingan?»
- Javob: «O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li» asaridan.

10. Savol: Davom ettiring. «Ma'naviyat – taqdirning ehsoni emas. Ma'naviyat inson qalbida kamol topishi uchun...»  
Javob: «... u qalban va vijdonan, aql va qo'l bilan mehnat qilishi kerak».

## 2-guruh

### Abu Rayhon Beruniy mavzusi yuzasidan

1. Savol: Beruniyning dastlabki yirik asari.  
Javob: «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar».
2. Savol: Beruniy qaysi akademiyaga rahbarlik qilgan?  
Javob: Xorazm Ma'mun akademiyasiga.
3. Savol: Akademiyani boshqargan paytida qanday maktabni yaratgan?  
Javob: Falsafiy pedagogika maktabini.
4. Savol: Beruniyning ustozlari kim?  
Javob: Abu Nasr ibn Iroq.
5. Savol: Beruniy boshqargan akademiya necha yil faoliyat ko'rsatgan?  
Javob: 13 - 14 yil.
6. Savol: Beruniy o'sha paytda keng tarqalgan o'qitishning qaysi usuliga qarshi chiqadi?  
Javob: Sxolastik.  
«Jo'rttaga o'z so'zida turib olgan bilimsiz kishi bilan baholashish na maqsad egasiga, na maqsadga biron foyda yetkazmaydi».
7. Savol: Ushbu fikr Beruniyning qaysi asaridan olingan?  
Javob: «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar».
8. Savol: Beruniy Xorazmda kimning yaqin maslahatchisi bo'lgan?  
Javob: Abu Abbas Ma'mun ibn Ma'mun II.
9. Savol: Beruniy so'zining ma'nosi nima?  
Javob: «Shahar tashqarisida» degan ma'noni anglatadi.
10. Savol: Beruniy umrining oxirgi yillarini qayerda o'tkazadi?  
Javob: G'aznada.



11. Savol: Beruniy umrining oxirgi yillarini qaysi hukmdor hukmi ostida ijod qiladi?  
Javob: Mahmud G'aznaviy.
12. Savol: Beruniyning ikkinchi katta asari.  
Javob: «Geodeziya».
13. Savol: Beruniyning nechta asari bo'lgan va bizgacha yetib kelgan asarlari nechta?  
Javob: 152 ta, 31 tasi yetib kelgan.
14. Savol: Yahyo G'ulomovning qayd qilishicha, Beruniyning qaysi davlat bilan savdo va siyosiy aloqalari bo'lgan?  
Javob: Qora dengiz bo'yi, Sharqiy Evropa, Volga bo'yi.
15. Savol: Beruniy Evkledning «Negizlar» va Ptolomeyning «Almagest» asarlarini qaysi tillarga tarjima qilgan?  
Javob: Hind tili – sanskret tiliga.

### 3-guruh

#### Abu Ali ibn Sino mavzusi yuzasidan

1. Savol: Abu Ali ibn Sino qanday ishi uchun saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniga ega bo'lgan?  
Javob: Somoniy davlati rahbari Nuh ibn Mansurni davolagani uchun.
2. Savol: Abu Ali ibn Sino nima uchun Xorazmdan mahfiy ravishda qochib ketadi?  
Javob: G'azna xukmdoriga tobe bo'lishni istamagani uchun.
3. Savol: Abu Ali ibn Sino Hamadonga kelgach qanday lavozimlarda ishlagan?  
Javob: Saroy tabibi, so'ng vazir.
4. Savol: Abu Ali ibn Sino qanday kasallikdan vafot etgan?  
Javob: Qulunj va tutqanoq.
5. Savol: Abu Ali ibn Sinoning bizgacha nechta asari yetib kelgan?  
Javob: 240-242 ta.
6. Savol: Abu Ali ibn Sinoning falsafaga bag'ishlagan eng yirik asari?  
Javob: Kitob ush – shifo.

7. Savol: Abu Ali ibn Sino «Hay ibn Yaqzon», «Uygʻon oʻgʻli Tirmk» asarini qayerda yozgan?  
 Javob: 1023 yili Faradjo qalʼasi qamoqxonasida.
8. Savol: Abu Ali ibn Sinoning Gʻarbdagi nomi?  
 Javob: Avitsenna.
9. Savol: Abu Ali ibn Sinoning eng soʻnggi yirik falsafiy asari?  
 Javob: Ishoratlar va tanbehtar.
10. Savol: Abu Ali ibn Sinoning qaysi asarini Geradot tarjima qilgan va u Ovroʻpa universitetida oʻqitilgan.  
 Javob: Tib qonunlari kitobi.
11. Savol: Abu Ali ibn Sino necha yoshida hokim boʻlib, shuhrat qozonadi?  
 Javob: 22 yoshida.
12. Savol: Abu Ali ibn Sinoning «Tadbiri Manzil» asarida nimalarga koʻproq ahamiyat berilgan?  
 Javob: Oila muhiti, bola tarbiyasi.
13. Savol: Abu Ali ibn Sinoning qaysi asarini XI asrning «Tibbiyot qomusi» desa boʻladi?  
 Javob: «Qonun».
14. Savol: Abu Ali ibn Sinoning qaysi asari Gʻarb mamlakatlarida XVIII asrgacha tibbiy qoʻllanma boʻlib kelgan?  
 Javob: Tib qonunlari.
15. Savol: Abu Ali ibn Sino tugʻilgan joyning bugungi kundagi toʻliq manzili?  
 Javob: Buxoro viloyati, Peshku tumani, Afshona qishlogʻi.
16. Savol: Abu Ali ibn Sinoning asarlari bizda hozir qayerda saqlanadi?  
 Javob: Toshkent. Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida.
17. Savol: Abu Ali ibn Sino necha yil umr koʻrgan?  
 Javob: 57 yil.
18. Savol: Abu Ali ibn Sinoning soʻnggi nafasigacha birga boʻlgan eng yaqin shogirdi?  
 Javob: Abu Ubayd Juzjoniy.

19. Savol: Abu Ali ibn Sinoning «o'rjuza fit-tib» asari nechanchi yil o'zbek tilida va qayerda bosilib chiqilgan?  
Javob: 1972 yil, Toshkentda.

Olib borilgan viktorina savollar natijasini quyidagi jadvalda kuzatamiz:

**«Tezkor savolga – tezkor javob»**

**O'yin texnologiyasi natijalari**

T/r	O'zlashtirish ko'rsatkichi (foizlarda)	Birinchi guruh	Ikkinchi guruh	Uchinchi guruh
1.	Past			
2.	O'rta			
3.	Yuqori			

## XULOSA

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub islohotlar kechayotgan hozirgi kunlarda talabalarning ma'naviy-kasbiy rivojlantirish masalalari alohida dolzarflik kasb etdi. Yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida «Avesto» yodgorligi va Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti hamda Ma'mun akademiyasi olimlari merosidan foydalanish yanada samarali bo'lishiga olib keldi. Haqiqatdan ham bu ma'naviy merosimiz turli pedagogik muammolarni hal etishda, eng muhimi, ma'naviy barkamol insonni rivojlantirish va bu bilan pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda ulkan imkoniyatlarga egadir. Pedagogika tarixi orqali talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash tizimini takomillashtirish pedagogika fanini. O'zbekiston tarixi, falsafa, etika, xususiy uslubiyot fanlari bilan o'zaro aloqada o'qitish jarayonida amalga oshirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi. Bu borada pedagogika tarixi kursini o'qitishning turli xil yo'llari, usul va vositalari ayniqsa katta imkoniyatlarga ega. Talabalarni Abu Nasr ibn Iroq, Abu Sahl Masihiy, Abulxayr ibn Hammor, Abu Abdulloh ibn Yusuf al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Miskavayx, Abu Mansur as-Saolibiy kabi mutafakkirlar hayoti, ilmiy faoliyati, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga oid fikr va g'oyalari bilan tanishtirish natijasida ular ongi va xulqida ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi.

O'quv qo'llanmani yaratish jarayonida talabalar qanday yashash, o'qish va ishlash kerakligiga namuna, o'rnak bo'la oladigan allomalarning ilg'or fikr va g'oyalari bilan tanishtirish imkoniyatlari ochib berildi; ular ongi mutafakkirlar turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda qanday faoliyat ko'rsatganligi haqidagi bilimlar bilan boyitildi; tarbiyaning mohiyati, maqsadi, tarkibiy qismlari: aqliy, estetik, jismoniy, mehnat va, ayniqsa, talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash haqidagi tushuncha va tasavvurlari kengaytirildi; «Avesto» yodgorligi va Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti hamda Ma'mun akademiyasi mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya masalalarini talqin qilishda uning ustuvorligiga ishontirildi va isbotlandi; kasbiy va ma'naviy sifatlarini tarkib toptirish uchun tinimsiz mehnat hamda shaxsiy sifatlarini takomillashtirib borish zaruriyati tushuntirildi. Talabalarda o'zining buyuk yurtdoshlari, dunyo ilm-fani, jumladan, pedagogika fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan olimlar bilan faxrlanish tuyg'usi paydo bo'ldi; Vatanga muhabbat, uning tarixi, an'analari, xalq pedagogikasi xazinasiga qiziqishi orttirildi; xalqimizning buyuk allomalari merosini mustaqil ravishda yanada chuqurroq o'rganishga ishonch hosil qilindi. Zardushtiylikdan islomgacha

bo'lgan davrda Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq hududi «Avesto»dagi diniy - axloqiy qadriyatlarga asoslangan ta'lim-tarbiya haqidagi ta'limotning yaxlit tizimi mavjud bo'lganligi haqidagi fikr va g'oyalar berildi. Zardushtiylik Sharq va G'arbning keyingi falsafiy va siyosiy-huquqiy ta'limotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Uning axloqiy tamoyili: «ezgu fikr», «ezgu kalom», «ezgu amal» triadasi Sharq xalqlarining eng qadimgi davrlardan hozirgi vaqtgacha bo'lgan ma'naviy-axloqiy qarashlariga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatganligi ochib berildi.

Chunki «Avesto»da ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy tamoyillar dunyoviy asosga ega bo'lib, Yer yuzida adolat va aql tantanasi uchun kurashda g'oyaviy qurol bo'lib xizmat qilgan.

Gurganchda tashkil topgan «Olimlar uyushmasi» tarixda Ma'mun akademiyasi nomi bilan shuhrat qozondi va Sharqda madaniy hamda ilmiy yuksalishda katta ahamiyat kasb etdi.

Ma'mun akademiyasining ahamiyati shundan iborat ediki, u yerda Xorazmshoh Ali ibn Ma'munning rahnamoligida fundamental tadqiqotlar olib borilgan. Chunonchi, matematika, astronomiya, kimyo, geodeziya, mineralogiya, tibbiyot, dorishunoslik kabi dunyoviy ilmlar rivojlangan edi; insonning koinotga parvozi haqidagi g'oya va uning amaliy qo'llanishi shu akademiya tufayli dunyoga keldi; akademiya mamlakatlar o'rtasida madaniy va ilmiy aloqalar mustahkamlanishiga ko'maklashdi; akademiya ilgari surgan gipotezalar, fikr va g'oyalar fanning kamida besh yuz yillik rivojida boshqaruvchi vazifasini o'tadi; shu ilmiy markaz tufayli qator olimlarning ma'naviy tarbiyaga oid qarashlari hozirgi kungacha yetib keldi.

«Avesto» yodgorligi va Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti hamda Ma'mun akademiyasi mutafakkirlarining ta'limotlari tizimlashtirilib tahlil etildi hamda ularning pedagogik fikr va g'oyalaridan talaba-yoshlarning ma'naviy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash ma'naviy sog'lom avlod tarbiyasida foydalanish yo'llari, shakl va usullari yoritildi.

Sharq xalqlari ma'naviy merosining nodir namunasi «Avesto»ning jamiyatda inson faoliyatining ma'naviy asoslarini belgilovchi axloqiy tamoyili Sharq va G'arbda falsafiy, siyosiy, huquqiy, pedagogik tafakkurning rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Pedagogik fikrlar taraqqiyotida «Avesto» yodgorligi va Sharq allomalarning pedagogik ta'limoti hamda Ma'mun akademiyasi mutafakkirlarining talabalar ma'naviy sifatlarini tarbiyalashga doir fikr va g'oyalari o'z davri jamiyat taraqqiyoti talabalaridan kelib chiqqan holda keyingi davrlarda ham yosh avlod tarbiyasida aql-idrok, bilim, yaratuvchilik, ijodkorlik, xulq-odob, insoniy munosabatlar, mehnatsevarlik, sog'lom turmush tarzi kabilarni tarkib toptirishda o'z ahamiyatini yo'qotilmaganligi

o'quv qo'llanmada o'z aksini topdi

Zardushtiylik ta'limoti, «Pedagogika tarixi» kursida muhim o'ringa ega bo'lgan mutafakkirlar va Ma'mun akademiyasi olimlarining tarbiya tizimida o'ziga xos umumiylik mavjud bo'lib, bu umumiylik iymon-e'tiqod, ona-Zamin, Vatanga muhabbat, erksevarlik, adolat, xalqparvarlik, insonparvarlik, xulq-odob qoidalari bosh g'oya tarzida fikrlar mahsuli bo'lib, talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalashda o'ziga xos uyg'unlik kasb etadi.

Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalashga doir fikr va g'oyalarni o'quv rejasida ko'zda tutilgan o'quv materialini mazmuniga mantiqiy jihatdan to'g'ri bog'lay olish, nazariy ma'lumotlarni amaliy mashg'ulotlarda qo'llay bilish, talabalarning o'z fikrlarini qiyoslash, chog'ishtirishda ilg'or texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Tarix o'tmish va kelajak o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaruvchi omil deb qabul qilinsa, pedagogika tarixi insoniyatning asrlar davomida orttirgan tarbiya va madaniyatga oid tajribalarini bugungi davr talabiga moslab yetkazuvchi ijtimoiy fandır.

Demak, pedagogika tarixi pedagogika sohasidagi har qanday nazariy va amaliy hodisalarga davr talabi asosida yondashadi va o'rganadi. Tarbiya nazariyasi va amaliyotining turli bosqichlarida xilma-xil bo'lishligini ochib berib, ilg'or qarashlarining taraqqiyot yo'lini ko'rsatadi.

Pedagogika tarixi fani pedagogika, psixologiya, falsafa, madaniyat tarixi, O'zbekiston tarixi, jahon xalqlari tarixi, etnografiya, arxeologiya, axloqshunoslik, adabiyot tarixi va boshqa bir qator fanlar bilan uzviy aloqadordir.

Bugungi kunda pedagogika tarixini o'rganish qadimiy yozuvlar, bitiklar, qo'lyozma manbalar, xalq og'zaki ijodi, muqaddas diniy kitoblar, Sharq mutafakkirlarining merosi, pandnomalar, jahon mutafakkirlarining pedagogik qarashlari, zamonaviy pedagogika fani darg'alarining konseptual g'oyalari, ta'lim-tarbiya va maorif ishini yuksaltirishga doir hukumat qarorlari, milliy istiqloq g'oyalariga asoslangan milliy mafkuramiz materiallari, O'zbekiston Prezidentining ta'lim-tarbiyaga oid asarlariga asoslanadi.

Darhaqiqat, o'z Vatani tarixini bilishni, donishmand halqimizning ko'p asrlik tajribalarini va jamiyatning madaniy-ma'rifiy taraqqiyoti bilan bog'liq an'analarni ifodalab kelgan pedagogika tarixining o'tmishi, istiqbollari va bugungi o'zgarishlarini o'rganish davr talabidir.

# MUNDARIJA

KIRISH.....3

## **MUSTAQIL O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY QADRIYATLARNING TIKLANISHI VA ULARNING TARIXIY ILDIZLARI**

- 1.1. Tarixiy, pedagogik manbalar asosida talabalarning ma’naviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirish.....9
1. 2. «Pedagogika tarixi» kursini o‘rganish orqali talabalarda ma’naviy sifatlarini tarbiyalashning hozirgi ahvoli.....23

## **II. TALABALARNING MA’NAVIY SIFATLARINI TARBIYALASHDA PEDAGOGIKA TARIXINING O‘RNI, MAZMUNI, SHAKLLARI, USUL VA USLUBLARI**

- 2.1. «Avesto»da ma’naviy tarbiya masalalari.....40
- 2.2. Ma’mun akademiyasi olimlarining ma’naviy-ma’rifiy qarashlari orqali talabalarda ma’naviy sifatlarni tarbiyalash masalalari.....57
2. 3. Sharq mutafakkirlari pedagogik ta’limotida talabalarning ma’naviy sifatlarini rivojlantirishning istiqbolli rejaları shakl va uslublari.....78

## **III. SHARQ ALLOMALARI FAOLIYATI YUKSAK MA’NAVIY – MADANIYAT TIMSOLI**

- 3.1. Talabalarning ma’naviy sifatlarini tarbiyalashda pedagogika tarixining ahamiyati.....102
- 3.2. Pedagogik texnologiyalarni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish yo‘llari va imkoniyatlari.....113

XULOSA.....124

**Axmedova Malohat  
Ergashevna**

**PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI  
(Pedagogika tarixi)**

Bosh muharrir: M.Saparov  
Muharrir: N.Imomov  
Musahhih: F.Safaraliev  
Rassom: D.O'rinova

**«TAFAKKUR-BO'STONI» nashriyoti**  
Toshkent sh. Yunusobod 9-13.

Litsenziya № AI 190. 10.05.2011 y.

Bosishga ruxsat etildi: 15.07.2011 y. Bichimi 60x84<sup>1/16</sup>.  
“Times New Roman” garniturasida. Shartli bosma tabog'i 8.  
Adadi 500 dona. Buyurtma № 23/05.

«TAFAKKUR» nashriyoti bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent sh., Chilonzor ko'chasi 1.